



Tadjqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

MAY  
№64  
ANDIJON



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР  
2-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЙ ИССЛЕДОВАНИИФ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC RESEARCH  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2024**



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 64-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2024 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2024. – 194 бет

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазибалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

## **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

## **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

## **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -**

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

## **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тугган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **5. Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

## **6. Журналистика -**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

## **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

## **8. Адабиёт -**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни -**

Phd Воҳидова Меҳри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Таҳировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

## **11. Жисмоний тарбия ва спорт -**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



## 14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 15.Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## 17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## 18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Мамадова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

## 19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## 20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## 21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

## 22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## 23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000





## ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### СУДЬЯЛАР ДАХЛСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**З.Х.Тожиев**

Денов туманлараро иқтисодий судининг раиси  
Тел:(93)3130839

**PhD, М.Н. Мамаюсупов**

Денов туманлараро иқтисодий судининг судьяси,  
Тел:(90)9695972

**Аннотация:** Судьялар дахлсизлигини таъминлашнинг халқаро -ҳуқуқий асослари ёритилган.

**Калит сўзлар:** судьялар дахлсизлиги, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт, Суд органлари мустақиллигининг асосий тамойиллари, Суд таъқибини амалга ошираётган шахсларга оид раҳбарий тамойиллар, Судьяларнинг одоб-ахлоқига оид Бангалор принциплари, Судьяларнинг бутунжаҳон хартияси, Барча шахсларни зўрлик билан йўқолишдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги конвенция.

Одил судловни холис амалга ошириш, судьяларнинг ҳақиқий мустақиллигини, дахлсизлигини таъминлаш ҳар қандай жамиятнинг, давлатнинг олдида турган устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Шу боис, халқаро ҳуқуқий нормалар ва миллий қонунчиликда судьялар дахлсизлиги масалаларига оид бир қанча махсус қоидалар белгиланган.

Хусусан, халқаро ҳуқуқнинг судьялар дахлсизлигига оид стандартлари асосан универсал ва минтақавий турларга бўлинади.

Халқаро ҳуқуқнинг судьялар дахлсизлигига оид универсал стандартларнинг асосийлари сифатида Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь, мамлакатимиз имзолаган дастлабки халқаро ҳужжат 1991 йил 30 сентябрь), Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт (1966 йил 16 декабрь), Суд органлари мустақиллигининг асосий тамойиллари (БМТ Бош Ассамблеясининг 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган, 1985 йил 29 ноябрь)<sup>1</sup>, Суд таъқибини амалга ошираётган шахсларга оид раҳбарий тамойиллар (БМТнинг 8-конгресси томонидан 1990 йил 27 август-7 сентябрда қабул қилинган)<sup>2</sup>, Судьяларнинг одоб-ахлоқига оид Бангалор принциплари (2002 йил 26 ноябрь)<sup>3</sup>, Судьяларнинг бутунжаҳон хартияси (1999 йил 17 ноябрь)<sup>4</sup>, Барча шахсларни зўрлик билан йўқолишдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги конвенция (БМТ Бош Ассамблеясининг 47/133-сонли резолюцияси билан тасдиқланган, 2010 йил 23 декабрь)<sup>5</sup> кабиларни келтиришимиз мумкин.

“Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация”си мазкур ҳужжатлар орасида алоҳида ўринга эга бўлиб, унинг негизида кейинги барча ҳужжатлар ўз ривожини топган ва шакллантирилган, гарчи ушбу декларация дастлаб давлатлар учун тавсиявий характерга эга бўлган бўлса ҳам, кейинчалик ҳуқуқ амалиётининг ривожланиши ва барча давлатлар томонидан тан олинishi муносабати билан халқаро ҳуқуқнинг давлатлар учун мажбурий бўлган асосий ҳужжатларидан бирига айланди.

Декларациянинг 3 - моддасида “ҳар бир инсон яшаш, эркин бўлиш ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқларига эгаллиги”, 12-моддасида “ҳеч кимнинг шахсий ва оилавий ҳаётига ўзбошимчалик

1 [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/indep.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/indep.shtml)

2 <http://hrlibrary.umn.edu/russian/instree/Ri4grp.html>

3 [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/bangalore\\_principles.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/bangalore_principles.shtml)

4 <https://www.ohchr.org/ru/special-procedures/sr-independence-of-judges-and-lawyers/international-standards-independence-judges-lawyers-and-prosecutors>

5 <https://www.ohchr.org/ru/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-all-persons-enforced>



билан аралашуш, уй-жойи дахлсизлигига, унинг ёзишмаларидаги сирларга ёки унинг номус ва шаънига ўзбошимчалик билан тажовуз қилиниши мумкин эмас. Ҳар бир инсон худди шундай аралашув ёки тажовуздан қонун орқали ҳимоя қилиниш ҳуқуқига эгаллиги” белгиланган.

Шунингдек, Декларациянинг 10-моддасида судларнинг мустақиллиги мустаҳкамланган бўлиб, унга кўра “ҳар бир инсон ҳуқуқ ва бурчларини белгилаш ва унга қўйилган жиноий айбнинг қанчалик даражада асосли эканлигини аниқлаши учун тўлиқ тенглик асосида унинг иши ошкора ва адолат талабларига риоя қилинган ҳолда мустақил ва холис суд томонидан кўриб чиқилиши ҳуқуқига эгадир”.

Ушбу нормада судьяларнинг мустақиллиги ва дахлсизлигини таъминлаш орқали одил судловнинг қонуний ва адолатли бўлишини кафолатлаш мумкинлиги назарда тутилган.

Навбатдаги муҳим халқаро ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланадиган Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пактда ҳам судлар мустақиллиги, судьялар дахлсизлиги масалалари белгилаб берилган бўлиб, 9-моддасида “ҳар бир инсон эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқига эга. Ҳеч ким ўзбошимчалик билан ҳибсга олиниши ёки қамокда сақланиши мумкин эмас. Ҳеч ким қонунда белгиланганидан бошқача асос ва тартибда озодликдан маҳрум этилиши мумкин эмас”лиги, 17-моддасида “ҳеч ким ўзининг шахсий ва оилавий ҳаётига ўзбошимчалик ёки ноқонуний тарзда аралашушга, ўзининг уй-жойи ёки ёзишмалари сири дахлсизлигига ўзбошимчалик ёки ноқонуний тарзда тажовуз қилинишига ёки унинг ор-номуси ва шаънига ноқонуний тажовуз қилинишига дучор этилиши мумкин эмас”лиги, “барча шахслар судлар ва трибуналлар олдида тенгдир. Ҳар бир киши унга қўйилаётган ҳар қандай жиноий айблов кўриб чиқилаётганда ёки бирор-бир фуқаролик жараёнида унинг ҳуқуқ ва бурчлари аниқланаётганида қонунга асосан тузилган ваколатли, мустақил ва холис суд томонидан мазкур иш адолатли ҳамда очиқ ҳолда кўриб чиқилиши ҳуқуқига эга”лиги (14-модда) ўз ифодасини топган.

Халқаро ҳуқуқнинг судьялар дахлсизлигига оид асосий тамойиллари белгиланган яна бир муҳим ҳужжат БМТ Бош Ассамблеясининг 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган “Суд органлари мустақиллигининг асосий тамойиллари” бўлиб, унда судлар фаолиятига оид муҳим ва асосий қоидалар белгиланган.

Мазкур Тамойилларнинг 1-бандида қайд этилишича, “суд органларининг мустақиллиги давлат томонидан кафолатланади ва Конституция ёки қонунларда мустаҳкамланади. Барча давлат органлари ва бошқа муассасалар суд органларининг мустақиллигига риоя қилиши ва ҳурмат билан муносабатда бўлишга мажбур”.

Ушбу Тамойиллар билан суд органлари мустақиллиги, уларнинг қонунга бўйсунуши, судьяларнинг одил судловни амалга ошириш борасидаги фаолиятига бирон-бир тарзда аралашушга йўл қўйилмаслиги, судьяларга одил судловни амалга ошириш билан боғлиқ бўлмаган ҳар қандай вазифалар юклатилишига йўл қўйилмаслиги, судьялар бошқа барча фуқаролар сингари сўз эркинлиги, дини, ижтимоий келиб чиқиши, этникоди, уюшмаларга бирлашиш каби ҳуқуқларга эгаллиги, аммо ушбу ҳуқуқлардан суд мустақиллиги ва ўзининг судьялик обрўсига зарар етказмаган ҳолда фойдаланиши, судьялик лавозимига танлаш, тайёрлаш, судьялик лавозимларига танловларда камситишларга йўл қўйилмаслиги, судьяни муносиб иш шароитлари, моддий таъминот, хавфсизлик масалалари, нафақага чиқиш кафолатлари, хизмат фаолияти билан боғлиқ сир сақлаш, дахлсизлиги, судьяни ишдан бўшатиш, жазолашнинг алоҳида тартиблари каби стандартлар белгиланган.

Судлар фаолияти билан боғлиқ асосий ҳужжатлардан яна бири Судьяларнинг одоб-ахлоқига оид Бангалор тамойиллари ҳисобланади. Ҳозирги кунда Бангалор тамойиллари аксарият давлатлар учун ўз миллий қонунчилигида судьялар билан боғлиқ қонунчиликни ривожлантиришда дастуруламал бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Жумладан, БМТнинг Иқтисодий ва ижтимоий кенгашининг 2006 йил 27 июлдаги 2006/23-сонли резолюциясида аъзо давлатлар учун Бангалор тамойилларини ўз ички ҳуқуқ тизимида, судьялар одоби, этика кодексларини ишлаб чиқишда қўллаш бўйича тавсия қилган.

Бангалор тамойиллари судьялар фаолияти ва хулқ-атворида оид қуйидаги муҳим қоидаларни ўз ичига олган: мустақиллик, объективлик, ҳалоллик ва сотилмаслик, этика қоидаларига риоя этиш, тенглик, компетентлик ва интилувчанликдир.

Бангалор тамойилларининг биринчиси судьянинг мустақиллиги тамойилига бағишланган бўлиб, у қонунда белгиланган тартибда лавозимга сайлаш, тайинлаш, судьялик ваколатларини тўхтатиб туриш ва тугатиш, судьянинг дахлсизлиги, одил судловни амалга оширишдаги қатъий



тартиб-таомил, қарорларни чиқариш чоғида судьялар маслаҳатлашувининг сир тутилиши ва уни ошкор қилишни талаб этишнинг тақиқланиши кабилар орқали таъминланади.

Яна бир муҳим ҳужжатлардан бири Судьялар халқаро ассоциациясининг “Судьяларнинг бутунжаҳон хартияси” бўлиб, унда ҳам судьяларнинг дахлсизлиги, шу жумладан хавфсизлиги масалалари ҳар томонлама ёритилган.

Жумладан, Хартиянинг 2-5-моддасида “Судья ўзига бўладиган ҳар қандай таҳдидлардан қонун йўли билан ҳимояланган ҳамда ушбу қонунлар орқали ўзини ҳимоя қила оладиган, давлат томонидан ўзи ва оила аъзоларининг жисмоний хавфсизлиги таъминланиши”, “ҳокимият ёки унинг органларининг бевосита ёки билвосита босим, таҳдид, таъсирларидан холи бўлиши” каби муҳим нормалар мустаҳкамланган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб судьяларнинг дахлсизлиги масалалари аксарият асосий халқаро ҳуқуқий нормаларда ўз аксини топган ҳамда барча давлатларнинг миллий қонунчилигида янада ривожлантирилган.

Бу эса ўз навбатида судьянинг ҳар томонлама муҳофаза қилинганлигини, одил судловни амалга ошириш борасидаги профессионал фаолиятини фақат қонунга бўйсунган ҳолда ўз вазифаларини одилонга, сифатли, тезкор ва виждонан бажаришини таъминлайди.

Хулоса ўрнида айтадиган бўлсак, қайд этилган халқаро ҳужжатлар давлатларнинг миллий ҳуқуқ тизимини ривожлантириш ва такомиллаштириш ишларига манба сифатида хизмат қилиши, судьялар дахлсизлигини таъминлашда муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Халқаро ҳуқуқнинг судьялар дахлсизлигига оид универсал стандартларнинг асосийлари сифатида Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь, мамлакатимиз имзолаган дастлабки халқаро ҳужжат 1991 йил 30 сентябрь)
2. Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт (1966 йил 16 декабрь)
3. Суд органлари мустақиллигининг асосий тамойиллари (БМТ Бош Ассамблеясининг 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган, 1985 йил 29 ноябрь)
4. Суд таъқибини амалга ошираётган шахсларга оид раҳбарий тамойиллар (БМТнинг 8-конгресси томонидан 1990 йил 27 август-7 сентябрда қабул қилинган)
5. Судьяларнинг одоб-ахлоқига оид Бангалор принциплари (2002 йил 26 ноябрь)
6. Судьяларнинг бутунжаҳон хартияси (1999 йил 17 ноябрь)
7. Барча шахсларни зўрлик билан йўқолишдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги конвенция (БМТ Бош Ассамблеясининг 47/133-сонли резолюцияси билан тасдиқланган, 2010 йил 23 декабрь)



VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN OZODLIKDAN MAHRUM QILISH  
JAZOSINI O'TASH REJIMINING UMUMIY TAVSIFI

Kulturayeva Sarvinoz Sadridin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Telefon: +998936083835

salokhovasarvinoz1997@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu tezisda voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tushunchasi, jazoni ijro etish rejimi va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar, ozodlikdan mahrum qilish jazosi, tarbiya koloniyalari, jazoni ijro etish, jazoni o'tash rejimi.

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi jazoni ijro etish institutining umumiy normalari bilan chambarchas bog'liq. Shunga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida rejimni huquqiy tartibga solish to'g'risidagi bilimlar orqali tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish rejimining mohiyatini tahlil qilishimiz uslubiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda "rejim" tushunchasi dastlab S.V.Poznyshev tomonidan tahlil qilingan bo'lib, uning fikriga asosan, "penitentsiar rejim" keng ma'noda jazoni ijro etish muassasalari tomonidan jazoni o'tashning maqsadlariga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarning butun tizimini qamrab oladi. Bunda, rejim birinchidan, mahkumlarga axloq tuzatish vositalarini qo'llashning barcha usullarini, ikkinchidan, mahkumlarni axloqan tuzatishga qaratilgan jazoni ijro etish tizimi va jazoni ijro etish muassasalarida o'rnatilgan kundalik hayot tartibini o'z ichiga oladi [1].

B.S.Utevskiyning fikricha, rejim ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashning tashqi belgilari ya'ni mahkumlarning kun tartibi, ularning harakatlanish qoidalari, tashqi dunyo bilan aloqasi, mahkumlarga intizomiy jazo turlari va rag'batlantirish choralarini qo'llash kabi jarayonlardan iboratdir [2].

Shuningdek, G.A.Tumanovning fikriga ko'ra, jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun axloq tuzatish muassasalarida rejim yetarli darajada ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu esa, mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta o'qitishga qaratilgan usullarni amalga oshirishni ta'minlaydigan barcha chora-tadbirlar majmuyini qamrab oladi [3].

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, **rejim jazoni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari va ishtirokchilarining xatti-harakat qoidalarini, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi**, deyishimiz mumkin.

Rejim normalari mahkumlarga axloq tuzatish choralarini qo'llash, shuningdek mahkumlar va boshqa shaxslar tomonidan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Rejim deganda, asosan, axloq tuzatish muassasasining barcha faoliyati tushuniladi.

Tarbiya koloniyalarida jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan rejimi mahkumlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunda jazoni ijro etish rejimi jamiyat a'zolarini, shuningdek, jinoyat sodir etgan mahkumni keyingi jinoiy xatti-harakatlarni sodir etishdan himoya qilishi va mahkumga axloq tuzatish vositalaridan foydalanishni ta'minlashi kerak. Boshqa tomondan, jazoni o'tash rejimi ma'lum bir voyaga yetmagan mahkumga nisbatan jazo maqsadlariga erishish, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish uchun zaruriyat va yetarlilik talablariga javob berishi kerak. **Jazoni o'tash tartibi – bu ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan voyaga yetmaganlarning hayoti, mehnati, o'qishi va dam olish tartibi, shuningdek jazoni o'tash shartlarini amalga oshirish tartibidir. Jazoni o'tash rejimi mahkumlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi muayyan majburiy qoidalar tizimiga asoslanadi.**

Shuni yodda tutish kerakki, jazoni ijro etish va o'tashning huquqiy rejimi o'zgaras jarayon emas. Uning mazmuni ko'p jihatdan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq. Xususan, jazoni ijro etishda gumanizm tamoyilining amalga oshirilishi ta'lim koloniyalari faoliyatidagi o'zgarishlarga tubdan ta'sir qildi. Natijada, oldindan mavjud bo'lgan ko'plab rejim talablari yumshatildi yoki butunlay bekor qilindi.

Ta'kidlash lozimki, jazoni ijro etish va o'tashning huquqiy rejimi jinoyat-ijroiya qonunchiligining maqsad va vazifalariga erishish uchun huquqiy vositalarning maqbul kombinatsiyasini tanlashga imkon beradi, bu esa tarbiya koloniyasi ma'muriyati va jazoni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan





ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, rejim mahkumlarni tuzatishning asosiy huquqiy vositalaridan biri bo‘lib, boshqa huquqiy vositalardan (tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy foydali mehnat, umumiy ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy ta’sir) foydalanish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya koloniyalarida jazoni ijro etish va o‘tash rejimining maqsadi tartibga solish, jazolash, profilaktika, ijtimoiy nazorat funksiyalari bilan bir qatorda, birinchi navbatda uning **tarbiyaviy (ta’lim) funksiyasida** namoyon bo‘ladi.

Ushbu belgilarni ochib berar ekan, A. S.Makarenko rejimning barcha funksiyalari voyaga yetmaganlarni tarbiyalashga xizmat qilishi, muassasaning belgilangan tartib-qoidalar va kundalik ishlarda istisno va yengillikka yo‘l qo‘yilmasligi kerakligi, rejim hamma uchun majburiy, asosli bo‘lishi, aniq qoidalar va javobgarlikni taqsimlash bilan tartibga solinishi kerakligini ta’kidlagan [4].

Zamonaviy tadqiqotchilarning katta qismi ham ta’lim koloniyalarida rejimning tarbiyaviy funksiyasining ustunligini ko‘rsatmoqda. Rejimning tarbiyaviy funksiyasi jinoyat-ijroiya qonunchiligimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi, uni amalga oshirishda esa Jinoyat ijroiya kodeksining 6-moddasida belgilangan jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplariga asoslanadi.

Tarbiya koloniyalarida rejimning mahkumlarga tarbiyaviy ta’siri ularni intizomga, jazoni o‘tash paytida ijtimoiy ma’qullangan xatti-harakat qoidalariga rioya qilishga o‘rgatadi. Mahkumlarni umumiy ta’lim, kasb-hunar ta’limiga yo‘naltirish, ishlab chiqarish ustaxonalarida ishlash, sport bilan shug‘ullanish orqali ularning bo‘sh vaqti mazmunli tashkil etilishi ta’minlanadi. Yuqoridagi kabi kun tartibining belgilanishi rejimning axloq tuzatish vositalaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, rejim mahkumlarni ijtimoiy foydali xatti-harakatlarga majbur qiladi, ularda itoatkorlikni tarbiyalaydi.

Tarbiya koloniyalarida rejimning tarbiyaviy funksiyasi voyaga yetmagan mahkumlarni qonunda nazarda tutilgan tarbiyaviy ishlarning shakllari va usullaridan foydalangan holda tuzatishga erishish imkon beradi. Ushbu jarayon ularni havaskor tashkilotlarga jalb qilish, rag‘batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo‘llash, mahkumlarni umumiy ta’lim olishni tashkil etish kabilar orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiyaviy ishlar voyaga yetmagan mahkumlarda ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanish istagini shakllantiradi va kuchaytiradi, ularni mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashga, qonunlar va boshqalarning talablariga rioya qilishga yordam beradi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya qilishni o‘rganish orqali ularning ta’lim-tarbiyasi va madaniy darajasi oshib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. С.Б.Рябых. Правовой режим исполнения и отбывания наказания в воспитательных колониях России. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2011. Москва НИИ ФСИН России. <https://www.dissercat.com/>

2. А.Л. Санташов. Исполнение лишения свободы в отношении несовершеннолетних: вопросы законодательной техники и дифференциации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2006. Москва. <https://www.dissercat.com/>

3. А.В.Наговицына. Роль воспитательных колоний в исправлении несовершеннолетних осужденных. Екатеринбург, 2018. – 53. С.

4. С.Б.Рябых. Правовой режим исполнения и отбывания наказания в воспитательных колониях России. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2011. Москва НИИ ФСИН России. <https://www.dissercat.com/>



ZAMONAVIY JAMIYATDA AYOLLARNING SIYOSIY VA IQTISODIY  
HUQUQLARINI TAHLIL OLISH.

Nabibullayeva X.

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistr talabasi

+998909412737

Xurshida.nabibullayeva@gmail.com

**Anotatsiya:** Zamonaviy jamiyatda ayollarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari tahlili deb nomlangan ushbu maqolada ayollarning siyosiy va iqtisodiy huquqlarining bugungi holati har tomonlama o'rganilib, doimiy to'siqlar aniqlanib, ularni takomillashtirish bo'yicha strategiyalar taklif etiladi. Tadqiqot turli xil ayollar guruhidan ma'lumotlarni to'plash uchun miqdoriy so'rovlar va sifatli intervyularni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Natijalar huquqlardan xabardorlik va ularning real ro'yobga chiqishi o'rtasidagi jiddiy tafovutlarni ko'rsatadi, tizimli qarashlar va madaniy me'yorlar asosiy to'siqlardir.

**Kalit so'zlar:** Ayollar huquqlari, jinsiy tenglik, siyosiy ishtirok, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, tizimli to'siqlar, kesishuvchanlik, ish joyidagi diskriminatsiya, qonunchilikdagi islohotlar, madaniy normalar, gender tarafdashligi, ta'lim tashabbuslari, korporativ javobgarlik siyosat asoslari, inklyuziv jamiyat

**Tadqiqot maqsadi:** Zamonaviy jamiyatda ayollarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari bo'yicha tahliliy tadqiqot o'tkazish.

**Material va usullar:** Toshkent Davlat Yuridik Universitetining Xotin qizlar bo'limi bilan hamkorlikda biz turli yoshdagi, ta'lim darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy maqomlari xar hil bo'lgan 50 nafar ayol bilan o'tkazilgan so'rovlar va suhbatlar ma'lumotlarini o'rganib chiqdik.

**Natijalar:** Tekshirilayotgan ishtirokchilar orasida 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yosh guruhiga 20 nafar ayol (40%), 31 yoshdan 40 yoshgacha - 15 nafar ayol (30%), 41 yoshdan 50 yoshgacha - 10 nafar ayol (20%), va 50 yoshdan oshgan - 5 nafar ayol (10%). Ta'lim darajasi turlicha bo'lgan: 25 (50%) bakalavriat va 15 (30%) aspirantura darajasiga ega. Bandlik masalasida 30 nafar (60 foiz) xotin-qizlar ish bilan ta'minlangan, 10 nafar (20 foiz) yakka tartibdagi tadbirkor, 10 nafar (20 foiz) nafari ishsizlardir.

Siyosiy huquqlar nuqtai nazaridan 40 nafar ayol (80%) o'z saylov huquqlaridan xabardorligini bildirgan, biroq saylovda faqat 30 nafari (60%) faol ishtirok etgan. Bundan tashqari, atigi 10 nafari (20%) ovoz berishdan tashqari, mitinglarda qatnashish yoki targ'ibot guruhlarida qatnashish kabi siyosiy faoliyat bilan shug'ullangan. Iqtisodiy huquqlardan xabardorlik darajasi yuqori, 45 nafar ayol (90%) teng maosh olish va ish joyida kamsitilmaslik huquqlarini bilgan, biroq atigi 25 nafari (50%) amalda bu huquqlarga ega ekanligini his qilgan.

Siyosiy ishtirok etishdagi to'siqlar orasida vaqt yetishmasligi (30%), ularning ovozi muhim emasligini his qilish (25%) va ma'lumot yetishmasligi (20%)ni tashkil etdi. Iqtisodiy huquqlar uchun asosiy muammolar ish haqining nomutanosibliigi (40%), ish o'rinlaridagi ishonchsizlik (30%) va ishda kamsitish (20%)bo'lib chiqdi.

**Xulosa:** Tadqiqot ayollarning siyosiy va iqtisodiy huquqlarini bilish va amalga oshirish o'rtasidagi jiddiy tafovutlarni ko'rsatadi. Ogohlik darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, faol siyosiy ishtirok va iqtisodiy tenglikka tizimli va ijtimoiy to'siqlar to'sqinlik qilmoqda. Siyosiy faollikni oshirish uchun yanada kuchli ta'lim kampaniyalarini boshlash va iqtisodiy huquqlarni ta'minlash uchun yanada kuchli qonunchilik choralari qo'llash tavsiya etiladi. Ayollarning o'z huquqlaridan to'liq foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun doimiy monitoring va qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish kerak. Haqiqiy gender tengligiga erishish alohida shaxslar, jamoalar va hukumatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ayollar o'z siyosiy va iqtisodiy huquqlarini ro'yobga chiqarishda duch keladigan to'siqlar chuqur ildiz otgan va ko'p qirrali. Biroq, keng qamrovli ta'lim dasturlari, mustahkam qonunchilik choralari, qo'llab-quvvatlash tarmoqlari va maqsadli imkoniyatlarni kengaytirish tashabbuslari orqali ushbu muammolarni hal qilish orqali jamiyat ayollarning o'z huquqlaridan to'liq foydalanishini ta'minlash yo'lida muhim qadamlar qo'yishi mumkin. Doimiy monitoring va moslashuvchan strategiyalar ushbu muhim sohada taraqqiyotni saqlab qolish uchun muhim bo'ladi. Birgalikda ishlash orqali biz hamma uchun yanada inklyuziv va adolatli dunyoni yaratishimiz mumkin.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хамдамова Ф.У. Классификация и тенденции развития международных документов в сфере обеспечения и защиты прав женщин // Журнал юридических исследований (РФ), 2019. –Том 4. – № 2.– С.7-18. (12.00.00; №42).
2. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan.
4. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan



XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

**Israilova Zarina Sadriddinovna**

yuridik fanlari bo'yicha falsfa doktori (PhD),

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq va ommaviy huquqiy fanlari” Kafedrası dotsenti

**Shokirova Lola Otabekqizi**

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti,

Xalqaro Huquq fakulteti magistranti

Telefon:+998978057377

E-mail:lolashokirova1@gmail.com

**ANNOTATSIYA.**Maqolada ayollar huquqlarini xalqaro va milliy qonunchilikda erkaklar bilan teng huquqliligini tadbıq etadi.Shunidek, butunjahon hamjamiyatida xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga ularni ijtimoiy,iqtisodiy,davlat va jamiyat rivojining barcha jabhalarida yetakchiligini rivojlantirish va oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va ularga qarshi tazyiq va diskriminatsiyani yo'q qilishga doir xalqaro-huquqiy asoslarni o'rganish.

**Kalit so'zlar:**Siyosat, huquq vaerkinlik, diskriminatsiya, tenglik, globallashuv, muammo.

**ABSTRACT.**The article explores the equality of women's rights with men in international and national legislation.In addition,measures aimed at protecting the rights, freedoms and interests of women in the entire world community, developing and increasing their leadership in all aspects of socio-economic political, state and community development, and studying the international legal framework for eliminating oppression and discrimination against them .

**Key words:** Politics, rights and freedoms, discrimination, equality, globalization, problem.

**KIRISH.** Bugungi shiddatli va murakkab globallashuv davrida inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlariga rioya etilishi sohasidagi vaziyat ham jahon hamjamiyatini tashvishga solib kelyapti.Xotin-qizlar huquqlari masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi, sivilizatsiyaning eng muhim yutuqlaridan biridir.Ayollarning huquqlari - bu ayolning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy maqomini ta'minlovchi huquqlardir. Ular ayollarni jinsi bo'yicha kamsitishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Ayollar huquqlari inson huquqlari bo'yicha ko'plab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va harakatlar dasturlarida kafolatlangan asosiy inson huquqlaridan biridir.Xalqaro miqyosda ayollar huquqlarini himoya qilish ularning huquq va erkinliklarini mustahkamlash va albatta ularning jamiyatdagi rolini oshirish va qo'llab quvvatlash shuningdek,ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlarni ishlab chiqish,amalda mavjud bo'lgan xalqaro standartlar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamini kengaytirish hamda ushbu islohotlar jarayonlari va natijalarini nazorat qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.**Gender tenglik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi haqida gapirilganda “gender” so'ziga ta'rif berib o'tish o'rinnidir.”Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan fanga kiritilgan bo'lib,”jins” ma'nosini anglatadi. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikni ta'minlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujjatlarda belgilab, mustahkamlab o'tilgan. Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro(Rio Deklaratsiyasi 1992 y),Aholishunoslik va rivojlanish bo'yicha Qohira konferensiyasi(1994-y),Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Pekin konferensiyasi(1995-y), Inson manzilgohlari bo'yicha Istanbul konferensiyasi(1996-y)hamda Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-y).[1]Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida inson huquqlari xartiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qilindi. Ushbu hujjatning 2-moddasida Deklaratsiyada bayon qilingan huquq va erkinliklarga irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari,milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulk, tabaqa yoki boshqa holatidan qat'i nazar, barcha insonlar teng ravishda egaligi qayd etilgan bo'lib, u hozirda milliy va xalqaro antidiskriminatsion qonunchilikka asos sanaladi.[2].

Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasi (CEDAW) va uning Fakultativ protokoli hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar huquqlari BMTning boshqa shartnomalarining, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy





huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irtiy kamsitishga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, singari muhim elementlardir. BMT Ayollar tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan tashkilotidir. BMT Ayollar tashkiloti butun dunyo bo'ylab ayollar va qizlar uchun Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi va 4 ta strategik ustuvorlikka e'tibor qaratgan holda hayotning barcha jabhalarida ayollarning teng ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi:

- hukumat faoliyatida ayollar boshqaruvi va ishtiroki teng;
- ayollarning daromad olish, munosib ish tanlash va iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lish imkoniyati;

- barcha ayollar va qizlar zo'ravonlikning barcha shakllaridan xoliligi;
- ayollar va qizlar barqaror tinchlik va insonparvarlik harakatlaridan teng foyda olishi.

Tashkilot quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- ayollarning huquqiy maqomi bo'yicha komissiya va hukumatlararo organlarni siyosat, global mezonlar va me'yorlarni ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlash;
- a'zo davlatlarga ushbu mezonlarni joriy etishda yordam berish, talab qilgan mamlakatlarga tegishli texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish va fuqarolik jamiyati bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- BMT tizimining gender tengligi bo'yicha ishiga rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish va mas'uliyatni oshirish, shu jumladan tizim miqyosida muntazam monitoring o'tkazish.

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida Konvensiya (CEDAW) — 1979-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnoma hisoblanadi. Mazkur konvensiya ayollar huquqlari to'g'risidagi xalqaro qonun sifatida ta'riflangan bo'lib, 1981-yil 3-sentabrda tuzilgan va 189 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 18.08.1995-yilda ratifikatsiya qilingan.

Ishtirokchi-davlatlar quyidagi majburiyatlarni oladilar:

- ❖ erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi tenglik tamoyilini, agarda bu xozirgacha qilingan bo'lmasa, milliy Konstitutsiyaga va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda qonun va boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu tamoyilni amaliyotga joriy etishni ta'minlash;
- ❖ xotin-qizlarning har qanday kamsitilishini ta'qiqlovchi tegishli qonunchilik va boshqa choralarni ko'rish, zarur bo'lganda sanksiyalarni qo'llash;
- ❖ erkaklar bilan tenglik asosida ayollarning huquqlari yuridik jihatdan himoyalaniшни o'rnatish, vakolatli milliy sudlar va davlat muassasalarining yordamida xotin-qizlarning har qanday kamsitilishiga qarshi ularning samarali himoya qilinishini ta'minlash;
- ❖ xotin-qizlarning kamsitadigan biron-bir xatti-harakatlarni amalga oshirishdan tiyilish, davlat organlari va muassasalari ushbu majburiyatga muvofiq faoliyat ko'rsatishlariga kafolat berish;
- ❖ biron-bir shaxs, tashkilot yoki korxonadan xotin-qizlar kamsitilishini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko'rish;
- ❖ xotin-qizlarni kamsituvchi mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan qonunchilik choralarni ko'rish;
- ❖ xotin-qizlarni kamsitishdan iborat bo'lgan o'zining jinoyatchilikka oid qonunlarining barcha moddalarini bekor qilish.

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida va hech qanday kamsitishsiz xalqaro miqyosda o'z hukumatlari nomidan vakillik qilish va xalqaro tashkilotlar ishida qatnashish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida barcha tegishli choralarni ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga erkaklar bilan bir xil fuqarolik huquqlarini va ularni amalga oshirishning bir xil imkoniyatlarini beradilar, jumladan, ular mulkni boshqarish va shartnomalarni tuzish vaqtida xotin-qizlarning teng huquqlarini, shuningdek, tribunal va sud muhokamasining barcha bosqichlarida ularga nisbatan teng munosabatni ta'minlaydilar. Bosh Assambleyaning 1999-yil 6-oktyabrdagi 54/4 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga fakultativ protokol ham mavjud. Ushbu Protokolning ishtirokchi-davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi insonning asosiy huquqlariga, inson qadr-qimmatiga, erkaklar va ayollarning teng huquqliligiga ishonchni yana bir bor tasdiqlaganligini hisobga olib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ham hisobga olgan holda barcha insonlar erkin, qadr-qimmat va huquqlar bo'yicha teng tug'iladilar va har bir inson hech qanday farqi, shu jumladan jinsiga qarab farqlanmasdan, Deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklarga ega ekanligini e'lon qildi.



Inson huquqlari to'g'risidagi paktlar va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar, jinsga ko'ra kamsitishni taqiqlaydi, shuningdek, uning ishtirokchi davlatlari kamsitishni qoralaydigan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani ("Konvensiya") eslatadi. ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish siyosatini olib borish, ayollarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq va teng foydalanishni ta'minlash va ularning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ko'rish qat'iyiligini yana bir bor tasdiqlagan holda, ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish siyosatini olib borishga zudlik bilan barcha tegishli yo'llar bilan kelishib olishadi.[3]

**Muhokama va Natijalar.**Inson huquqlari sohasi shunchalik o'zaro bir-biriga bog'liqlik, davlatlar va hukumatlar va manfaatli tashkilotlar mazkur yo'nalishda kompleks yondashishlari lozimligi talab etiladi. Tizimda muvaffaqiyatga erishish uchun yaxlit harakatlar strategiyasi talab etiladi. Ma'lum huquqlarda kamchiliklar bo'la turib, ma'lum huquqlarda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Inson huquqlari bir-biri bilan shunchalik bog'liqligini ta'kidlab, Stephen Marks aynan inson huquqlari sohasida yaxlit yondashuv ahamiyati tizimning samarali ishlashi uchun muhim ekanligini quyidagicha asoslaydi, ya'ni, inson huquqlariga yaxlit yondashuv bir tomondan fuqarolik va siyosiy huquqlar, ikkinchi tomondan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar o'rtasidagi an'anaviy, ierarxik tafovutlarni rad etadi. Shuningdek, inson huquqlari sohasidagi yaxlitlik tamoyili sohada universallikni da'vo qiluvchi hukumatlarni ayollar huquqlari, demokratik jarayonlarda ishtirok etish yoki ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar kabi inson huquqlarning ayrim turlarini e'tiborsiz qoldirishayotganligi shubha ostiga qo'yadi. Buyuk yunon faylasufi, siyosatshunos olim, Aristotel, davlat va jamiyat borasidagi ilk qarashlar shakllangan davrda, inson to'laqonli fuqaro bo'la olishi uchun u o'zining barcha huquq va erkinliklaridan to'liq foydalana olishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu bejizga aytilmagan insonning barcha huquqlari inson qadrqimmatining ajralmas qismidir. Shu sababli, barcha inson huquqlari teng maqomga ega va ularni "ierarxik tartibda joylashtirish mumkin emas." Inson huquqlariga oid ikkita eng muhim xalqaro paktida insonning barcha huquq va erkinliklari to'liq ta'minlanishi xususiyatlari aks etgan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (International Covenant on Civil and Political Rights) hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR) shular jumlasidandir. Mazkur hujjatlar BMT Bosh Assambleyasi Qarori asosida vujudga kelgan. Bu ikki pakt inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan birgalikda "Inson huquqlari to'g'risidagi Bill" ni tashkil etadi. Shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt har bir insonning tenglik asosidagi fuqaroviy va siyosiy huquqlaridan foydalanish mexanizmlarini ochiq va oydin o'zida namoyon etgan. Xususan, 2 va 25-moddalar saylash va saylanish huquqining kafolatlariga bag'ishlanib, davlatlarga bu borada alohida tavsiya va majburiyatlarni yuklaydi. Mazkur jihatlar xotin-qizlarning siyosiy vakilligi, ularning qaror qabul-qilish jarayonlaridagi ishtirokini oshirishga oid masalalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson huquqlariga oliy qadriyat sifatida qaralayotgan yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash uchun barcha huquqiy asoslar, shart-sharoitlar mavjud. Jumladan, vakillik organlariga oid saylov qonunchiligida ayollarga imtiyozlar belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunda xotin-qizlar soni siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil etishi lozimligi qayd etilgani ham fikrimizni yaqqol isbotlaydi. Quvonarlisi shundaki, yurtimiz ayollari nafaqat yirik mutaxassis, balki senator yoki deputat, olim, rahbar sifatida mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilib kelmoqda.[4] "Xotin-qizlarga e'tibor hamma vaqt barcha sa'y-harakatlarimiz markazida bo'lishi, hammamizning vazifamizga aylanishi kerak", – dedi davlatimiz rahbari. Oilaga e'tibor, aslida, bu o'zligimizga e'tibordir. O'tgan yillar mobaynida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan. Biroq shu paytgacha xotin-qizlar manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha samarali mexanizm yaratilmagan.

**XULOSA.**Dunyo aholisining ko'pchilik qismini xotin-qizlar tashkil etishini hisobga olgan holda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi muhim omilga aylanib ulgurdi. Qashshoqlikning feminizatsiyalashuvi, ishsizlik, atrof-muhitning ayanchli oqibatlari muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlar ishtiroki kabi masalalarga har doimgidanda dolzarb ahamiyat qaratishi lozimligini ta'kidlamoqda. Shuningdek, xalqaro munosabatlarda yirik kuch markazlari manfaatlarining to'qnashuvi natijasida nizolarning ba'zan eskalatsiyalashuvi natijasida qochoqlar sonining ortishi, konflikt zonalarda xotin-qizlar va bolalarning turli ko'rinishdagi zo'ravonlik qurboni bo'lishiga olib kelmoqda. Bu kabi masalalar jahon siyosatida genderni oid jihatlarining ichki va tashqi siyosatda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi va



mamlakatlardan har qanday vaziyatda gender sezuvchan siyosat yuritishni ta'minlash kerakligini ta'kidlaydi.[5].Yana shuni ta'kidlash kerakki, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha butun dunyo miqyosida olib borilayotgan islohotlarga shuningdek, xalqaro huquqiy asoslarning yaratilib, amalga tadbiiq etilganligiga qaramasdan ayollar huquqlarining buzilishi ularning huquq va erkinliklarini hurmat qilmaslik holatlarining hali-hanuzgacha mavjudligi masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir. Chunonchi, birgina Hindiston misolida ko'radian bo'lsak,2016-yil holatiga ko'ra Hindistonda ayollarga qarshi 330998 jinoyat sodir etilgan bo'lib ulardan 38947 tasini jinsiy zo'rlash tashkil etadi. Bundan tashqari, sog'lom ayollar yashovchi mamlakat orasida Hindiston 132-o'rinni egallaydi. Shuningdek. ushbu davlatda milliy qonun chiqaruvchi organlarda faoliyat olib borayotgan ayollar juda kamchilikni ya'ni 12 foizni tashkil etadi.Yana bir misol sifatida Afg'onistonda ham xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini talab darajasida emasligi ,ularning bilim olish, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarining yetarlicha qo'llab quvvatlanmaganligi, siyosat va boshqaruvda ayollar rolining pastligini yaqqol misol qilib keltirish mumkin.Yuqoridagilarni hisobga olgan holda butun danyoda gender tenglikni barqarorlashtiradigaan yaxlit tizimni ishlab chiqish va keng jamoatchilikka tadbiiq etish , mavjud xalqaro huquqiy asoslarni amalda qo'llanilayotganini nazorat qilish va gender siyosati ko'lamini kengaytirish butun insoniyat oldida muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

### ADABIYOTLAR

- 1.GENDERTENGLIGI:AYOLLARNING HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH <https://cyberleninka.ru/article/n/gender-tengligi-ayollarning-huquq-va-imkoniyatlarini-kengaytirish/viewer>
- 2."Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"
3. Xalqarostandartlar <https://gendermadad.uz/oz/category/63>
- 4.XALQARO MUNOSABATLARDA GENDER TENGLIGI TAMOYILINING HUQUQIY ASOSLARI-тема научной статьи по истории и археологии читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы вэлектронной библиотеке Кибер Ленинка <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-munosabatlarda-gender-tengligi-tamoyilining-huquqiy-asoslari>



**Turg'anbayeva Indira Janabayevna**  
Gurlan tuman, 24-maktabning  
huquq va tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada huquqiy madaniyatning yuksalishi hamda tarbiyaning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** istiqlol, ma'naviy, madaniy, huquqiy madaniyat, tarbiya.

O'zbekistonda istiqlol sharofati-la ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalarida ildam odimlar qo'yilmoqda. Bu ayniqsa siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida namoyon bo'lmoqda. Salkam bir yarim asrlik siyosiy kishandbandlikdan ozod bo'lgan mamlakatimizning ovozi jahon bo'ylab baralla yangramoqda. Birinchidan, bu - siyosiy mustaqillik bo'lib, ichki va tashqi siyosatda hech kimning, sobiq "katta og'a"ning ham ko'rsatmalarisiz, milliy istiqlol va yangilanish yo'lidan buyuk kelajak sari borish demakdir. Ikkinchidan, bu - iqtisodiy mustaqillik bo'lib, yurtimizning bebaho boyligiga chinakam egalik huquqidan o'zbek xalqi farovonligi yo'lida foydalanish demakdir. Uchinchidan, bu - ma'naviy-madaniy mustaqillik bo'lib, xalqimizning istiqlolga, o'z davlati va huquqiga ega bo'lishga, adolatli jamiyat qurishdan iborat bo'lgan asriy orzu-umiddarining ro'yobga chiqishidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi siyosiy va iqtisodiy qaramlikka tushgan davrlarda ham, u hech qachon ma'naviyat sohasida o'z mafkuraviy-madaniy mustaqilligini yo'qotgan, emas. Har qanday tayziqlarga qaramasdan, ma'naviyatimiz kurtaklari doimo barq urib turgan. Ha, chuqur ildizlariga ega bo'lgan bunday milliy ma'naviyatimiz sarchashmalari, xalqimizning minglab asl farzandlari qurbon qilinishiga qaramay, saqlanib qolgan.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi tasvir ko'rsatilishidir. Shuni ta'kidlash kerakki, yaqin o'tmishda ham huquqiy tarbiyaga u haqiqatda sazovor bo'lishi kerak bo'lganidek darajada e'tibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning aqliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi haqida so'z borar ediyu, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmasdi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo'nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo'nalishining ajratib qo'yilmasligi o'sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Shubhasiz, huquqiy, siyosiy va ma'naviy ongning o'zaro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni ham nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan qo'shib yuborish mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o'ziga xos yo'nalishidagi huquqiy tarbiyaning mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog'liqdir. Huquqiy tarbiya ongning mustaqil shaklini - huquqiy ongni shakllantiradi, bu esa tarbiyaning o'ziga xos shakllari va usullarini izlab topish va qo'llanish zaruriyatini taqozo etadi. Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va tarbiyalanuvchilarda huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim. Ma'lumki, huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Agar ijtimoiy ong umuman ijtimoiy borliqning aksi bo'ladigan bo'lsa, unda huquqiy ong faqat mavjud huquqiy voqea-hodisalarni, shuningdek huquq yordamida tartibga solinishi mumkin bo'lgan hodisalarni aks ettiradi. Huquqiy ong - bu jamiyatda ommaviylashgan huquqiy, shuningdek kishilarning xulq-atvoriga, ijtimoiy muassasalar qadriyatlariga huquq haqidagi shunday tasavvurlar nuqtai nazaridan munosabatini ifodalaydigan nazariyalar, g'oyalar, qarashlar va tasavvurlar majmuidir. Huquqiy ongda quyidagi besh elementni ajratib ko'rsatish mumkin: huquqni bilish; huquq haqidagi





tasavvur; amaldagi huquqqa munosabat; huquqqa qo'yiladigan talablar; huquqiy ko'rsatmalarning ijro etilishiga munosabat. Ularning hammasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan va o'zaro aloqadorlikdadir. Shu bilan birga ular o'ziga xos shakllanish xususiyatiga ega va huquqiy ong "faoliyati"da turli rollarni o'ynaydigan har xil elementlar bo'lib, buni, albatta, huquqiy tarbiya jarayonida hisobga olish zarur. Huquqni bilish huquqiy me'yorlarni bilishni anglatadi. Bunday bilim, yoki tegishli huquqiy qoidalarni bevosita o'rganish - matnlarni o'qish, radio orqali tinglash va shu kabilar natijasida, yoki u bilan bevosita tanishish natijasida egallanadi. Masalan, uni kishilarning hikoyalaridan yoki muayyan hayotiy vaziyatlarda huquqiy qoidalarni amaliy o'zlashtirib olish natijasida egallash mumkin. Ushbu ikkita usul o'zaro bir-birini to'ldirib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E. G'apparov . "HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYA ASOSLARI" maruzalar matni 2023
2. Xojiev P.B., Norbueva D.O. (2021) Ёшлар ижтимоий ҳаётнинг когнитив асослари. "Academic Research in Educational Sciences" № 2(2), 544-555-б.
3. Sh.A. Sadullayev. Davlat va huquq nazariyasi . – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2022.
4. X.T. Odilqoriyev (tahriri ostida) – Davlat va huquq nazariyasi . – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari – Ma'ruza matni. Guliston, 2021.



Убайдуллаева Холида Манноповна

Базовый докторант 1 курса НГПИ

Телефон 906365603

holidaubaydullayeva066@gmail.com

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о материалах для анализа юридической лингвистики, юридического дискурса, субъекта в юридическом дискурсе, формирующегося на стыке дискурса, лингвистики и юриспруденции, роли и сущности юридического дискурса в антрополингвистике.

**Annotatsion.** This article talks about legal linguistics, legal discourse, subject in legal discourse, materials for analyzing the subject, place and essence of legal discourse in anthropolinguistics, which is formed at the intersection of discourse, linguistics and jurisprudence.

**Ключевые слова:** дискурс, юридический дискурс, языковая личность, текст, юридическая речь, проблема, антрополингвистика

**Key words:** discourse, legal discourse, linguistic entity, text, legal discourse, problem, anthropolinguistics

## ВВЕДЕНИЕ

На сегодняшний день подъем правосознания, осмысление гражданами законов и решений поставил перед лингвистами и юристами важные задачи, которые необходимо изучить. Изучение лингвистики на новом этапе смогло стать решением многих проблем. Язык и речь стали различаться, и в нашу лингвистику вошло понятие «дискурс». Этот термин был впервые использован в 1952 году в статье З.Харриса «анализ дискурса». Понятие «дискурс» трактовалось разными лингвистами по-разному и до сих пор не имеет однозначного правила.

## АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ

Звегинцев рассматривал дискурс как «языковую территорию, скрытую за облаками» [Звегинцев 1976:170], в то время как Арутюнова считала, что «дискурс-это совместный текст с неязыковыми факторами (прагматическими, социокультурными, духовными); текст, рассматриваемый с точки зрения развития события; дискурс, рассматриваемый как социальное целенаправленное действие» [Арутюнова 1990:с. 136-137]

Изучение и использование этого термина приобрело широкий размах за последние 20 лет. В узбекской лингвистике рассуждения, связанные с «дискурсом», чаще встречаются в работах Ш.Сафарова. Ученый отмечает, что «сочетание коммуникативного и информативного содержания обеспечивает целостность макрообъединения системы коммуникации. В настоящее время признается, что только дискурс обладает такой характеристикой целостности».

Однако, Кубрякова делает вывод о том, что «при современном развитии лингвистической науки не существует общепринятого определения дискурса» [Кубрякова 2000:6].

Несмотря на это, в нашей лингвистике было сделано много научных работ по дискурсу. Было выделено несколько типов дискурса: художественный дискурс, политический дискурс, риторический дискурс, медиа дискурс, газетный дискурс, юридический дискурс и т. д.

На пересечении языка и юриспруденции возникло несколько областей, и это была та же необходимость. Потому что изучение, наблюдение и поиск решений юридических текстов породили юридическую лингвистику. Начался семантико-стилистический анализ юридических текстов.

## РЕЗУЛЬТАТЫ И РАССУЖДЕНИЯ

Внедрение новых ценностных рекомендаций в социальную среду привело к коренной индивидуализации общества, резкой дифференциации общества, установлению и развитию понятия личности. Язык стал основным средством общения, средством выражения отношения к действительности нового общества, в дискурсе сформировалась среда функционирующих отношений. Как известно, закон эффективно использует язык и речь для осуществления своих функций. Вдобавок к слову внимание юристов привлекли семантические отношения в тексте. Юриспруденция и лингвистика одновременно начали интересоваться преимуществом речи, масштабом значений, тем, что написано в законах, и его пониманием.

Изучаются факты языка и речи, учитывается «правовое поле» и уровень метаинформации. Текст воспринимается как оригинал. Таким образом, правовые акты реализуются в частном порядке или через «язык закона», кроме того прослеживается то, какие общие интересы



являются частью юридического дискурса.

Возникновение инноваций в языке потребовало изучения юридической речи. Анализ юридической речи, с другой стороны, привел к появлению юридического дискурса в поле антропологической лингвистики. Изучение юридического дискурса способствует развитию таких направлений, как «юрислингвистика», «лингвокриминалистика». *Существует несколько типов юридического дискурса*, в том числе:

1. Институциональный
2. Личный
3. Судебный
4. Относительно закона и другие.

**В юридическом дискурсе решаются следующие задачи:**

- характеристика понятия «юридическая речь» и определение его параметров;
- указание юридических средств осуществляется в юридическом тексте;
- выявление языковых и экстралингвистических факторов, влияющих на интерпретацию «юридической речи»;

➤ характеристика металингвистической сущности тезауруса;

- семантическое, прагматическое, лингвокультурологическое изучение юридической речи.

Текст юридических документов является основным объектом изучения юридического дискурса. Информация не является функцией влияния, она раскрывает социально прагматическую позицию автора текста. Изменение политической, правовой структуры государства приводит и к изменению позиции субъекта. Вынесенные решения изучаются как персонифицированный жанр. Языковые средства и их интерпретация очень важны при изложении юридического дискурса. При определении места личности в данном дискурсе важное значение приобретает теоретическое, семиотическое, лингвокультурологическое, социопрагматическое изучение таких материалов, как исковые заявления, жалобы, пояснительные записки (потерпевшего и преступника), акт, протокол, ответные письма.

По мнению О.А. Нестеровой, основными *аспектами исследования текста в рамках лингвокриминалистики* являются следующие:

1. Анализ текста как носителя информации о явлениях и ситуациях.
2. Анализ текста как носителя оценочных признаков личности или группы лиц или их действий. В эту категорию входит анализ текстов, являющихся вещественными доказательствами по экстремистским делам, а также по делам, связанным с клеветой и оскорблениями.
3. Анализ текста как речевого акта. Этот аспект работы состоит из вопросов, связанных с определением ролей и функций собеседников, признаков угрозы, стимулов и призывов к действию. [Нестерова, 2019, 261- 264]

Исходя из развития социальных наук, термин «субъект в юридическом дискурсе» является темой, которая требует собственного изучения и обсуждения.

### ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В качестве заключения можно сказать, что в английской, русской, турецкой лингвистике изучается и признается роль личности в юридических текстах, это понятие еще не изучено в узбекском языке как предмет исследования, в дискурсе путем анализа текстов дается общее определение понятию «личность», в юридическом дискурсе статус языковой личности изучается как часть сферы антропологической лингвистики.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдуназарова Н. «Различные подходы к интерпретации» дискурса. Academic research in educational sciences. 2021, №4
2. Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия, -М., 1990.-С. 136-137.
3. Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении // Юрислингвистика. - 1999. - №1. - С. 12-59.
4. Грачев М.А. Судебно-лингвистическая экспертиза. - М.: ФЛИНТА, 2016. - 360 с.
5. Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике. В кн.: Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты Сб. обзоров - М.: РАНИНИОН, 2000,- С. 7-25.
6. Нестерова О.А. Судебная лингвистическая экспертиза и ее возможности // Международные и национальные тенденции и перспективы развития судебной экспертизы. - 2019. - С. 261-264.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: 2008



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

INTERNETNING YOSHLAR MA'NAVIY-MAFKURAVIY QIYOFASIGA TA'SIRI  
MUAMMOSI

**Nurmatova Umida Jalolidinovna,**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti,  
telefon: +998500795055.

**Norjigitova Sevinch Aliddin qizi,**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi I bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, internet orqali hayotimizga kirib kelgan o'zgarishlar, muammolarning bartaraf etilish sabablari, uning dunyo miqyosida tutgan o'rni va uning yoshlarga ta'siri haqida so'z boradi.

**Kalitso'zlar:** internet, muammolar, foyda, xakkerlar va ijtimoiy tarmoq.

Bugun dunyoni to'r singari o'rab olgan Internet tizimi orqali istagan odam har qanday ma'lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin. Yangi axborot makonida ma'lumotlar juda katta hajmda joylashtiriladi va yashin tezligida tarqatiladi. Albatta, uning kishilar dunyoqarashi, bilimi va saviyasining kengayishidagi saviyasini inkor etmaymiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasida bergan intervyusida yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi dolzarb masalalarni imkon qadar kuzatib borishini aytgan: "Albatta, bugungi kunda odamlarni qanday masala va muammolar o'ylantirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishda yordam beradigan ochiq manbalar, axborot tarmoqlari ko'p. Ayniqsa, televideniye, matbuot, internet hayot nafasini, ta'bir joiz bo'lsa, har bir sohaning "yurak urishi"ni aniq-ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan o'zim ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan yangiliklar, ular orqali bildirilayotgan dolzarb fikrlar, jamoatchilikning diqqat-e'tiborini tortayotgan voqea-hodisalar bilan imkon qadar bevosita tanishib borishga harakat qilaman"[1] – degan fikrlaridan ham bugungi kunda internertning muhim axborot manbayi ekanligini ko'rsatadi.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Bugungi kunda hamma internet haqidagi bir qancha tushunchalarga ega. Xo'sh, nega internet butun olamni qamrab olgan? Axir, avvalgi zamona odamlari internetsiz, turli xil texnika vositalarisiz ham hayot kechirishgan-ku. Nega, endilikda odamlar hayotini internetsiz tasavvur qilolmaydi?

Avvalombor, internet tushunchasiga ta'rif berib o'tish lozim. Internet bu umumjahon kompyuter tarmog'i bo'lib, har qanday ma'lumotni almashtira oladigan vositalar majmuyi hisoblanadi. Bilamizki, internet orqali hayotimizda uchraydigan, har bir qadamimizda duch keladigan faoliyaimizni oson, tez va qulay usulda amalga oshira olamiz. Misol uchun, kerakli bo'lgan ma'lumotlarni tez fursatda topishimiz, bir nuqtada turib ham, o'zimiz xohlagan tasvirlarni va axborotlarni olishimiz mumkin, hattoki, vaqt sarflab qadam bosganimizda ham bunchalik aniq va to'liq ma'lumot olishimiz, amrimahol. Shuningdek, internet orqali do'stlashish ham, savdo aloqalarini ham, turli xil to'lov jarayonlarini ham olib borish mumkin. Bundan bir necha yillar ilgari oddiy to'lov qilish uchun soatlab, turna qator bo'lib navbatda turishgan. Hozir esa bunday masalalar ham internet bilan uzviy bog'lanib, muammolarni bartaraf etmoqda.

Har narsaning ijobiy va salbiy taraflari bo'lganidek, internet vositalarining afzalliklarini sanab o'tsak. Aytilganidek, internet – foyda koni, internetdan oqilona foydalanayotganlarni bugungi kunimiz bilimdonlari, desak mubolag'a bo'lmaydi. Internetning jadal kirib kelishi ko'plab kishilarni ish bilan ta'minladi. Jumladan, onlayn savdo do'konlari, onlayn o'quv kurslari va bir qator ijtimoiy tarmoqlarda turli mazmundagi qisqa metrajli videolar joylashuvidan kishilarning olayotgan foydalari, garchi ular uyda o'tirib ham o'zlarida bor imkoniyatdan unumli foydalanishmoqda. Bundan tashqari, bilim olish har bir musulmon uchun farz, deganlaridek, o'qish istagida bo'lganlar berilayotgan





imkoniyatdan samarali, kerakli va, albatta, foydali bo'lgan ma'lumotlarni o'rganishmoqda. Ta'kidlash joizki, butun dunyoni qamrab olgan ko'rinmas xavf COVID-19 bizning ona zaminimizni ham chetlab o'tmadi. Shunday qiyin vaziyatda ostona hatlab chiqish mumkin bo'lmagan bo'lsa-da, odamlar bo'sh o'tirmaslik uchun internetdan turli xil foydali mashg'ulotlarni o'rganib olishdi.

Tanganing ham ikki tomoni bo'lganidek, internetning ham kamchiligi yo'q emas. Birinchidan, jamiyatda kishilar ongini zaharlovchi, ularda turli xil muammolarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy guruhlar ham internet orqali paydo bo'ladi. Ular o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmagan, erki o'z qo'lida bo'lmagan kishilarni har tomonlama avrab olishga harakat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan namoyon bo'ladigan ba'zi saviyasiz videolar-u turfa xil o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan kishilar bora-bora unga tobelanib qolganini payqamay qolishadi, afsuski. Xullas, bir marta internetga kirgan kishi undan qaytishi qiyin bo'ladi, go'yoki u uchun internetsiz hayot qorong'u. Internet vaqtni zoye ketkazishga majbur qiladi va shuning uchun ham u "o'rgimchak to'ri" sifatida e'tirof etiladi.

Internet haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik:

- Global to'ra eng ko'p foydalaniladigan til – ingliz tili. Barcha veb-saytlarning 50 foizi ma'lumotlarni ingliz tilida taqdim etadi. Ingliz tilidan keying o'rinda rus tili turadi.

- Yer yuzining eng yuqori nuqtasi – Everest cho'qqisida yuqori tezlikka ega internet mavjud.

- Texnik qurilmalar o'rtasida o'zaro yozishmalar uchun mo'ljallangan dastlabki aloqa 1960-yilda kashf etilgan.

- You Tube tarmog'iga yuklangan barcha video roliklarni umr davomida ko'rib chiqishning iloji yo'q.

- Yer yuzidagi insonlar orasidan "Internet kalitini" saqlash uchun 7 kishi tanlab olingan. "Internet kaliti" – bu internetni qayta ishga tushirish uchun mo'ljallangan, maxsus shifr kiritilgan elektron kartalar.

- Internet to'ra rining 5 million terabaytining real massa og'irligi, qum zarrasidan ham yengil hajmni tashkil etadi.

- Xakkerlar tomonidan, har kuni 85 000 saytga hujum uyushtiriladi.

- Ilk elektronxat 1971-yilda amerikalik dasturchi Rey Tomlinson tomonidan yuborilgan.

- Dunyodagi eng birinchi veb-sayt hozirgi kunda ham faoliyatini davom ettirmoqda. Tekshirib kurishingiz mumkin: WWW (World Wide Web).

- Yer yuzida har kuni 247 milliarddan ortiq electron xatlar yuboriladi. Biroq ularning 90 foizini SPAM va virusli xatlar tashkiletadi.

- Dunyodagi birinchi onlayn veb-sayt <http://info.cern.ch> 1991-yil 6-avgustda yaratilgan. U 153 so'zdan iborat bitta veb-sahifadan iborat bo'lgan.

- Internetga ulangan qurilmalar soni sayyoradagi odamlar sonidan ko'proq.

- Har soatda taxminan 4200 ta yangi domen nomlari indekslanadi.

- Internet birinchi 50 million foydalanuvchisini 5 yilda to'plagan. Televideniye ga esa buning uchun 13 yil kerak bo'lgan edi.

- Internetda har daqiqada 70 ta yangi blog paydo bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, internet butun olamni qurshab olgan, barchaning asosiy faoliyatida yetakchi o'rinlarni egallagan, hayotning tez va jadal rivojlanishida poydevor bo'ladigan ko'rinmas kuchdir. Internet tarmoqlari orqali dunyoni bilishlari hamda intellektual salohiyatlarining oshishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi"-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. –T.: Movarounnahr, 2016.
3. Ochildiyev A. Globallashuv va ma'naviy-g'oyaviy tahdidlar. –T.:2008.
4. <https://www.xabar.uzsaytidan>.



MEDIA AXBOROTNING EVOLYUTSION TARIXI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI  
AHAMIYATI

**Nurmatova Umida Jalolidinovna,**  
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini  
dotsenti, telefon: +998500795055.  
**Ibrohimova Muxabbat Anvarjon qizi,**  
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi  
I bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada ommaviy axborot vositalarining taraqqiyoti, bugungi kundagi ahamiyati, insoniyatga keltirayotgan foydalari va shu bilan birga zararli oqibatlarini, media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchalari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy axborot vositalari, media, informatsion inqilob, kibernetika, xavf, globallashtirish, axborot urushi.

XXI asr axborot texnologiyalari davri jamiyat a‘zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo‘lishlariga erishishning muhim ta‘sirchan omili sifatida tobora dolzarblashishiga olib kelmoqda. “Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi – Yangi O‘zbekistonning sifat ko‘rsatkiclaridan biriga aylandi”[1:121]. Shu boisdan, bugungi kunda media axborot haqida so‘z yuritilgan ekanmiz, avvalo “media” tushunchasining ma‘nosini anglab olishimiz kerak. “Media atamasi (lotincha - medium, ya‘ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi”[2:9]. Shu bilan birga, boshqa manbalarda ham media istilohiga shu tarzda tavsiflar berilganini ko‘ramiz. “Media - ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir”. Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o‘zagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi[2:9]. Bugungi kunga kelib, media axborot va ommaviy axborot vositalari insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanishga ulgurdi va insonlar uchun bularsiz hayotini tasavvur qilish birmuncha murakkabdir. Ba‘zi manbalarda media tushunchasi va ommaviy axborot vositasi tushunchasi sinonim tarzda qo‘llanadi.

Media axborot bugungi kunga kelgunga qadar bir qancha taraqqiyot bosqichlarini ortda qoldirdi. Ma‘lumki, axborotning taraqqiyot yo‘lida 4 ta “Informatsion inqilob” sodir bo‘lgan ya‘ni bu davr yozuvning paydo bo‘lishidan to mikroprotessorli texnikalar va personal kompyuterlarning paydo bo‘lgunga qadar davrni o‘z ichiga oladi. To‘rtinchi informatsion inqilob axborotlashgan jamiyatning paydo bo‘lishiga ulkan hissa qo‘shdi. Bu davr ichida ommaviy axborot sohasida, media maydonda tub burilishlar sodir bo‘ldi, insoniyat uchun yanada ko‘proq qulayliklar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari unchalik taraqqiy etmagan davrlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odamlar birmuncha qiyinchiliklarga, chalkashliklarga duch kelganligini guvohi bo‘lamiz. Ammo, bugungi kunga kelib esa bu kabi muammolar anchagina bartaraf etildi. Ayni damda barcha soha vakillari axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridan birdek, samarali foydalanayotganligini ko‘rishimiz ijobiy natijadir. Afsuski, bu yutuqning ham bir qancha kamchiliklari ham mavjud.

Axborot sohasidagi globallashtirish jahonda yetakchilik qilish uchun kurashda han namoyon bo‘lyapti. Chunki axborot texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi davlatning geosiyosiy ta‘sirini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi voqelik bu hodisani “axborot neokonializmi”, “axborot urushlari”, “informatsion fashizm”, deb nomlayotgan olimlarning gapida jon bor ekanini ko‘rsatadi. Ya‘ni, globallashtirish dunyoni birlashtira turib, ayni paytda, uni yemiryapti, degan xavotirlar jiddiy asosga ega. Bularning barchasi insonlarda media va axborot savodxonligining sustligi, ularning nihoyatda ishonuvchanligi va e‘tiborsizligi evaziga sodir bo‘lyapti. Bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida hukumatimiz tomonidan “media savodxonlik va axborot madaniyati” fanining o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan va yaqin yillardan beri yoshlarga fan sifatida malakali mutaxassislar



tomonidan o'qitilib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda globallashtirish jarayoni axborot maydonida ham yaqqol namoyon bo'lyapti. Masalan, internet tizimi orqali axborotlarni o'g'irlash, ishonarli bo'lmagan va milliy mafkuramizga to'g'ri kelmaydigan axborotlarni tarqatish, g'oyaviy ta'sir o'tkazish harakatlari kengayib bormoqda, ya'ni axborotlashtirish jarayonlaridan to'g'ri maqsadlarda foydalanadiganlar bilan bir qatorda undan g'arazli niyatlarda foydalanadigan insonlar ham yo'q emas.

Mulohazalarimizdan xulosa qiladigan bo'lsak, media axborotning evolyutsion tarixida globallashtirish ta'sir doirasida salbiy ta'sirlar bilan birga, jamiyat taraqqiyotida axborot katta oqimlarining vujudga kelishi natijasida bilimlarning turli sohalari bo'yicha davriy nashrlarning ko'payib borishi kabi ijobiy ahamiyati ham ortib borgan. Bunga XX asr boshlarida ilmiy xodim uchun fizika sohasida chop etiladigan 10 tagacha oylik jurnal bilan tanishib borish yetarli hisoblangan bo'lsa, asr oxiriga kelib, bu ro'satkich 100 ga yetdi. Shunindek, ilmiy va amaliy faoliyat natijalari e'lon qilinadigan kitob, xujjatlar, hisobotlar, dissertatsiyalar va boshqalar miqdorining katta tezlik bilan ko'payib borishida katta ahamiyat kasb etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O'zbekiston”. 2021. –B. 121.
2. Mamatova Ya, Sulaymanova S. O'zbekiston media ta'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. “Extremum-press” T.: 2015. –B. 9.



IJTIMOIY ONG VA INSON ERKINLIK LARI RIVOJLANISHINING MA'NAVIYATGA TA'SIRI.

Raxmonova Gulzoda G'aniyevna  
QarDU tayanch doktoranti  
+998914714348  
gulzodaraxmonova01@gmail.com

**Annotatsiya.** Erkinlik inson hayotida katta rol o'ynaydigan tushunchalardan biri bo'lib, har bir inson hayotiga turlicha ta'sir o'tkazadi. Mazkur maqolada jamiyatni erkinlashtirish xususan insonni erkinlashtirish ma'naviyatga qay darajada ta'sir ko'rsatishi tahlil etilgan. Ijtimoiy ong shakllarini inson erkinliklariga ta'siri o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Ma'naviyat, erkin fuqaro, ijtimoiy ong, erkinlashtirish,

“Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir”,<sup>1</sup> deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov 1999 yili 14- apreldagi ma'ruzasida. Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishga bunday e'tibor, birinchi navbatda, har bir insonning haqiqiy erkinligini ta'minlashga qaratilgan. Chunki o'zligini anglamagan odam, unga qancha imkon va sharoit yaratib bermang, hur va ozod bo'la olmaydi. Ammo o'zligini anglash degani, o'zining Vatanga, millatga, bashariyatga, Borliq haqiqatiga nisbatini to'g'ri belgilay bilish degani, bunga erishish osonlik bilan bo'lmaydi.

Bu borada I.Karimov “O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalari erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi”,<sup>2</sup> - deb ta'kidlaganlar.

Jamiyatni erkinlashtirish jarayonini jamiyat va har bir inson hayotiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, ushbu jarayon, har bir inson va butun jamiyat hayotida ziddiyatli tarzda namoyon bo'ladi. Gap shundaki, erkinlik inson hayotiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Erkin kishilar o'z-o'zini tashkillashtirish imkoniga ham ega bo'lishi mumkin. Erkinlik kishida jamoaviylik, ko'pchilik bilan hisoblashish kabi hislarni kamayib borishiga ham olib kelishi mumkin. Bu esa o'z nacbati inson ma'naviy olamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Erkinlikdan hamma ham o'z o'rnida, ijobiy foydalana olmasligi mumkin. Erkinlik, ham jamiyat, ham inson hayotida tartibotdan, tartibsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Erkinlikni jamiyat a'zolari tomonidan turlicha qabul qilinishini tahlil qilar ekan, Karl Popper “Erkinlikning miqyosini oshishi, kuchli insonni kuchsiz inson ustidan zo'ravonlik o'rnatishiga olib keladi”, deb ta'kidlaydi.

Insoniyat jamiyati, inson tomonidan yaratilgan, shu sababdan ham undagi munosabatlar va tartibotni birinchi navbatda insonning o'zi o'rnatadi. Inson yaratgan jamiyat va undagi inson tomonidan yaratilgan turli me'yorlar, insonning ichki dunyosi va ma'naviy borlig'iga qanday ta'sir o'tkazishi ham ko'p jihatdan insonning o'ziga bog'liq. Quldorlik tuzumida yashab ham inson ruhan, ma'nau ozod bo'lishi yoki erkin demokratik jamiyatda yashab ham inson o'z erkinligini his qila olmasligi, undan to'g'ri foydalana olmasligi mumkin.

Bugungi kunda dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va siyosiy manzarasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu sohalarning barchasida beqarorlik, kaos kuchayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Fikrimizcha yuqorida sanab o'tilgan sohalarda kuzatilayotgan tartibsizlik va beqarorlik holatlarining barchasining asosida inson erkinligi, insonning erkin tanlovi turibdi. “Insoniyatning nimaga qodirligi, uning kelajak taqdirini oldindan aniqlab, basjorat qilib bo'lmaydi, chunki oxir oqibat barchasi uning erkin tanloviga bog'liq bo'lib qoladi”.<sup>4</sup> Inson har doim tanlash erkinligiga egaligidan uning ma'naviy, axloqiy kamoloti yuzaga chiqadi.

“Jamiyatni erkinlashtirish jarayoni bu birinchi navbatda inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni

1 I.Karimov. “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”. Toshkent. O'zbekiston. Asarlar. 7-jild. 381-bet

2 I.Karimov. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. Toshkent. “O'zbekiston”. 2010 yil.

3 Karl Popper. Открытое общество и его враги. М. 1992. С-84.

4 Киселов Г.С. Свобода и эволюция.// Вопросы философии. 2005. №10 с-14





takomillashtirishga intilishdir”<sup>1</sup>, deb ta’kidlagan edi siyosatshunos olim I. Ramazanov. Chunki erkinlashtirish jarayonida jamiyatda inson va davlat o’rtasidagi munosabatlar muvofiqlashtirib boriladi. Erkin jamiyat insoniyatning orzusidagi jamiyatdir. Jamiyatni erkinlashtirish jarayoni natijasida inson va jamiyat o’rtasida uzilmas munosabat paydo bo’ladi. Chunki erkinlik inson ma’naviy borlig’ining mohiyatli, ajralmas qismidir. Erkinlik insonning tafakkuriga, ruhiyatiga, irodasiga, axloqiga, butun bir ma’naviy olamiga xosdir. Erkin bo’lgan inson erkin bo’lmagan jamiyatda yashar ekan, uning jamiyat bilan bo’ladigan munosabatlarida ziddiyatlar kelib chiqadi. Chunki, jamiyat inson mohiyatini inkor etsa, inson ham unday jamiyatni inkor etadi. U jamiyatda inson baxtu-saodatga erisha olmaydi.<sup>2</sup> Shu sababdan ham davlatimiz intilayotgan fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni bevosita jamiyatni erkinlashtirish jarayoni bilan birgalikda olib borilmoqda.

Ma’lumki, inson - ongli mavjudot. Unda anglanib olingan ehtiyoj bor, yaratuvchanlik bor. Ehtiyojlarni qondirish, yaratuvchilik bilan shug’ullanish uchun unga bilim, amaliy tajriba kerak. Shu sababdan unda dunyo sirlarini ochishga qiziqish, intilish bor. U jamiyatda o’z o’rnini faqat tarbiyalanuvchi passiv shaxs sifatida topolmaydi. U doimo izlanishda, ya’ni amaliy-aqliy va zarur hollarda ilmiy izlanishda bo’lishi, amaliy faoliyat bilan shug’ullanishi kerak. Tabiat ne’matlaridan qanday bo’lsa shundayligicha emas, ularni o’ziga kerakli tarzda qayta ishlab, yangidan yaratib foydalanadi. Inson shu hislati bilan hayvondan farqlanadi.

Insonning yaratuvchanlik hislati ma’lum bir bilimga tayanadi. U butun umri davomida bilimni hayot amaliyotidan va ta’limdan oladi. Bilimi va tajribasi o’sgani sayin insonning muloqot va faoliyat doirasi kengayib boradi. Bu esa o’z navbatida insonning erkinlik darajasini yuksaltiradi, faoliyat doirasini kengaytiradi, yaratuvchilik salohiyatini kuchaytiradi. Bilim va tajriba birinchi navbatda insonning tabiatga va qisman maishiy, kasbiy jihatdan submuhitga bevosita qaramligini kamaytiradi, jamoadagi mavqeini ko’taradi. Bundan tashqari, jamiyat rivojlanishi jarayonida u insonga yangi imkoniyatlar yaratdi, jumladan, uning erkinlik darajasini oshirib boradi. Bilim va tajribasi yuqori kishi jamiyat bergan imkoniyatlardan to’laroq foydalana oladi, bilimi, saviyasi past kishi hatto o’z haq-huquqlaridan ham foydalana olmaydi. *Ushbu holatni alohida shaxsga nisbatan emas, butun jamiyatga nisbatan qo’llasak, muammo ijtimoiy ong va demokratik erkinliklar, inson huquqlari rivojlanishining ma’naviyat yuksalishiga ta’siri sifatida namoyon bo’ladi.*

Ijtimoiy ong rivojlanishi, bir tomondan, jamiyatning moddiy –iqtisodiy rivojlanishi bilan, ikkinchi tomondan, ta’lim-tarbiya tizimi rivojlanishi bilan bog’liq. Ta’lim va tarbiya bir birini to’ldiruvchi tushunchalardir. Shu o’rinda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmasligi, Abdulla Avloniyning tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidur degan chuqur ma’noga ega bo’lgan hikmatli so’zlari yana bir bor eslash lozim.<sup>3</sup>

Inson o’z tabiatiga ko’ra go’zallikni sevuvchi mavjudotdir. Shu boisdan adabiyot va san’at unga estetik zavq beradi. Uni yaratuvchilikka undaydi. Shu boisdan davlatimizda kino, teatr, musiqa, xoreografiya, sirk, tasviriy va amaliy san’at, Estrada san’atini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Bu ishlar xalqning badiiy- g’oyaviy tafakkurini o’stirishga hamda axloqiy – badiiy saviyasini ko’tarishga ko’maklashadi. Inson ongi va tafakkuriga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi biror omil e’tibordan chetda qolmayotir. Moddiy-moliyaviy, kadrlar tayyorlash va boshqa zarur yordamlar ko’rsatilmoqda. Chunki oxir-oqibat inson ongi, tafakkurini rivojlantirilmasa, odamlar na moddiy merosdan, na zamonaviy madaniyat yutuqlaridan yetarlicha bahramand bo’lolmaydi, tushunishga qiynaladi. Masalan, eski o’zbek tilini bilmagan kishi Alisher Navoiy asarlarini yaxshi tushunmaydi. Shu sababdan, bir tomondan Navoiy asarlari zamonaviy o’zbek tiliga nasrda yoki nazmda adaptatsiya qilinsa, ikkinchi tomondan Navoiy asarlari lug’ati tuzilib, eski o’zbek tiliga oid boshqa ma’lumotlar ham chop etilmoqda. Bu Navoiy va boshqa mumtoz adiblarimiz asarlarini mustaqil o’qib-o’rganish uchun imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

Jamiyatdagi ma’naviy muhitning yaxshilanishi insonning ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyatining o’sishiga zamin tayyorlaydi. Jamiyatda, odamlarda o’zaro ishonch, o’zaro yordam, mehr-oqibat kuchayishiga olib keladi. Va o’z navbatida jamiyatning insonga qo’yadigan ma’naviy – madaniy talablari ham xilma-xillashadi, ortadi. Inson huquqlarining (siyosiy, iqtisodiy va h.k.) ta’minlanishi uning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyati o’sishini kafolatlaydi. Demokratik erkinliklar yuksaladi.

1 Ramazonov I. Mo’minov E. “Politologiya”. Toshkent. “Adolat” 1997 yil, 11b

2 To’rayev B., Ergasheva M va boshqalar. “Sinergetika” Toshkent. “Navro’z”/ 2017 yil. 233b.

3 I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent. Ma’naviyat. 2008 yil. 62bet  
Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq” 1995 y. 65 bet



Jamiyat hayotining barcha jabhalarida insonning erkin faoliyat olib borishi jamiyat siyosiy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy (umuman olganda ijtimoiy ong shakllariga muvofiq) hayotining, barqarorlashuviga olib keladi. Demakki, bularning ta'sirida jamiyat ma'naviy hayoti izchil ravishda rang-baranglashib, go'zallashib, boyib boradi. Ma'naviyat tizimida ijtimoiy ong shakllarining jamiyat hayotidagi o'rining ortib borishi hamda ularning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida inson faoliyatining rang-baranglashuvi yuz beradi. Inson erkinliklari ortib boradi. Bu esa ma'naviyatning tizim sifatida yanada barqarorlashishini hamda rivojlanishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.Karimov. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". Toshkent. O'zbekiston. Asarlar. 7-jild.
2. I.Karimov. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". Toshkent. "O'zbekiston". 2010 yil.
3. Karl Popper. Открытое общество и его враги. М. 1992 yil.
4. Киселов Г.С. Свобода и эволюция.// Вопросы философии. 2005 yil.
5. Ramazonov I. Mo'minov E. "Politologiya". Toshkent. "Adolat" 1997 yil
6. To'rayev B., Ergasheva M va boshqalar. "Sinergetika" Toshkent."Navro'z"/ 2017 yil.
7. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat. 2008 yil.
8. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq" 1995 yil.



JAMIYATNING AXBOROT SAVODXOLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT  
ISTE'MOLI MADANIYATINI O'RNATISH

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

TATU Urganch filiali

“O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar”

kafedrası dotsenti

tursunovashahnoza534@gmail.com

**Rezyume:** Ushbu maqolada jamoatchilikning axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, internetdan foydalanish, internet xavfsizligi, internetning inson ruhiyatiga, tafakkuriga ta'siri masalasi har qachongidanda dolzarb muammoga aylanib borayotganligi tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** axboriy xavfsizlik, internet, axborot-psixologik xavfsizlik, axborot tahdidi, axborot xavfsizligi, norasmiy axborot, axborot texnologiyalari, axborot xuruji.

ESTABLISHING INFORMATION CONSUMER CULTURE IN PROVIDING INFORMATION LITERACY OF SOCIETY

**Summary:** In this article, the formation of public information consumption culture, Internet use, Internet security, and the impact of the Internet on human psyche and thinking are becoming more urgent problems than ever before.

**Key words:** information security, Internet, information-psychological security, information threat, information security, informal information, information technologies, information attack.

Ma'naviy hayotning muhim jihati ma'naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni bo'lib, u ma'naviy iste'mol deb ataladi. Bu jarayon doimo ijodiy jarayon bilan bog'liq. Ma'naviy iste'mol doimo ijodiy jarayon bo'lib, u «faqat» tafakkurdan iborat bo'lsa ham, u baribir birgalikda ijod qilishning faol jarayonidir. Shunday qilib, madaniyat qadriyatlarini iste'mol qilish jarayonida inson ma'naviy jihatdan boyib boradi, shaxs sifatida kamol topadi, o'zini shakllantiradi. Dunyoni go'zallik qonunlari asosida o'zlashtirishga intilish, tabiatda, odamlarda uyg'unlikni ko'rish, musiqa, rasm, she'riyatni chuqur his qilish, insoniy munosabatlarni yaxshilash – bularning barchasi yagona estetik ehtiyojning chekkalaridir. Insonning yana bir ruhiy ehtiyoji muloqotdir.

XX asrning ikkinchi yarmi tezroq, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globalashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihati, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o'sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi - XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo'la oladi.

Ayni kunda insoniyatning muhim omili sifatida axborot tahdidi shunday bir universal xarakterga egaki, uning barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qilish imkoniyati bor: shaxs dunyoqarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga va oxir oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham. Chunki axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi uncha ham ko'zga tashlanmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zi esa mustahkam irodali bo'lishi zarur. Har bir mamlakat aholisining asosiy qismi esa bunday imkoniyatga ega emas. Shuning uchun axboriy-psixologik barqarorlikka birinchi o'rinda axborot tarqatuvchilar ega bo'lishi shart: davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va boshqalari.

Axborot tahdidlarning eng xavfli – davlat siyosatini ta'minlashga harakat berayotganlaridir. Chunki agar shaxsga salbiy ta'sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo'yadi. Bu juda katta va jiddiy muammodir, shuning uchun biz uni mazkur fanni o'zlashtirish jarayonida turli nuqtayi nazardan o'rganmoqdamiz.

Axborot tahdidlarga qarshi kurashning yaxshi yo'llaridan biri – mamlakat o'zini o'zi axborot bilan ta'minlashi. Albatta, bunday axborot to'liq, sifatli va haqqoniy bo'lishi shart, aks holda jamiyat a'zolari yanada xorijiy manbalarga murojaat etadilar va bunga hech kim to'siqlik qilolmaydi. Aslida



ichki xududni axborot bilan yetarli darajada ta'minlash uncha ham qiyin emas, chunki bugungi kunda axborot texnologiyalari juda keng ishlatilmoqda va axborot tarqatadigan subyektlar mamlakatning hamda dunyoning turli burchaklaridan xohlagan ma'lumotlarni olib mamlakat ichida tarqatishi mumkin. Faqat ushbu ishda loqaydlik va o'zibo'larchilikka yo'l qo'yimaslik zarur. Chunki inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqea bo'yicha uch-to'rt soat ichida ma'lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo'lgan axborot bo'shlig'ini har xil uydirma va mish-mishlar to'ldiradi.

Birinchi Iroq urushi paytida Iroqning o'sha davrdagi Prezidenti Saddam Xusaynning kuchli armiyasi bor edi. Ammo mazkur armiya bir necha kun ichida AQSH xarbiylari tomonidan tor-mor qilindi. Buning sababi nimada? Birinchi o'rinda AQSH xarbiylari Iroq armiyasining harbiy kommunikatsiyalarini, jumladan, komp'yuterlarini ishdan chiqardilar. Bundan keyin texnika va askarlarni yengish qiyin bo'lmadi.

Mazkur misoldan har bir mamlakat o'z axborot tizimlarini xavfsizligini ta'minlashi naqadar muhim ekanligini anglab olish qiyin emas. Axborot asrining muhim ko'rsatkichlaridan biri – davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlari uchun tezkor axborot almashinuvi birinchi hayotiy zaruratga aylanishi. Bu ishni qila olganlar zamona bilan hamnafas yashaydi, eplolmaganlar esa orqada qolib ketaveradi va bunday qoloqlik kundan kunga oshadi. Demak, rivojlanishni xohlagan davlat birinchi o'rinda o'z kommunikatsiya tizimlari faoliyatini, butunligini, ularni xavfsizligini ta'minlashi zarur.

Inson uchun axborot – eng ta'sirchan vositadir, chunki uning ongi bor. Mantiqiy isbot, qolaversa, axborot yetkazishning eng oddiy usullari shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'yolmaydi. Shuning uchun targ'iboti haddan kuchli mamlakatning aholisi fanatiklarga o'xshaydi. Insonning tabiati shunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yasholmaydi. Har bir odam ma'lumotni ko'radi, eshitadi, o'qiydi va eng muhimi, doimo, uzluksiz ravishda, kechayu-kunduz unga yetib boradigan axborotning ta'sirida yashaydi. Shuning uchun axborot yordamida kimgadir ruhiy ta'sir qilmoqchi bo'lganlarga o'sha odamning psixologiyasi ko'maklashadi, agar ushbu inson axborotni o'ylamasdan qabul qilaversa.

Yuqorida aytganimizdek, shaxs tomonidan axborotni qabul qilishning hal etuvchi mezon – bu insonning ongi borligidir. Mazkur ongdan foydalanib, mantiqiy isbot yordamida odamga xohlagan, eng noma'qul g'oyani ham "to'g'riligini" isbotlash mumkin, bu qiyin emas. Buning uchun dalillarni ustalik tanlab, isbot jarayonini yaxshi tuzish kifoya. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbasi – bu insonning o'zidir.

Masalan, har bir inson hulqi, nuqtayi nazari va pozitsiyasi turli axborot yordamida har xil boshqarilishi mumkin. Siyosatshunoslar yoki jurnalistlar bir voqeani, bitta faktni shunday talqin qila oladiki, undan keng auditoriya ijobiy yoki, teskarisi, salbiy xulosa chiqarishi odatiy hol bo'lib qolgan. Shunday ekan, axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida faoliyat ko'rsatadigan O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ular uchun eng muhim omillar bo'lgan tezkorlik va haqiqatgo'ylik prinsiplari asosida ish olib borishlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday manbalar ko'p, ularning asosiy qismi shaxs axborot xavfsizligiga tahdidning manbalari tarkibida keltirildi. Qo'shimcha ravishda butunjamiyat va millatga xavf solayotgan manbalarni keltirish mumkin, masalan, millatchilikni, shovinizmni, imperiyaviy tafakkur, mafkuraviy ekspansionizm va boshqa shu kabi illatlarni qo'zg'atuvchi davlatlar, tashkilotlar va shaxslar.

Axboriy hukmronlikning maqsadi bitta – axborot tarqatadigan mamlakatning mafkurasini boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida keng tarqatish va targ'ib qilish. Lekin bunday vazifa borligi haqida ular ochiq oydin aytmaydi, aksincha, uni har xil yo'llar bilan yashiradi. Masalan, inson huquqlari yoki demokratik andozalar niqobi ostida va hokazo. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda internet tarmog'i va undan olinayotgan ma'lumotlar insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib ulgurdi. Shunday holatda internetdan foydalanish, internet xavfsizligi, internetning inson ruhiyatiga, tafakkuriga ta'siri masalasi har qachongidanda dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Shunday ekan, jamiyatimiz axborotni qabul qilishda axborot iste'moli madaniyati tushunchalarini bilishlari muhim hisoblanadi.





## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### TARIX DARSLARIDA TO'GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISHDA MAVZUGA ZAMIN METODINI QO'LLASH

**Farmonov Mirzohid Mardonovich**

Qarshi tumani 62 – maktab tarix fani o'qituvchisi  
Xudoyorov Diyorbek Shamsiddin o'g'li  
Qarshi tumani 62 – maktab o'quvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada tarix darslarida to'garak ishlarining tashkil etishda o'quvchilarning kasbga yo'naltirishda mavzuga zamin metodining qo'llash texnologiyasi haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** to'garak ishlari, kasbga yo'naltirish, mavzuga zamin, kasbiy qiziqish, kasbiy yo'naltirish.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguna qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda

O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q.

Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

#### “Mavzuga zamin” usuli

Maqsad: O'quvchilarni o'tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash ya'ni zamin hozirlash. Bizga ma'lumki o'quvchilar mavzuni o'qituvchi tushuntirib berishi chog'ida va o'zi darslikdan o'qib o'zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o'quvchilar o'zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o'quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo'lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o'yinlar, sahnali ko'rinishlar, baxs-munozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida, avvalombor, o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o'tilishi, o'quvchilarning yaxshi o'zlashtira olishi eng birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi, o'tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o'tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o'quvchilarni o'tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog'liq. Bu usul ko'proq o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o'tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlatiladi. Bu usul 5-11 sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 5-7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlarga bo'lish chog'ida guruhlarning kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o'zlashtira oladigan o'quvchilarni va unga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirib bo'lish kerak.


1. Emotsional zo'ravonlik holatlarida maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatiga ta'sir qilishning samarali vositasi o'yin terapiyasi, kichik va o'smirlar davridagi bola uchun esa kognitiv-xulq-atvor psixokorreksiyasi hisoblanadi.
2. Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab o'quvchilari uchun jismoniy zo'ravonlik holatlarida musiqiy psixokorreksiya taklif etiladi, kattaroq bolalar uchun esa - xatti-harakatni modellashtirish bilan kognitiv-xulq-atvor, o'smirlar uchun art-terapiya tuzatish.
3. Murakkab zo'ravonlik bilan - o'yin terapiyasi va art terapiyani tuzatish kombinatsiyasi. Zo'ravonlik qurbonlarining psixologik maslahatiga yondashuvni tanlash bolalarning kognitiv, affektiv va xatti-harakatlarida qanday muammolarga duch kelishiga bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O'qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.



**Pardayev Obidjon Hamza o'g'li**

Kattaqo'rg'on tumani MMTB ga qarashli  
74-maktabning amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda turmush qurish yoshidagi yoshlarimizning asosiy muammosi ularning nikohga tayyorgaligidir. Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga, nikohga tayyorlash masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** nikoh, oila, turmush, yoshlar, yetuklik, axloq, talab, hayot, yosh.

Oila - muqaddas dargoh. Oila qo'rg'onining mustahkam bo'lishi uchun xalqimizga xos sabr-qanoat, o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibat singari fazilatlarga amal qilib yashash lozim. Ayniqsa, yoshlarni yuksak odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, shuningdek, mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan, o'ziga xos mazmunga ega tadbirlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonamizdagi oilaviy hayotning eng yaxshi an'analari va yangiliklarini o'zida mujassam etgan yosh, mustahkam oilani barpo etishning dolzarbligi jamiyatning ma'naviy-axloqiy inqirozi va ijtimoiy hayot inqirozidan chiqish yo'lining ajralmas va eng muhim qismidir. Zamonaviy oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi yosh avlodni nikoh va oilaviy munosabatlarga o'rgatishdir. Nikoh oldi omillari oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanliklarini belgilab beradi.

Inson o'zini oilaviy hayotga tayyorman deyishi uchun eng avvalo nikohning talablariga javob berishi kerak.

Nikohning birinchi talabi jinsiy yetuklik hisoblanib, erkak va ayol organizmi fiziologik xususiyatlari namoyon bo'lishi, ular shaxsiy gigienaning o'rni va ahamiyatiga aloqador bilimlarning sohibi bo'lishidir. Yoshlarni nikohga yetukligi deyilganda uning faqat fiziologik jihatdan rivojlanishini nazarda tutish noto'g'ri, bundan tashqari yoshlar jinsiy hayot psixogigienasi borasida ham zarur ilmiy psixologik bilimlarga, to'g'ri tasavvurlarga, ega bo'lishi lozim.

Nikohga yetuklikning ikkinchi talabi fuqarolik va huquqiy yetuklik bo'lib, bu odamning balog'atga yetish yoshi bilan huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda nikoh yoshi yigit va qizlar uchun bir xil 18 yosh qilib belgilangan. Bu davrda ular Konstitusiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishadi. Huquqiy madaniyat va yetuklik avvalo oila va nikoh borasidagi mavjud qonunlarni bilish, oila qonunchiligidagi eng muhim normalarga ongli munosabat tufayli turmush o'rtog'i, farzandlari, jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarni his etish va ularga itoat etishga hozirlikni nazarda tutadi.

Nikohga yetuklikning uchinchi talabi kasb-hunar va ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik hisoblanadi. Kasb-hunar egallash ancha murakkab tushuncha bo'lib, uning murakkabligi shundaki, u ma'lum bir o'quv yurtini, o'quv kurslarini bitirish,

Yani ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan belgilanadi. SHu bilan birga shaxslararo munosabatlarga ruhan tayyorlik ham o'ta muhim masala hisoblanadi. CHunki, oilaviy hayotda amalga oshiriladigan ko'plab vazifalar va mas'uliyatlar orasida muomala odobining bo'lishi va yangi qarindoshlar bilan yangi rollarni bajarish borasidagi hamkorlik qilishga ruhiy tayyorgarlik o'zgacha madaniyat, aqliy salohiyatni talab etadi.

Nikohga yetuklikning to'rtinchi talabi axloqiy yetuklik bo'lib, bunda yuksak madaniyat, bag'rikenglik, sabr-matонат, muloyimlik, mehribonlik, muomala madaniyati, shirinso'zlik, mulozamatlilik, mehnatsevarlik, halollik, odillik, to'g'riso'zlik, samimiyat kabi fazilatlarning namoyon bo'lishini taqozo etadi.

Nikohga yetuklikning beshinchi talabi psixologik yetuklik bo'lib, bunda yoshlarning turli hayotiy sharoitlarni hushyor baxolay olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik yoshlarning amaliy voqealikni to'g'ri baholay olishi, yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha ob'ektiv baxolay olishida namoyon bo'ladi.

Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ham ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada turli guruhlarda garmonik munosabatlarni o'rganilishiga imkon beradi.

Psixologik yetuklikning asosiy xususiyati yoshlarning turli toifa, turli yoshdagi odamlar bilan o'rinli munosabatda bo'la olishi, turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligi, boshqa shaxslar bilan



ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlilik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Nikohga yetuklikning oltinchi talabi xususiyati pedagogik yetuklik bo'lib, umuman oilaning tarbiyalovchilik roli, jumladan, farzand tarbiyasi masalalaridagi bilimdonlikni, oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi va bunda ota-onaning tarbiyalovchi missiyasi nimada ekanligi, ota-onalikning tarbiyalovchilik saviyasini oshirish yo'llari to'g'risida aniq bilim va tasavvurlarni nazarda tutadi.

Pedagog va psixologlarning ta'kidlashicha, yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash uning yosh rivojlanishining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak va ta'limning umumiy muammolaridan ajralmasdir. Shaxs qismlarga bo'lib shakllanmaydi va bir sohada ta'limning yetishmasligi boshqa sohada uning natijalarini buzadi. Insonni oilaviy hayotga, ishlab chiqarish faoliyatiga yoki jamoat hayotida faol pozitsiyani egallashga alohida tayyorlash mumkin emas.

Oila shaxsning axloqiy va aqliy tarkibini tashkil etuvchi asosiy va ijtimoiy asosdir. Oiladagi psixologik iqlim va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar har qanday yoshdagi shaxsning ishlab chiqarish faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni bajarishiga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladi.

Psixologlarning fikricha, shaxsning turmush qurishga axloqiy-psixologik tayyorgarligi oila hayotini tartibga soluvchi talablar, majburiyatlar va xulq-atvorning ijtimoiy standartlari butun majmuasini idrok etishni anglatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shoumarov G'.B. "Oila psixologiyasi" Toshkent "SHarq" -2008 yil
2. Karimova V. "Oilaviy hayot psixologiyasi" O'quv qo'llanma Toshkent-2006 yil
3. Otaxo'jaev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi., T., "O'zbekiston", 1995.,
4. G'oziev E.G'. Psixologiya muammolari. T.: "Universitet", 1999.



PSIXOLOGIK MASLAHAT VA KORREKSIYANING MAQSADI

Saatbayeva Dilfuza

Xorazm viloyati Gurlan tumani 31-maktab psixologi

Sabirova Rayxonoy

Xorazm viloyati Gurlan tumani 24-umumiy  
o'рта ta'lim maktabining psixologi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada psixologik maslahat va korreksiyaning maqsadi hamda vazifalari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixolog, maslahat, mijoz, shaxsiy suhbat, muammo.

Psixologik maslahat deb bunga muhtoj bo'lganlarga maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis psixolog tomonidan bevosita ko'rsatiladigan psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan amaliy psixologiyaning alohida sohasiga aytiladi.

Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o'rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Ko'pincha psixologik maslahat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, odatda begona odamlardan holi va yakkama-yakka, yuzma-yuz o'tkaziladi.

Psixologik maslahat o'rtacha bir necha o'n minutdan yarim soatgacha, ikki va undan ortiq soat davom etadigan psixologning mijoz bilan shaxsiy suhbat shaklida o'tkaziladi. Mana shu suhbat davomida mijoz o'z muammolari, o'zi to'g'risida gapirib beradi. Psixolog o'z navbatida muammoning mohiyatini tushunib etish, bu muammoni o'zi uchun ham, mijoz uchun ham oydinlashtirishga harakat qilib diqqat bilan tinglaydi, maslahatlar davomida mijozning shaxsi baholanadi, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib mijozga uning muammosini qanday qilib amaliy hal etish bo'yicha ilmiy, asosli tavsiyalar beriladi.

Psixolog-maslahatchi tomonidan mijozga beriladigan maslahat va takliflar ko'p hollarda ulardan mustaqil foydalanib, mijoz o'z muammosini o'zi to'la hal eta olishiga qaratilgan bo'ladi.

Psixologik maslahat – bu deyarli barcha imkoniyat va psixik sog'lom odam uning hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni hal eta olishiga, ishonchiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatish asosida yuzaga kelgan amaliyotdir. Lekin mijoz har doim ham uning muammosi mohiyati nimadan iborat ekanligini va o'zining kuchi va imkoniyatlariga tayanib, uni qanday qilib hal etishni aniq bilmaydi va tushunmaydi.

Professional tayyorlangan psixolog-maslahatchi mana shu bo'yicha unga yordam ko'rsatishi kerak. Psixologik maslahatning asosiy vazifasi mana shundan iborat. Maslahat berish davomida psixolog odatda qisqa vaqt ichida mijoz muammosini amaliy hal etish usulini topish va aniq ifoda etish uchun qaratilgan mijoz bilan maxsus ish uslublari va unga ta'sir ko'rsatish metodlarini qo'llaydi, shu bilan birga ushbu yechim mijoz amalga oshirishi uchun tushunarli va mumkin bo'ladigan qilib amalga oshiriladi.

Psixolog-maslahatchining mijoz bilan uchrashuvi ko'pincha bir-ikki uchrashuv bilan cheklanmaydi. Ko'pchilik hollarda mijoz bilan uch marta va undan ko'p uchrashib ancha uzoq muddat davomida maslahat berib borish talab etiladi.

Mijozning muammosi shunday murakkab bo'ladi-ki, bir- ikki soat davomida uni tushunib olish deyarli mumkin emas. Mijozning bir emas, balki bir necha muammolari mavjud, ularning har birini hal etish alohida maslahatni talab etadi.

Taklif etilayotgan muammoning echimi mijoz tomonidan darhol va to'la mustaqil amalga oshirilishi mumkin emas va maslahatchi tomonidan qo'shimcha yordam ko'rsatishni talab etadi.

Psixolog-maslahatchida mijoz uning individual xususiyatlari sababli o'z muammosini darhol va qo'shimcha yordamsiz hal eta olishiga to'la ishonmaydi.

Agarda mijoz o'ziga yetarlicha ishonmasa, o'z hayajonlari va xulqini boshqara olmasa, agarda uning intellektual rivojlanish darajasi qiyin vaziyatlarda oqilona, to'g'ri yechimni mustaqil qabul qilish uchun yetarli bo'lmaganda bunday hollar uchrab turadi.

Psixologik xizmatning psixokorreksiya yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, o'quvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning





shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotda hisobga olgan holda faoliyat olib borish, o'qituvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'lim-tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa - bu bolalar, o'quvchilar, talabalar o'sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi hisoblanadi. Psixik taraqqiyotni tuzatishlar "korreksiya qilish" atamasi dastlab deffektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, amaliy yosh psixologiyasining rivojlanishi bilan "tuzatish" tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo'llanila boshladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T.2005.
2. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.
3. Дубровина И.В. Я работаю психологом. –М. 2001.
4. Колесникова Г.И. Основы психопрофлактики и психокоррекции. Ростов – н/Д.: Феникс.2002.
5. Лебедева Л.Д. Практика Арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – СПб.: Речь,2003.
6. Psixologik maslahat: o'quv qo'llanma/Z.T. Nishanova, Sh. Asomuddinova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 248 b.



МАКТАBLARDA KASBGA YO`NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISHDAGI  
AYRIM MUAMMOLAR

Smetullaeva N.M.

Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Qonliqo'l tumani 13-son maktab amaliyotchi psixologi

*Annotatsiya. Bu tezisda maktablarda kasbga yo`naltirish ishlaridagi muammolar va ularning ayrim echimlari, bolalarning qiziqishlarini vaqtida aniqlashning muhimligi masalalari yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: kasb, kasbga yo`naltirish, qiziqish, moyillik, muammo, xato.*

Inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to`g`risida o`ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta`lim-tarbiya o`quvchining turli fanlarga bo`lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo`lgan qiziqishi tez seziladi, ya`ni tasviriy, musiqaviy va hokazolar. O`smirlik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko`pgina o`quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma`lum bo`ladi: ular "Men shifokor bo`laman" va h. Ayrim o`quvchilar uchun tuqqizinchi sinfni bitirgach, kasbiy yo`nalishlarni tanlash - eng dolzarb masala bo`lib qoladi.

Kasb tanlash ko`proq boshlang`ich sinflardan ko`ra bitiruvchi sinflarning muammosiga aylanib qoladi, chunki bitirib ketguncha kim bo`lishini, qaysi bilim yurtiga topshirishini aytishi kerak, lekin, ota-onalar, ustozlari ularning nimaga qobiliyati borligini ozmi-ko`pmi aniqlashtirib ulgurgan bo`lsa ham muammoli masala, ulardan biri: kim bo`lishni xohlashingni, qanday tushunsa bo`ladi?- degan savol. Mana shuning uchun ham maktablarda kasbga yo`naltirish ishlari juda muhim. Maktab o`quvchilari uchun kasbga yo`naltirish – bu ularning ma`lum bir kelajak kasbini tanlashi uchun, shu kasbni o`rgatadigan bilim yurtiga kirib ketishi uchun ularni har xil kasb turlari bilan chuqur tanishtirishdan iborat.

Aslida nima uchun kerak o`zi kasbga yo`naltirish:

- bola har xil narsalar bilan oz-ozdan shug`ullanadi, lekin aniq bir narsa bilan emas;
- o`smir yaqinda maktabni bitiradi, lekin haliyam bir echimga kelmagan, qaerga o`qishga topshirishini bilmaydi;
- o`quvchining xoxishi ota-onasining xoxishi bilan to`g`ri kelmaydi;
- o`quvchi bir kasbni egallagisi kelyapti, lekin uning u kasbga qobiliyati yo`q.

Shu kabi muammolarni echishda kasbga yo`naltirish ishlari mukammal tarzda olib borilishi kerak bo`ladi. Buning uchun albatta kasbiy diagnostika ishlari olib boriladi va uning natijasiga ko`ra kasbga yo`naltiriladi.

Kasbiy diagnostika testlaridan ota-onalarning o`tishi ham juda yaxshi foyda beradi, chunki, nasliy omil degan narsa bor, bolaning ota-onasi butun umr bir kasb bilan shug`ullanib kelgan bo`lishi mumkin, lekin uning moyilligi boshqa narsaga mavjud. Bu esa ota-onaga farzandining qobiliyatlariga boshqacha ko`z bilan qarashlariga yordam beradi. Agarda farzandi ota-ona aytayotgan kasbni xohlamasa, «oilaviy kasbni» davom ettirishga majbur emas.

Kasbga yo`naltirish ishlarida o`smirlar uchun har qanday holatda ularni tushunishga harakat qilish juda muhim. Ularning o`z talantlarini, qobiliyatlarini tushunib olishlari uchun quyidagicha maslahatlar berish mumkin:

1. Tanaffus vaqtida rasm chizasiz, chizganingiz yomon emas, keyin uni ahlat kutisiga tashlab yuborasizmi? Balkim, birontasini saqlab qolib mutaxassisga ko`rsatish kerakdir? Katta ehtimol bilan Sizda rasm chizishga bo`lgan talant bordir.

2. Qaerda yursangiz ham qandaydir qo`shiqlarni hirgoyi qilib yurasizmi? Unday bo`lsa o`z eshitish qobiliyatingizni va vokal` ma`lumotlaringizni sinab ko`ring, balkim, siz uchun eng yaxshi echim vokalist bo`lishdir.

3. Formulalarni eslab qolish Siz uchun osonmi? Siz masalaga qarashingiz bilan, uni darrov echib bera olasizmi? Unday bo`lsa, Siz iqtisodchi, dasturchi yoki buxgalter bo`la olishingiz mumkin.

4. Agarda Sizda liderlikga uqub bo`lsa va Siz sinfsardori yoki ommaviy tadbirlarni tashkillashtirib o`zingizni yaxshigina ko`rsata olgan bo`lsangiz, unda Siz menedjer bo`lishingiz mumkin – bu Sizniki.

5. Siz har doim o`z fikrlaringizni yaxshi etkazib bera olasiz, yoki bo`lmasa har doim birovlar



xafa qilayotgan odamni himoya qilasizmi? Unday bo`lsa Siz advokat yoki yurist bo`la olishingiz mumkin.

Kasbga yo`naltirish ishlarida bunday maslahatlar bilan birgalikda kasb tanlashdagi xatoliklarga ham to`xtalib o`tish joiz bo`ladi, ya`ni bular:

- Ko`pincha ota-onalar bolalarini darhol yuqori malakali lavozimlarga yo`naltirib qo`yishadi. Masalan, direktor, bank boshqaruvchisi, olim va h.;

- Past nufuzli kasblarni mensimaslik yoki rad etish;

- Kelajak kasbi sohasini tanlashda o`z xohish va istaklariga yo`nalmasdan, ota-onasining yoki boshqa odamlarning maslahatlariga quloq solishi;

- Ma`lum bir kasb egasi bo`lgan aniq bir odamga degan, uning kasbiga bo`lgan munosabat proektsiyasi;

- Butun kasbning o`ziga emas balkim uning bitta tomoniga qiziqish bildirish;

- Kasbiy faoliyatga, u bilan bog`liq bo`lgan maktab predmetiga munosabat proektsiyasi;

- Do`stlarining xohishlariga ko`ra, bo`lajak mutaxassisligini tanlash;

- O`z talantini sog`lom baholay olmaslik va ma`lum bir tanlagan sohasida faoliyat ko`rsata olishga uqubsizlik;

- Kelajak kasbini, shu kasbning moliyaviy tomonlariga asoslanib tanlash.

Demak, xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, o`quvchilarni kasbga yo`naltirishda ularning talant va o`qublarini boshlang`ich sinflardan oq e`tiborga olib tahlil qilib, ularga topshiriqlar berib, sinab, ma`lum bir sohaga qiziqishining davomiyligiga, shu soha bo`yicha topshiriqlarni bajarish natijalariga qarab asta-sekinlik bilan to`g`ri yo`naltirib borish juda muhim va bu borada ayniqsa ota-onalar bilan ham ishlashish maqsadga muvofiq bo`ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Гурова Е. В. Профориентационная работа в школе: методическое пособие. Москва: Просвещение, 2007. – 95 с.

2. Пряжников Н. С. Профессиональное самоопределение. - М., 2008.



### МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ИШЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШДА ХОРИЖИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИ ҚўЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ.

Бекмурадова Махфуза Каршиевна  
386-сонли давлат мактабгача таълим  
ташкilotи директори

#### Аннотация

Ушбу мақолада мактабгача таълим муассасасида таълим тарбия ишларини режалаштиришда хорижий тадқиқотларни қўллашнинг аҳамияти муҳокама этилган. Олимлар томонидан ўрганилган ва амалга оширилган тадқиқотлар таҳлил этилган. Мактабгача таълим ташкilotларида бола тарбиясининг аҳамияти ифодаланган.

**Калит сўзлар:** мактабгача таълим ташкilotи, ижодкорлик, танқидий фикрлаш, СТЕМ, СТЕАМ, MindUp, шахсий муваффақият, бола тарбияси

Тарбия олий неъматдир. Фарзанд тарбияси болаларни гўдакликдан вояга етгунга қадар тарбиялаш ва назорат қилиш жараёнини ифодалайди. Тарбия боланинг жисмоний, ҳиссий, ижтимоий ва интеллектуал ривожланишини қўллаб-қувватлаш учун ота-оналар ёки тарбиячилар томонидан қўлланиладиган амалиётлар, усуллар ва стратегияларни ўз ичига олади.

Боланинг хавфсизлигини таъминлаш ва уни зарарлардан ҳимоя қилиш жисмоний парваришнинг асосий жиҳати ҳисобланади. Бу боланинг ҳиссий эҳтиёжларига жавоб бериш, қайғу пайтида қулайликни таъминлаш ва хавфсиз боғланишни ривожлантиришни ўз ичига олади. Боланинг билим олиш имкониятларини таъминлаш, қизиқишини рағбатлантириш ва боланинг изланишларини қўллаб-қувватлаш орқали унинг ўрганиши ва интеллектуал о'сиши рағбатлантирилади

Мактабгача таълим ташкilotлари тарбия маскани сифатида ота-онадан кейинги тарбия ўчоғидир. Мактабгача таълим ташкilotларида таълим тарбиявий ишини режалаштириш педагоглар, тарбиячи-методист, мудира фаолиятининг муҳим турларидан бири ҳисобланади. Мактабгача таълим ташкilotлари болаларга ижтимоий ва ҳиссий кўникмаларни ривожлантириш имкониятини беради. Тарбиячи-методист ва тенгқурлар билан мулоқот қилиш болаларга ҳамкорлик қилишни, баҳам кўришни, низоларни ҳал қилишни, ўзларининг ва бошқаларнинг ҳис-туйғуларини тушунишни ўрганишга ёрдам беради.

Олимлар тадқиқотига кўра, болалар боғчасида ўйинга асосланган таълимнинг муҳимлигини таъкидлайдилар. Ўйин орқали болалар ижодкорлик, танқидий фикрлаш ва нозик восита қобилиятларини ривожлантирадидилар. Бундан ташқари, уларнинг қизиқишларини ўрганиш ва ўз тезлигида ўрганиш имконини беради. Тарбиячилар ва болалар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг сифати жуда муҳимдир. Ижобий, қўллаб-қувватловчи ва сезгир ўзаро таъсирлар ўрганиш ва ривожланишга ёрдам берадиган хавфсиз ва озиқлантирувчи муҳитни таъминлайди. Самарали ўқитувчилар тайёргарлиги ва болалар нисбатининг пастлиги бунга эришишда муҳим омил ҳисобланади.

Бундан ташқари олимлар эрта болалик давридаги таълимда ота-оналарнинг иштироки муҳимлигини таъкидлайдилар. Ота-оналар ўз фарзандларини ўрганиш билан шуғулланса ва ўқитувчилар билан ҳамкорлик қилса, бу боланинг таълим тажрибасини мустаҳкамлайди ва яхши натижаларга ҳисса қўшади. Мактабгача таълим соҳасидаги сўнгги илмий ютуқлар болаларни тарбиялаш амалиётини такомиллаштириш ва ёш болаларнинг ҳар томонлама ривожланишини таъминлашга қаратилган бир қанча янги усулларни жорий этади. Ўйинга асосланган таълим эрта болалик таълимининг асоси бўлиб қолмоқда, ўйинни тузилган ўқув мақсадлари билан бирлаштириш учун янги стратегиялар ишлаб чиқилмоқда. Ушбу ёндашув қизиқарли ва таълим берувчи тадбирлар орқали когнитив, ижтимоий ва ҳиссий ривожланишни рағ'батлантиради.

Эҳтиёткорлик ва ижтимоий-эмотсионал таълим дастурларини мактабгача таълим дастурларига киритиш тобора оммалашиб бормоқда. Чуқур нафас олиш, ёға ва бошқариладиган тасвирлар каби усуллар болаларда ўзини ўзи бошқариш, диққатни жамлаш ва ҳиссий барқарорликни ривожлантиришга ёрдам беради. «MindUp» ва «Иккинчи қадам» каби дастурлар ушбу кўникмаларни ёшга мос равишда ўргатиш учун моължалланган. Бундан ташқари, ҳозирда СТЕМ (фан, технология, муҳандислик, математика) ва СТЕАМ (санъатни қўшиш) ни эрта



болалик таълимига интеграциялашга тобора кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Ушбу дастурлар қизиқувчанлик ва танқидий фикрлашни рағбатлантирадиган амалий машғулотлар ва лойиҳалар орқали асосий тушунчаларни киритади. Мисоллар оддий машиналар қуриш, табиатни ўрганиш ва илмий тамойилларни ўз ичига олган ижодий санъат лойиҳаларида иштирок этишни ўз ичига олади. Табиатга асосланган таълим ёки ўрмон мактаби болаларни табиий муҳитда ўрганиш учун очиқ ҳавода ўтказишни ўз ичига олади. Бу усул болаларнинг табиат билан алоқасини ривожлантиришга ёрдам беради, жисмоний фаолликни ривожлантиради, кузатиш ва изланиш қобилиятларини оширади. Фаолиятлар табиатда сайр қилиш, боғдорчилик ва очиқ ҳавода хикоя қилишни ўз ичига олиши мумкин. Янги усуллар ота-оналарни таълим жараёнига жалб қилиш муҳимлигини таъкидлайди. Семинарлар, мунтазам мулоқотлар ва уй шароитидаги машғулотлар ота-оналарга фарзандларининг уйда ўқишини қўллаб-қувватлашга қаратилган. Ўқитувчилар ва ота-оналар ўртасидаги бу ҳамкорлик изчилликни таъминлайди ва таълим натижаларини мустаҳкамлайди.

Хулоса қилиб айтганда, мактабгача таълим ташкилотларида бола тарбиялашда турли услардан фойдаланиш боланинг келажакдаги академик ва шахсий муваффақиятларга тайёрлайдиган эрта болалик таълим комплексига ёндашувни акс эттиради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. В.Г.Ничаева. Мактабгача ёшдаги болаларни меҳнатда тарбиялаш - Тошкент. Ўқитувчи -1995 й.
2. Раҳимов Ш. Асосий вазифа – болаларни таълимга қамраб олиш.// “Мактабгача таълим” журнали, 3-сон, 2017. 2-3 бет.
3. Микляева А. В., Румянцева П. В. Социальная идентичность личности: содержание, структура, механизмы формирования: Монография. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2008.





ТРАДИЦИЯ «УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК» В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Сафарова Нилюфар Самиевна

Учитель начальных классов школы 7, города Навои

Традиция «наставник и ученик» очень важна, поскольку она обеспечивает ученикам возможность работать непосредственно над своим исполнительством, подходить с учетом их индивидуальных особенностей, создавать благоприятные условия для дальнейшего развития существующих талантов. Такие ситуации воспитывают у молодежи ответственный подход к трудовой деятельности, уважение к труду других, честный труд, гордость за эффективность труда.

Традиции «наставник и ученик» имеют большое значение для формирования всесторонне зрелой личности, то есть они воспитывают у молодежи профессиональные навыки, повышают духовно-просветительский потенциал, поиск, творчество, формируется уверенность в собственных возможностях ученика, правильная оценка ситуации и волевые качества, социальная активность ученика находится под контролем наставника.

В формах работы со учеником преподаватель должен соблюдать вооружение учеников знаниями в соответствии с требованиями времени, законодательством общества в воспитательном воздействии, научить стремиться к единой цели, видеть результат работы, позитивно влиять на психику, духовность ученика и в то же время быть требовательным, прививать уважение к себе и другим, установить положительную обратную связь, использовать различные методы воспитания. В процессе воспитания преподаватель должен быть моральным, этическим, профессиональным примером, формировать чувства долга, ответственности и т.д.

Авторитет преподавателя формируется при высоком уровне развития научных, коммуникативных и просветительских умений. Преподаватель, хорошо владеющий методикой преподавания учебной дисциплины, имеющий отработанную систему подачи знаний ученикам, ведущий научно-исследовательскую работу с развитой творческой направленностью, устанавливающий со учениками и коллегами позитивные взаимоотношения, пользуется у учеников большим авторитетом, им восхищаются, ему подражают и хвалят. У авторитетных преподавателей отмечаются высокая педагогическая наблюдательность, уважение к ученикам, стимулирование их активности и интеллектуальной деятельности, гибкость и нестандартность в принятии педагогических решений, удовлетворение от процесса общения со учениками.

Педагог исполняет роль наставника, старшего товарища, участника совместной учебной деятельности, постоянно находится в диалоге с обучаемыми, держит их в мажорном настроении, поощряет инициативу, легко схватывает изменения в психологическом климате группы и гибко реагирует на них. Преобладает стиль дружеского взаимодействия с сохранением ролевой дистанции. Возникающие учебные, организационные и этические проблемы творчески решаются совместными усилиями. Наиболее эффективно решать педагогические задачи позволяет демократический стиль, при котором преподаватель учитывает индивидуальные особенности учеников, их личный опыт, специфику их потребностей и возможностей. Своеобразие современной профессиональной деятельности преподавателя вуза заключается в реализации истинного смысла назначения деятельности педагога: ведение, поддержка, сопровождение обучающегося.

Таким образом, наставничество – это универсальная технология передачи опыта, знаний, формирования навыков, компетенций, и ценностей через неформальное взаимообогащающее общение, основанное на доверии и партнерстве.

**Литература:**

1. Наставничество как процесс сопровождения детей и подростков «групп риска». Сборник научно-методических материалов / Н. В. Ковалева, И. В. Деткова, А. В. Леонтьева [и др.]; под общей ред. Е. Н. Панченко. – Москва-Майкоп, 2006. – 180 с.
2. Романова, Е. С., Коган, Б. М., Свистунова, Е. В., Ананьева, Е. В. Учимся сотрудничать: комплексный подход к профориентации и профконсультированию подростков с ограниченными возможностями здоровья / Е. С. Романова, Б. М. Коган, Е. В. Свистунова, Е. В. Ананьева. – М.: Издательский центр «Академия», 2012. – С. 16-23.
3. [www.metodkabi.net.ru](http://www.metodkabi.net.ru).



МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҚОНУН  
ХУЖЖАТЛАРИДАГИ АҲАМИЯТИ

Учқурова Шаҳноза Шавкат қизи  
Низомий номидаги ТДПУ таянч докторанти

**Аннотация**

Ушбу мақолада мустақил таълимни ривожлантиришнинг қонун ҳужжатларида аҳамияти муҳокама этилган. Мустақил таълимни ташкил этиш, назорат қилиш бўйича ишлаб чиқилган қарорлар, олий таълимни ривожлантириш фаолиятига тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар таҳлил этиб ўрганилган.

**Калит сўзлар:** мустақил таълим, қонун ҳужжатлари, қарорлар, олий таълимни ривожлантириш, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, касбий компетенция.

Дунё бўйлаб ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий ҳаётда туб ўзгаришлар содир бўлмоқда. Жаҳон таълим муассасаларида мустақил таълим кўникмаларини ривожлантириш асосида бўлажак мутахассисларни тайёрлашда креатив модули механизмлар таълим жараёнига татбиқ этилмоқда.

Бугунги кунда ривожланган мамлакатларнинг таълим тизимини таҳлил этиб ўрганиш давомида, жаҳондаги мамлакатларнинг ривожланиши ёки аксинча, инқирозга юз тутиши мамлакатдаги таълим тизимининг қай даражада такомиллашганига боғлиқ эканлиги гувоҳимиз. Дарҳақиқат, турли соҳа мутахассисларининг хорижий тилларда ўз касб соҳаларида эркин мулоқотга киришлари, хорижий тилларни ўқитишни -лар орқали ривожлантириш, ўқув дастурлари уйғунлигини шакллантириш, йирик амалий лойиҳаларни амалиётда қўллаш асосида тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, таълим соҳасидаги ислоҳотларда “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг янги таҳрирда қабул қилиниши муҳим ўрин тутди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”да олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари масаласи кўриб чиқилиб, бунда замонавий билимга эга мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш ва илғор таълим технологияларига асосланган ижтимоий соҳани, ҳамда иқтисодиёт тармоқларини ривожлантиришга стратегик масалалар сифатида алоҳида аҳамият берилган. Шунингдек, концепцияда “мустақил таълим соатлари улушини ошириш, талабаларда мустақил таълим кўникмаларини ривожлантириш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услугий материалларни кенг жорий этиш” вазифаси белгиланган. Бундан ташқари, таълим олувчиларнинг мустақил таълим олишлари, мустақил ишлаш, малакаларини узлуксиз ошириш орқали мутахассисларнинг зарурий компетенцияларга эга бўлиши, ижодий яратувчанлик, тадқиқотчилик, мантиқий тафаккурини ривожлантиришга эришишлари мумкинлиги таъкидланган.

Ҳозирги кунда дунёвий билимга эга етук мутахассис кадрларни тайёрлашда таълим жараёнини ташкил қилиш муҳим ўрин тутди. Ўқув режаларда талабалар ўқув юкласининг ҳажми аудитория (контактли) ва мустақил таълимнинг нисбати бакалаврият таълим йўналишларида 40/60 фоиз нисбатидан 50/50 фоиз нисбатигача, магистратура мутахассисликларида 30/70 фоиз нисбатидан 50/50 фоиз нисбатигача ажратилган. Таълим дастурининг ўзгариши жараёнида фанларнинг бир қатор масала ва муаммолари мустақил таълим орқали ўрганилиши лозим. Мустақил таълим талабалар томонидан у ёки бу фан бўйича дастур материалларидан бир қисмининг мустақил ўзлаштирилишидир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПК- 2909-сон «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида», Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 11 августдаги ПФ-606-сон «Чет тилларни ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида», Ўзбекистон Республикаси



Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 июлдаги ПФ-606-сон “Олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрларни мақсадли тайёрлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”, 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5 847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”, 2021 йил 19 майдаги ШК-5117-сон “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ тизимни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 824-сон Қарори ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2021 йил 16 июлдаги “Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 311-сон буйруғи асосида Олий таълим муассасаларида кредит-модуль тизимида талабаларнинг мустақил таълимини ташкил этиш, назорат қилиш бўйича ишлаб чиқилган йўриқнома ва қарорлар мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу мақола муайян даражада хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Л. Зарипов, Н. Хайитов, З. Тоҳиров. Талабалар мустақил таълимини ташкил этиш. Методик қўлланма. Тошкент.2023. – 32 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПК- 2909-сон «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари»
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 11 августдаги ПФ-606-сон “Чет тилларни ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари”
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 июлдаги ПФ-606-сон “Олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрларни мақсадли тайёрлаш тизимини такомиллаштириш”
6. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5 847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш”
7. 2021 йил 19 майдаги ШК-5117-сон “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлар”
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ тизимни такомиллаштириш чора-тадбирлари” 824-сон Қарори
9. Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2021 йил 16 июлдаги “Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” 311-сон буйруғи



**Sh.Abdullayeva**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Urganch filiali "O'zbek tili va ijtimoiy fanlar"  
kafedrası dotsenti f.f.n

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada loyiha texnologiyasi yoki loyiha usuli didaktik tabiati tufayli tanqidiy va ijodiy fikrlashning intellektual ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini hal qilishga imkon berishi kabi voqea-hodisalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, pedagogika, loyiha, metodi, ta'lim, kognitiv, tadqiqot faoliyati, integratsiya.

Yangi pedagogik texnologiyalar orasida rus tilini o'qitishning belgilangan maqsadlariga eng mos keladigani, bizning nuqtai nazarimizdan, loyihalar texnologiyasi yoki loyiha usulidir. Ma'lumki, loyiha metodi jahon va mahalliy pedagogikada uzoq tarixga ega.

Ta'lim loyihasi ustida ishlash, qoida tariqasida, butun o'quv yili davomida amalga oshiriladi va bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchining tavsiyalarini inobatga olgan holda talaba tomonidan mavzuni oldindan tanlash; reja tuzish, ushbu mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va material to'plash, adabiyotlar tahlili va mavzu bo'yicha o'z xulosalaringizni o'z ichiga olgan matnni yaratish, ishning qisqacha tavsifini o'z ichiga olgan talabanning og'zaki taqdimotini o'z ichiga olgan himoya; ish mavzusi bo'yicha savollarga javob berish. Bu ma'lum darajada ta'lim loyihasini allaqachon an'anaviy shaklga - abstraktga yaqinlashtiradi.

Ta'lim loyihasi - bu nafaqat o'quv, balki ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan talabanning mustaqil tadqiqot faoliyati, degan umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga aylanib bormoqda, bu ham o'qituvchi - loyiha rahbari va uning ijrochisi tomonidan yaxshi tushuniladi. Bu muammoni hal qilish uchun integratsiyalashgan bilim va tadqiqotlarni talab qiladigan yechimdir. Shuning uchun loyiha natijalarini taqdim etish har xil bo'lishi mumkin: ilmiy ma'ruza (masalan, "A. S. Pushkinning lirik asarlarida bir qismli jumladan foydalanish" mavzusida) muammolar bayoni va ilmiy xulosalardir. Ushbu muammoning rivojlanishida kuzatilishi mumkin bo'lgan tendentsiyalar; zamonaviy lug'at, lug'atini yaratish, Rus tilini himoya qilish jamiyatini yaratish va uning Nizomini yozish, rus tili uchun "Lingvistik krossvordlar" deb nomlangan kompyuter dasturlarini tayyorlash va boshqalar.

Loyiha uslubi hozirda o'qitishda, shu jumladan rus tilini o'qitishda faol qo'llanilmoqda. Ushbu usul talabalarning muayyan muammo bo'yicha birgalikda yoki individual ishini tashkil etishni, ularning faoliyati natijalarini majburiy ravishda taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Loyiha usulidan foydalangan holda tashkil etilgan o'quv faoliyatida qanday intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin?

Birinchidan, ma'lumotni tahlil qilish, kerakli faktlarni tanlash, faktlar va hodisalarni taqqoslash, yonma-yon joylashtirish jarayonida analitik fikrlash.

Ikkinchidan, assotsiativ fikrlash ilgari o'rganilgan, tanish bo'lgan faktlar, hodisalar bilan bog'lanishlarni o'rnatish, ob'ekt, hodisa va boshqalarning yangi sifatleri bilan bog'lanishlarni o'rnatish jarayonida.

Uchinchidan, mantiqiy fikrlash, qarorning dalillari mantiqini, hal qilinayotgan muammoning ichki mantiqini, masalani hal qilish uchun bajariladigan harakatlar ketma-ketligi mantiqini qurish qobiliyati shakllanadi.

Bundan tashqari, talaba muammoni uning aloqalari va xususiyatlarining yaxlitligida ko'rib chiqish, shuningdek, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, yangi yechimlarni izlash, muammoni hal qilish uchun turli sohalardan bilimlarni uzatish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ushbu texnologiya eng muhim nutq qobiliyatlarini, shu jumladan nutq faoliyatining barcha turlarida (gapirish, tinglash, o'qish, yozish) talabalarni yangilaydi, birinchi o'rinda nutqning turli uslublari va turlaridagi matnlar bilan ma'lumot va semantik ishlov berish darajasida ishlash qobiliyatini yaxshilaydi.

Loyiha usulini amalda qo'llash o'qituvchining pozitsiyasini o'zgartirishga olib keladi. U tayyor bilimlarni tashuvchidan o'z o'quvchilarining kognitiv, tadqiqot faoliyati tashkilotchisiga aylanadi.

Loyiha usuli rus tili o'qituvchilarini qiziqtiradi, lekin rus tilida loyihalar yaratish tajribasi hali ham





cheklangan. O'qituvchilar va metodistlarning e'tiborini texnologik talablar doirasida o'quv loyihasini yaratishga urinishlar jalb qiladi.

O'qituvchilar har doim loyiha mavzusini, uning turini tanlash va ishtirokchilar sonini aniqlashdan boshlaydilar. Keyinchalik, o'qituvchi mo'ljallangan mavzu doirasida o'rganish uchun muhim bo'lgan muammolarni o'ylab ko'rishi va talabalarga ularni tushunish va shakllantirishga yordam berishi kerak (yetakchi savollar, muammolarni aniqlashga yordam beradigan vaziyatlar, video ketma-ketliklar va boshqalar). O'qituvchi talabalarni mumkin bo'lgan tadqiqot usullarini muhokama qilishga, axborotni mustaqil ravishda izlashga va ijodiy yechimlarni yaratishga undaydi.

Olingan ma'lumotlarning guruhlarda darslar davomida yoki ilmiy jamiyatda darslar davomida oraliq muhokamalarini tashkil etish juda muhimdir. Ma'lum bir davrda loyiha ishtirokchisi oraliq natijalar haqida hisobot beradi. Bu talabalarga loyiha ustida tizimli ishlarni tashkil qilish imkonini beradi. Odatda loyihaning dastlabki himoyasi o'tkaziladi, unda sharhlar beriladi va natijalarning yakuniy taqdimoti bo'yicha maslahatlar beriladi.

Loyihalarni himoya qilish jamoaviy muhokama, ekspertiza, qarama-qarshilik, tashqi baholash natijalari, xulosalarni o'z ichiga oladi. Eng yaxshi asarlar to'plamlarda nashr etilgan.

Berilgan mavzu doirasidagi muammoni aniqlash oson emas, bu jarayonda o'qituvchining roli katta; Ta'lim loyihalari uchun mavzularni belgilash ham oson emas. Ko'rsatmalar olimlar va yozuvchilarning rus tili, til hodisalari haqidagi bayonotlari shaklida tavsiya etilgan va taqdim etilgan insholarning mavzulari bo'lishi mumkin, masalan: "Til - barcha bilimlar va barcha tabiatning kalitidir". (G. Derjavin)

Shunday qilib, ta'lim loyihasi har bir mavzu bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega muammo aniqlanganda, tadqiqot usullari aniqlanganda va talabning faoliyati rejalashtirilganda amalga oshiriladi.

Loyiha usulidan foydalanish qobiliyati talabning ilmiy faoliyatini boshqara oladigan, ya'ni talabning qiziqishlari va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda loyiha muammosini shakllantirishda yordam beradigan, talabning mustaqil tadqiqot faoliyatini tashkil eta oladigan yuqori malakali o'qituvchining ko'rsatkichidir. Uning bosqichlarini rejalashtirish, har bir loyiha ishtirokchisi uchun vazifalarni taqsimlashga yordam berish, konsultatsiyalar o'tkazish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bir-biriga nisbatan bag'rikenglik va jamoaviy faoliyat jarayonida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Азизходжаева Н. Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: 2004. – 340 с.
2. Алимсаидова С. А. Развитие творческого мышления и личностных качеств учащихся академических лицеев на уроках русского языка и литературы // Молодой ученый. — 2017. — №1. — С. 430-432.
3. Астахова Л.В., Харлампьева Т.В. Критическое мышление как средство обеспечения информационно-психологической безопасности личности. Монография. – М., 2009.
4. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Ташкент: Фан ва технология, 2016.
5. Балыхина Т.М. «Методика преподавания русского языка как неродного». – М.: Издательство РУДН, 2007. – 185 с.
6. Болотов В. Психология творческих способностей. – М.: Академия, 2002.





YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI - KELAJAGIMIZ VA ISTIQBOLIMIZ  
POYDEVORI

Z.K.Tuliyeva

Muxammad al-Xorazmiy nomli  
Tashkent axbarot texnologiyalar unifersiteti  
Urganch filiali o‘qituvchisi  
zulayhotulieva77@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston kelajagi bo‘lmish yoshlarni qo‘llab quvvatlash va yoshlarini kelajagi uchun mamalakatimizda olib borilayot ijtimoiy iqtisodiy islohatlar, yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yonalishlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** yangi O‘zbekiston, shijoatli yoshlar, iqtidorli, salohiyatli, zarur sharoitlar, imkoniyatlar, jamiyat taraqqiyoti, yosh avlod, sog‘lom, barkamol, islohotlar, bilim, g‘ayratli, tashabbuskor, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikrlash.

**Annotation:** In this article, we support the youth who are the future of Uzbekistan and the socio-economic reforms carried out in our country for the future of young people, attention and care for young people, show their talents and potential in all areas. It is about the priorities of public policy to create the necessary conditions and opportunities for its full manifestation.

**Keywords:** New Uzbekistan, courageous youth, talented, potential, necessary conditions, opportunities, social development, young generation, healthy, harmonious, reforms, knowledge, enthusiastic, enterprising, youth support, independent thinking.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

«Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi turadi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz», dedi davlat rahbari.

«Bizning eng ustuvor vazifamiz ulkan maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun vakolatli yoshlarni yaratish bo‘lishi kerak. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi», dedi Prezident.

Mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya‘ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e‘tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko‘rsatiladigan e‘tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O‘zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko‘pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo‘ladi.

Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e‘tirof etib kelingan. Sharq uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Shu bois, mamlakatimizda eng katta e‘tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu vazifa O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son, 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-son, 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, ko‘plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun



hujjatlarida belgilangan. Ayniqsa, bu borada «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yaratish sohasidagi yangilik bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma‘lumki, mazkur qonun 4 bob, 33 moddadan iborat bo‘lib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatlarini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutgan. Unda belgilangan normalar yoshlar huquq va erkinliklarini ta‘minlangan.

Xususan; ushbu qonunning 5 moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu yo‘nalishlardan davlat tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida qanchalik ulkan vazifalar qamrab olinganligini, endilikda mazkur qonun yoshlarga qanday imkoniyatlarni kafolatlayotganligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, qonunda yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekistonda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi muvaffaqiyatli o‘tkazilgan, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo‘yicha Ahmad Farg‘oniy, kimyo fani bo‘yicha Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo‘yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalari tashkil etilishi, iqtidor va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab quvvatlashdir. Mana, amalda bugun ijod, prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medal joriy etilgani, fan olimpiadasi g‘oliblari, Zulfiya, «Mard o‘g‘lon» «Kelajak bunyodkori» kabi davlat mukofotlarini joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyliigi va ijrosini ta‘minlashdir. Qonunning ahamiyatli tomoni yana shundaki, unda Yoshlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illatlar ta‘siridan himoya qilish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish maqsadida «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi doirasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tuzilib, yoshlar biznes tashabbuslarini, startap, g‘oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorida imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko‘rsatish; hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlarni amalga oshirdi. Shuningdek, dastur doirasida yosh tadbirkorlarning biznes tashabbuslari, startap, g‘oya va loyihalarini amalga oshirishda maslahat, huquqiy, buxgalteriya va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, forumlar, master klass hamda seminarlar tashkil etish maqsadida «Yosh tadbirkorlar» kovorking markazlari ham amaliy yordamga yo‘naltirilgandi.

Ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta‘minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunda tuman va shaharlarda ushbu hududlar prokurorlari boshchiligida, tuman hokimining yoshlar siyosati bo‘yicha o‘rinbosari, ichki ishlar bo‘limi boshliqlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tuman va shahar kengashlari raislari hamda tadbirkorlikka ko‘maklashish markazlarining rahbarlari ishtirokida yosh tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha komissiyalar tuzish belgilab qo‘yilgandi. Besh tashabbusning har bir yo‘nalishini tuman va shaharlarda tizimli amalga oshirish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Yoshlarimiz uchun ayniqsa, qizlarimizning yanada ilmi bo‘lishlari uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o‘qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko‘tarilgan bo‘lsa, endilikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 fevraldagi qarorida Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlariga davlat oliy ta‘lim muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo‘mitasining oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar belgilangan edi. Jumladan, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan tan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga tavsiyanoma asosida: Oliy ta‘lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o‘qishga kirish imtiyozi berilgandi. Bu imtiyoz yoshlar uchun kutilmagan e‘tibor: ularda vatanparvarlik va o‘tanasiga nisbatan yanada g‘urur va iftixor baxsh etganining guvohimiz. Chunki, mazkur tavsiyanoma va taqdimnomalarning amal qilish muddati uch yil deb belgilab ham hikmatli qadamdir. Qadimda Aristotel litsey, Aflotun akademiya tashkil etib aholining bilim saviyasini oshirishga xizmat qilishgan bo‘lsa, jadidlarimiz o‘z mablag‘i hisobidan maktab ochgan bo‘lsa, hozirgi davrda yoshlar masalasi



eng dolzarb mavzuligini bir daqiqa ham unutmasligimiz shart va zarur. Aynan ertangi kunimiz unib-o'sib kelayotgan yoshlarning idroki, dunyoqarashi, bilimi va hunariga bevosita bog'liq bo'ladi. Yoshlarning bilim olish istagini hamisha birinchi galdagi vazifa sifatida qaralishi muhimdir. , 2020/2021 o'quv yili bakalavr darajasiga 145 mingdan ortiq, ya'ni o'quv yiliga nisbatan 15,6 foizga ko'proq talaba qabul qilish ko'zlanmoqda, bu yilgi ya'ni 2020/21 o'quv yili uchun OTMlarga qabulda 8694ta imtiyozli grant kvotasi ajratilgani ham diqqatga sazovordir. Imtiyozli kvotalar 7 xil toifadagi abituriyentlarga berilmoqda. Yangi o'quv yilidan boshlab Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladigan tavsiyanomaga ega bo'lgan qizlar uchun kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha tasdiqlangan davlat grantlariga nisbatan 4 foiz miqdorda alohida grant o'rinlari ajratiladi. Oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga o'qishga kirish, shuningdek, bakalavriyat ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirish va qayta tiklash uchun hujjatlarni topshirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirilishi ham yoshlar uchun yaratilgan eng maqbul imkoniyatdir. Bu O'zbekistonning kelajagi yoshlarimizning umid yulduzidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq ekanini unitmaslik kerak.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2021 yildagi pf-6260-son
2. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari>.



ЖАМИЯТДА ИМКОНИАТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАРГА ЭЪТИБОР

Н.С.Матязова

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги  
Тошкент ахборот технологиялари университети  
Урганч филиали “Ўзбек тили ва ижтимоий фанлар”  
кафедраси доценти, (PhD) Н.С.Матязова

**Аннотация:** Ушбу мақолада келажагимиз пойдевори бўлган ёшларни баркамол инсонлар қилиб тарбиялашда соғлом ижтимоий-руҳий муҳитларни яратиш мақсадида таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилишга катта аҳамият берилган.

**Калит сўзлар:** Мустақиллик, келажак, таълим –тарбия, муҳит, давлат, “Ўзбек модели”, таълим.

Маълумки, Ўзбекистон мустақиллигига эришган дастлабки кунларданок мамлакатимиз биринчи президенти И.Каримов келажагимиз пойдевори бўлган ёшларни баркамол инсонлар қилиб тарбиялашда соғлом ижтимоий-руҳий муҳитларни яратиш мақсадида таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилишга катта аҳамият берди. Таълим-тарбия жараёни тарбиячи ва тарбияланувчилар фаолиятининг ўзаро ҳамжихатлигидан иборатдир. Таълим-тарбия жараёни индивиднинг фақатгина билим, кўникма ва малакаларини шакллантириб қолмасдан, балки тарбияланувчи шахсига комплекс равишда таъсир этувчи ижтимоий муҳит доирасида амалга ошади. Бундай жараённи талаб даражасида амалга ошишида мураббийлар, маънавият тарғиботчиларнинг роли бекиёсдир.

Ҳар қандай жамиятда келажак ворислари бўлмиш фарзандларни маъсулиятни ҳис этадиган уларни давлат тараққиёти ва гуллаб яшнашига салмоқли улиш қўшадиган муносиб фуқоралар бўлиб етишишига катта умид билан қаралади.

Дунёга “Ўзбек модели” деб ном олган ривожланиш йўли билан тобора кўпроқ танилаётган Ўзбекистонда ҳам болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга жуда катта эътибор берилмоқда. Мамлакатимизда мактаб, лицей, коллеж каби билим даргоҳлари билан биргаликда турли махсус мактаб интернатлар, меҳрибонлик уйлари фаолият кўрсатаётганлиги ҳам фикримизнинг исботидир.

Кўплаб давлатларда бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам имконияти чекланган болалар учун махсус ташкилланган мактаблар бор. Уларнинг вазифаси - болаларни махсус ўқув юртига тайёрлашдир. Болаларни ҳимоя қилиш, уларни эҳтиёжларини ҳисобга олиш, ўзóra тенгликни юксалтиришни мамлакатимиз бош мақсад қилиб олган. Ҳамма болаларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳуқуқ ва қобилятларини ҳурмат қиладиган ижтимоий адолат ҳамда тенгликка эришишни мақсад қилиб олган таълим тизими Инклюзив таълим дейилади.

Юртимизда инклюзив таълим тизимини тобора ривожлантириш, ташкил қилиш, мактаб ўқув фанларини ўзлаштиришда қийинчиликларга дуч келаётган болалардаги суний тўсиқларни хатлаб ўтишларида, ўқув фаолиятини яхши ўзлаштиришларида, бошланғич мактабларга осон қадам қўйишларида, ўз имкониятларини кўрсатиб билишларида катта аҳамият касб этади.

Инклюзив таълим болаларни таълим жараёнига интеграция қилиш ҳамда умумтаълим мактабларини ногирон болаларга мослаштиришни кўзда тутадиган ижтимоий адолат ва тенгликни бош мақсад қилиб олган жараёндир.

Бугунги кунда ҳар бир бола эҳтиёжини ҳисобга олиб юртимизнинг барча вилоятларида, туман, шаҳарларида инклюзив таълим тизимини ҳаётга тадбиқ этиш, махсус ўқув режаларини тайёрлаш, услубиятнинг психологик муаммолари билан боғлиқ тамонларни тўғри йўлга қўйиш лозимдир. Инклюзив таълим ҳамма болаларни, шу жумладан ногирон болаларни ҳам ўзлари хоҳлаган мактабда ўқиши мумкин деб хулоса чиқаради. Бундай таълим туфайли махсус эҳтиёжли болалар:

- жисмоний ва руҳий эҳтиёжларни қондирадилар;
- ижтимоий хулқ ва ўзига-ўзи хизмат кўрсатиш малакаларини яратадилар;
- ўқув материалларини ўзлаштирадилар;
- тенгқурлари билан турли ўйинларда иштирок этиб, ривожланадилар;
- дўстона муҳитда дўст орттирадилар;
- ҳаётий малака ва кўникмаларини шакллантирадилар.



Инклюзив таълимда махсус эҳтиёжли ногирон болалар ҳам фақат махсус мактабларда эмас, балки соғлом болалар ўқийдиган умумтаълим мактабларида ҳам таълим-тарбия олишлари мумкин эканлигини эътироф этади. Бунинг учун эса юртимиздаги барча мактаб, ўқитувчи, тарбиячилар ҳам инклюзив таълим тизимига тайёр бўлиши, мактаб даражаси жисмоний шароит ва ўқишга имкон омиллари шу таълим талабларига тўла жавоб бериши керак.

Инклюзив таълимда мактабдаги жисмоний шароитлар ҳам катта ўрин тутади. Оддий қилиб айтадиган бўлсак, барча мактаблар эшигига ўқувчилар зинапоялар орқали кириб борадилар, лекин бу зинапоялардан махсус аравачаларда юрадиган ногирон болалар кўтарила олмайдилар, ҳатто кўлтик таёқда юрадиган болалар ҳам қийналишлари мумкин. Демак зинапоялардан ҳам, эшиклардан ҳам соғлом болалар билан бирга ногирон болалар ҳам беъмалол ўтишлари учун қулай шароит яратилиши шарт. Бундан ташқари синф хоналари ва лабораториялардаги махсус ўриндик ҳамда мосламалар ҳам ногирон болаларга мос бўлиши керак.

Бундай шарт-шароитларнинг барча вилоятларимизда яратилиши, давлатимизнинг раванг топишида, болаларнинг ижтимоийлашувида муҳим аҳамият касб этади. Шунинг ҳам айтиш керакки юртимизнинг баъзи шаҳарларида (Кўкон) инклюзив таълим лойиҳасининг йўлга қўйилиши, ривожлантирилиши махсус эҳтиёжли болаларни соғлом тенгқурлари билан биргаликда ўқув-тарбия ишларида ҳар тамонлама фаол иштирок этишлари мумкинлигини тасдиқлади. Ҳа, ушбу йилда вилоятимизда инклюзив таълим тизимини янада ривожлантирсак, ҳаётга тадбиқ этсак барча ногирон болаларнинг қалбларини обод этиш йўлида ҳам хайрли ва савобли қадам қўйган бўламиз.

Келажак авлод ҳақида қайғуриш, соғлом баркамол наслни тарбиялаб етиштиришга интилиш бизнинг миллий хусусиятимиздир.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.,2021, 24 - б.
2. Воронцов В.Л. Тафаккур гулшани. Т.,1981, 157-172 - б.
3. Сухомлинский В.А. Болаларга жоним фидо. Т.,1984, 31- б, 156 - б.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.2016, 272 б.
5. Р.Мавлонова, Н.Раҳмонқулова. Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция. Т.2013





ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ  
МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ

Н.С.Матязова

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги  
Тошкент ахборот технологиялари университети  
Урганч филиали “Ўзбек тили ва ижтимоий фанлар”  
кафедраси доценти, (Phd)

**Аннотация:** Ушбу мақолада ёшларнинг қалби ва онгида соғлом ҳаёт тарзи, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат-эҳтиром туйғусини шакллантиришда, ҳар жиҳатдан баркамол этиб тарбиялашда буюк мутафаккир аждодларимиз мероси катта аҳамият касб этиши каби воқеа-ҳодисаларни ўз ичига олади.

**Калит сўзлар:** Жамият, организм, оила, психологик муҳит, ижтимоий ҳаёт, мутафаккир, аждодлар.

Ҳар қандай жамият тараққиётида оилаларнинг оилалар мустаҳкамлигининг ўрни бекиёсдир. Чунки тирик организмнинг саломатлиги уни ташкил қилувчи қар бир хужайранинг соғломлигига боғлиқ бўлганидек, бутун организм ўз фаолиятини мақсадга мувофиқ амалга оширишда ҳар бир хужайранинг муносиб ўрни бўлганидек, оила ҳам давлат, жамият деб аталган бутун бир организмни ташкил этувчи хужайрадир. Ҳар бир оиланинг соғлом бўлиши, уларда ижобий психологик иқлимнинг ҳукм суриши, мана шу муҳитда дунёга келиб, шахс сифатида шаклланиб, сўнг ўзи яшаётган давлатнинг фуқароси сифатида ўз давлатининг иқтисодиёти, ижтимоий ҳаёти тараққиётини таъминловчи, ҳал қилувчи омил бўлган инсон камолотида оиланинг тутган ўрни бекиёсдир.

Оила жамиятнинг асосий бўғинидир, ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эга. (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 63-модда ) сида таъкидлаб ўтилган. Шунингдек, жамият тараққиётининг кутилган даражага чиқа олмаслиги, унинг тараққиётига тўсқинлик қилувчи, унинг инқирозга олиб келувчи кучларнинг юзага келишида ҳам оиланинг ҳиссаси каттадир. Чунки носоғлом психологик муҳитли, низо-жанжалли, ўзаро меҳр-муҳаббатсиз муҳитда дунёга келиб, шаклланган бола, кейинчалик нафақат ўз ота-онаси, ака-укаларига маҳалла-қуйга нисбатан балки атрофдагиларга қолаверса, ўзи яшаётган жамиятга нисбатан ҳам меҳр-оқибатсиз, шафқатсиз, золим, худбин, юрт манфаатларига зид, ташқи кучлар таъсирига осон берилувчан, шу асосда эса ўз оиласи, ўз халқи, ўз юрти учун хавфли одам бўлиб етишиши мумкин.

Оила ва унинг жамият ҳаётидаги ўрни бекиёс бўлиб, Конституциянинг 14-бобида 63-64-65-66-моддалар махсус оилага бағишланган. Оилаларнинг мустаҳкамлиги жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, миллий хавфсизлиги, унинг равнақи, тараққиётини белгиловчи ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Ҳозирги вақтда жамиятимиз учун, инсоният тараққиёти учун мустақиллигимиз истикболлари учун жиддий хавф туғдираётган иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, экологик, ички ва ташқи омилларнинг таҳдиди ортиб бораётган айни вақтда оилалар мустаҳкамлигини таъминлаш ва бу масалани тўғри ҳал этишнинг асосий йўли бўлмиш ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласи ҳеч кечиктириб бўлмайдиган, сусткашликка йўл қўйиб бўлмайдиган, ўта жиддий ёндашишларни талаб этувчи давлат, ҳукумат миқёсидаги долзарб масаладир. Бунинг муваффақиятли амалга ошишига жамиятимизнинг ҳар бир фуқароси, ота-оналар, маҳала-қуй ҳамма бирдек масъулдир. Чунки инсоният ва жамиятимиз тараққиёти шу масалани биз бугун қандай ҳал қилишимизга боғлиқ.

Ёшларнинг қалби ва онгида соғлом ҳаёт тарзи, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат-эҳтиром туйғусини шакллантиришда, ҳар жиҳатдан баркамол этиб тарбиялашда буюк мутафаккир аждодларимиз мероси катта аҳамият касб этади. Зеро, ҳаётнинг асл мазмун-моҳиятини англаб етишга ўз умри ва салоҳиятини бағишлаган алломаларимизнинг асарларида соғлом авлод тарбияси билан боғлиқ масалаларга алоҳида ўрин берилган. Шарқ мутафаккирларининг Абу Наср Фаробий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Махмуд Қошғарий, Кайковусларнинг ғоявий жиҳатдан бирлаштирган асос шу бўлганки улар шахс тарбияси ва камолотида оиланинг, оилавий тарбиянинг ролини юқори қўйишган, айниқса, шахснинг ақлий ва ахлоқий камолотида оиланинг ўрни, ота-она ва яқин кишиларнинг



Йўналтирувчи ва тарбияловчи вазифаларига алоҳида эътибор берганлар. Зардуштийликнинг қадимий китоби “Авесто”да оила муқаддас даргоҳ эканлиги, оила барқарорлигида эр ва хотиннинг тенг масъуллиги, фарзанд тарбияси тўғрисидаги фикрлар баён этилган. Оилавий муносабатлар ва бу соҳага оид қарашлар тизимида Шарқ мутафаккирларидан бири Абу Али Ибн Сино барча ҳодисаларнинг илмий моҳиятини очиқ боришга ҳаракат қилган. Ибн Синони педагогик ва психологик қарашлари ижтимоий асосда қурилган бўлиб, у бола тарбиясида умуминсоний тамойилнинг қўлланилишини ёқлаб чиққан ва тарбиячи ота-оналарга болани тана жазосидан кўра, шахсий ибрат орқали тарбиялаш маъқуллигини уқтирган. Мутафаккирнинг қаламига мансуб бўлган “Донишнома”, “Рисолайи ишқ”, “Тиб қонунлари”, “Уй хўжалиги” каби қатор асарлари Ўрта Осиё халқлари ахлоқ-одоби, психологияси ва таъбабат оламида алоҳида ўрин тутган йирик илмий тадқиқотлар ҳисобланади.

Оиладаги бола тарбияси ота-онанинг жамиятда тутган мавқеидан қатъий назар, уларнинг бирламчи вазифасидир, деб ҳисоблайди. Албатта бола тарбияси ўта мураккаб ва маъсулиятлидир. Бу ҳар бир ота-онанинг ўз устида мунтазам ишлашни, болалар тарбиясига оид барча маълумотлардан баҳобар бўлиб боришни талаб этади. Фарзанд тарбияси бу шунчаки тажриба, оддий кўрсатма ва билимлар жамланмаси эмас, балки ўз ичига диний-ахлоқий билимлар, тиббиёт, этика, психология, педагогика каби соҳаларига оид билимларни ҳам қамраб оладиган мураккаб жараёндир.

Ота-боболармиз азалдан ўғил қизларнинг гўзал хулқли, одобли бўлишига катта аҳамият берганлар. Бинобарин, ислом динида ҳам ахлоқ имон қаторига қўйилади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, мустаҳкам маънавий иммунитетли, ўзининг фикрларини равон айта оладиган, юқори марраларга эришувчан авлодни тарбиялаш учун ота-она, оила муҳити жуда катта аҳамият касб этади. Ҳеч кимга сир эмас, инсоннинг қалби ва онгини эгаллаш, айниқса, ёшларнинг маънавий дунёсини заҳарлашга қаратилган турли хавф-хатарлар ҳам кучайиб бораётган бугунги кунда ўзининг кимлигини, қандай бебаҳо мерос ворислари эканини теран англаб, она юртга муҳаббат ва садоқат ҳисси билан яшайдиган, имон-этиқоди мустаҳкам ёш авлодгина муқаддас заминимизни ёт ва бегона таъсирлардан, бало-қазолардан сақлашга, Ватанимизни ҳар томонлама равнақ топтиришга қодир бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. А.Иброҳимов ва бошқалар. Ватан туйғуси. Т.:“Ўзбекистон”, 16. 110-бет
2. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. - Т.: Ёзувчи, 1996. –Б.153.
3. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва гўзаллик. – Т.: Адолат, 2004. -Б. 34
4. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2000. Б – 56.



## ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ УЧИТЕЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

Абдуллаева Шохидахон Давронбековна  
Ургенчский филиал Ташкентского университета  
Информационные технологии им.  
Мухаммад аль-Хорезми,  
Доцент кафедры филологических наук  
кафедра узбекского языка и социальных наук (Phd),  
shohida82@mail.ru

**Аннотация:** В данной статье речь идёт о педагогическом общении и трудностях коммуникативной деятельности учителя. Готовность к профессионально-педагогическому общению является важнейшим условием эффективной педагогической деятельности.

**Ключевые понятия:** педагогическое общение, виды педагогического общения, культура педагогического общения, речевые действия учителя, коммуникативные умения учителя.

Проблемы профессионального общения сегодня остро стоят перед педагогической общественностью.

**Педагогическое общение** – это целенаправленное, специально-организованное взаимодействие педагога и воспитанников, включающее обмен информацией и действиями, а их также установление взаимопонимания между ними. В ходе этого взаимодействия осуществляется познание окружающего мира и самих себя, овладение определенными способами деятельности (умениями и навыками) и усвоение опыта эмоционально-ценностных отношений к себе и окружающему миру. Таким образом, педагогическое общение – это профессиональное общение педагога с детьми, направленное на решение задач воспитания, обучения, развития. Если общение педагога с классом сводится только к контролю за поведением детей и решению возникающих дисциплинарных проблем, то его нельзя назвать педагогическим. Оно становится таковым в том случае, если возникает обмен духовными ценностями и смыслами учащегося и педагога.

Существует несколько определений педагогического общения. Суммируя их, мы можем предложить следующее определение: оптимальное педагогическое общение – такое общение учителя со школьником, которое создаёт наилучшие условия для правильного формирования личности, творческого характера учебной деятельности и развития учащихся. Обеспечивает благоприятный эмоциональный климат и позволяет максимально использовать особенности учителя.

Готовность к профессионально-педагогическому общению является важнейшим условием эффективной педагогической деятельности. Начинающие педагоги отмечают, что для успешной работы им необходимы не только предметные и психолого-педагогические знания, но и коммуникативные умения.

Готовность к профессионально-педагогическому общению включает: знание основ педагогического общения, его закономерностей, функций, структуры, содержания; сформированность умений организовать общение, управлять им и собственным психическим состоянием, а также сформированность определенных личностных, нравственных качеств педагога. Указанные знания, умения и личностные качества определяют культуру педагогического общения, позволяющую педагогу осуществлять педагогическое общение, а значит воспитание и обучение, на достаточно высоком профессиональном уровне.

Общительность связана с такими свойствами педагога, как искренность, приветливость, отзывчивость в общении; чувство юмора, сдержанность и терпеливость в конфликтных ситуациях, проявление расположения, уважения и требовательности, педагогическая интуиция, тактичность в общении с детьми.

Трудности коммуникативной деятельности учителя-словесника связаны не только с тем, что он должен в непосредственном общении с детьми находить сиюминутное решение множества педагогических задач, но и с тем, что именно учитель русского языка должен создавать в классе атмосферу речевого общения, чтобы учащиеся видели в этом учителе человека, с которым они захотят делиться своими мыслями и чувствами. Кроме того, учитель русского языка с его



манерой держаться, говорить, словесно реагировать на то, что происходит в классе, – это каждый раз демонстрация свободного владения речью, а это способствует укреплению авторитета учителя и убеждает детей в практической значимости изучаемого предмета. Косноязычный словесник или учитель русского языка, допускающий ошибки в произношении слов, в нормах словоупотребления, построения предложения и т. д., не будет пользоваться уважением.

Психологи и педагоги отмечают, что развитию умения владеть устной речью способствует наличие определённых задатков и способностей, таких, как отличная вербальная память, хорошо развитые автоматизмы мгновенного отбора нужных языковых средств, общительность как черта характера (умение слушать, сопереживать, сочувствовать и др.). Наличие перечисленных способностей является основой для выработки коммуникативных (речевых) умений профессионального характера, особенностью которых считается то, что с их помощью реализуются образовательно-воспитательные задачи.

Учитель должен целенаправленно развивать в себе умение «публично мыслить», т. е. выступать перед публикой, и умение организовывать общение.

В педагогической науке выделяются следующие виды общения:

1) моделирование педагогом предстоящего с классом в процессе подготовки к уроку (прогностический этап);

2) организация непосредственного общения с классом (начальный период общения);

3) реализация общения, управление им в педагогическом общении;

4) анализ реализованной системы общения и моделирование новой системы общения.

Все эти этапы образуют общую структуру процесса педагогического общения.

На этапе моделирования педагогического общения осуществляется планирование коммуникативной структуры урока. Она должна соответствовать дидактическим целям и задачам урока, педагогической ситуации в классе, индивидуальности учителя и учащихся.

Организацию непосредственного общения с классом условно можно назвать «коммуникативной атакой», во время которой учитель завоёвывает инициативу в общении и целостное коммуникативное преимущество.

Самым важным элементом профессиональной коммуникации является осуществление и управление общением. Он включает конкретизацию спланированной модели педагогического общения.

Культура педагогического общения – важнейшее условие результативности совместной учебной деятельности, основа взаимопонимания учителя и ученика. К культуре речи учителя-словесника предъявляются особые требования: в школе формирование умений русской речевой коммуникации соотносится прежде всего с уроками русского языка и литературы. Речь учителя должна быть не только правильной и выразительной, но и коммуникативно целесообразной, убеждающей, включающей школьников в творческий диалог.

В педагогической деятельности общительность выступает не только как личностное, но, главным образом, как профессионально-личностное качество педагога. Культура педагогического общения предполагает овладение разнообразными способами общения, коммуникативно-речевыми умениями и техникой общения. В целом на уроке учитель организует учебную деятельность учащихся. Он обращается к ученикам, слушает, хвалит, порицает, делает замечания и т. д.

При построении педагогического общения учитель пользуется различными методами и способами, упражнениями и задачами. Каждое речевое действие учителя направлено на установление или поддержание эмоционально-личностных или коммуникативных отношений.

Огромную роль в педагогическом общении играет профессиональная этика. Учитель должен постоянно осуществлять самоконтроль за речевым поведением и уделять большое внимание формированию индивидуального стиля общения.

Немаловажное место в речевом поведении педагога занимает речевой этикет: речевые формы общения, приветствия; выражение одобрения, согласия-несогласия, извинения; средства привлечения внимания учащихся, оценки их деятельности и пр.

Необходимо вырабатывать формы тренинга, развивающие профессиональные качества: коммуникативность, динамизм, внимание, способность быстрой и адекватной реакции на речевое действие собеседника, владение речевыми приёмами организации учебной деятельности учащихся на всех этапах работы.



**Литература:**

1. Абрамов Н. Искусство разговаривать// Русская речь. 1991. - №4
2. Гольдин В. Е., Сиротинина О. Б. Речевая культура // Русский язык. Энциклопедия. – М., 1998.
3. Леонтьев А. А. Психология общения: Учеб. пособие для студентов вузов / А. А. Леонтьев, - 3-е изд. - М.: «Смысл», «Академия», 2005, - 365, /1/с.
4. Рыданова И. И. Основы педагогики общения. - Мн.: Белорусская наука, 2008.





## ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ УЧИТЕЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация:** В данной статье речь идёт о педагогическом общении и трудностях коммуникативной деятельности учителя. Готовность к профессионально-педагогическому общению является важнейшим условием эффективной педагогической деятельности.

**Ключевые понятия:** педагогическое общение, виды педагогического общения, культура педагогического общения, речевые действия учителя, коммуникативные умения учителя.

Проблемы профессионального общения сегодня остро стоят перед педагогической общественностью.

**Педагогическое общение** – это целенаправленное, специально-организованное взаимодействие педагога и воспитанников, включающее обмен информацией и действиями, а их также установление взаимопонимания между ними. В ходе этого взаимодействия осуществляется познание окружающего мира и самих себя, овладение определенными способами деятельности (умениями и навыками) и усвоение опыта эмоционально-ценностных отношений к себе и окружающему миру. Таким образом, педагогическое общение – это профессиональное общение педагога с детьми, направленное на решение задач воспитания, обучения, развития. Если общение педагога с классом сводится только к контролю за поведением детей и решению возникающих дисциплинарных проблем, то его нельзя назвать педагогическим. Оно становится таковым в том случае, если возникает обмен духовными ценностями и смыслами учащегося и педагога.

Существует несколько определений педагогического общения. Суммируя их, мы можем предложить следующее определение: оптимальное педагогическое общение – такое общение учителя со школьником, которое создаёт наилучшие условия для правильного формирования личности, творческого характера учебной деятельности и развития учащихся. Обеспечивает благоприятный эмоциональный климат и позволяет максимально использовать особенности учителя.

Готовность к профессионально-педагогическому общению является важнейшим условием эффективной педагогической деятельности. Начинающие педагоги отмечают, что для успешной работы им необходимы не только предметные и психолого-педагогические знания, но и коммуникативные умения.

Готовность к профессионально-педагогическому общению включает: знание основ педагогического общения, его закономерностей, функций, структуры, содержания; сформированность умений организовать общение, управлять им и собственным психическим состоянием, а также сформированность определенных личностных, нравственных качеств педагога. Указанные знания, умения и личностные качества определяют культуру педагогического общения, позволяющую педагогу осуществлять педагогическое общение, а значит воспитание и обучение, на достаточно высоком профессиональном уровне.

Общительность связана с такими свойствами педагога, как искренность, приветливость, отзывчивость в общении; чувство юмора, сдержанность и терпеливость в конфликтных ситуациях, проявление расположения, уважения и требовательности, педагогическая интуиция, тактичность в общении с детьми.

Трудности коммуникативной деятельности учителя-словесника связаны не только с тем, что он должен в непосредственном общении с детьми находить сиюминутное решение множества педагогических задач, но и с тем, что именно учитель русского языка должен создавать в классе атмосферу речевого общения, чтобы учащиеся видели в этом учителе человека, с которым они захотят делиться своими мыслями и чувствами. Кроме того, учитель русского языка с его манерой держаться, говорить, словесно реагировать на то, что происходит в классе, – это каждый раз демонстрация свободного владения речью, а это способствует укреплению авторитета учителя и убеждает детей в практической значимости изучаемого предмета. Косноязычный словесник или учитель русского языка, допускающий ошибки в произношении слов, в нормах словоупотребления, построения предложения и т. д., не будет пользоваться уважением.

Психологи и педагоги отмечают, что развитию умения владеть устной речью способствует наличие определённых задатков и способностей, таких, как отличная вербальная память, хорошо развитые автоматизмы мгновенного отбора нужных языковых средств, общительность



как черта характера (умение слушать, сопереживать, сочувствовать и др. ). Наличие перечисленных способностей является основой для выработки коммуникативных (речевых) умений профессионального характера, особенностью которых считается то, что с их помощью реализуются образовательно-воспитательные задачи.

Учитель должен целенаправленно развивать в себе умение «публично мыслить», т. е. выступать перед публикой, и умение организовывать общение.

В педагогической науке выделяются следующие виды общения:

1) моделирование педагогом предстоящего с классом в процессе подготовки к уроку (прогностический этап);

2) организация непосредственного общения с классом (начальный период общения);

3) реализация общения, управление им в педагогическом общении;

4) анализ реализованной системы общения и моделирование новой системы общения.

Все эти этапы образуют общую структуру процесса педагогического общения.

На этапе моделирования педагогического общения осуществляется планирование коммуникативной структуры урока. Она должна соответствовать дидактическим целям и задачам урока, педагогической ситуации в классе, индивидуальности учителя и учащихся.

Организацию непосредственного общения с классом условно можно назвать «коммуникативной атакой», во время которой учитель завоёвывает инициативу в общении и целостное коммуникативное преимущество.

Самым важным элементом профессиональной коммуникации является осуществление и управление общением. Он включает конкретизацию спланированной модели педагогического общения.

Культура педагогического общения – важнейшее условие результативности совместной учебной деятельности, основа взаимопонимания учителя и ученика. К культуре речи учителя-словесника предъявляются особые требования: в школе формирование умений русской речевой коммуникации соотносится прежде всего с уроками русского языка и литературы. Речь учителя должна быть не только правильной и выразительной, но и коммуникативно целесообразной, убеждающей, включающей школьников в творческий диалог.

В педагогической деятельности общительность выступает не только как личностное, но, главным образом, как профессионально-личностное качество педагога. Культура педагогического общения предполагает овладение разнообразными способами общения, коммуникативно-речевыми умениями и техникой общения. В целом на уроке учитель организует учебную деятельность учащихся. Он обращается к ученикам, слушает, хвалит, порицает, делает замечания и т. д.

При построении педагогического общения учитель пользуется различными методами и способами, упражнениями и задачами. Каждое речевое действие учителя направлено на установление или поддержание эмоционально-личностных или коммуникативных отношений.

Огромную роль в педагогическом общении играет профессиональная этика. Учитель должен постоянно осуществлять самоконтроль за речевым поведением и уделять большое внимание формированию индивидуального стиля общения.

Немаловажное место в речевом поведении педагога занимает речевой этикет: речевые формы общения, приветствия; выражение одобрения, согласия-несогласия, извинения; средства привлечения внимания учащихся, оценки их деятельности и пр.

Необходимо вырабатывать формы тренинга, развивающие профессиональные качества: коммуникативность, динамизм, внимание, способность быстрой и адекватной реакции на речевое действие собеседника, владение речевыми приёмами организации учебной деятельности учащихся на всех этапах работы.

### Литература:

1. Абрамов Н. Искусство разговаривать // Русская речь. 1991. - №4
2. Гольдин В. Е., Сиротина О. Б. Речевая культура // Русский язык. Энциклопедия. – М., 1998.
3. Леонтьев А. А. Психология общения: Учеб. пособие для студентов вузов / А. А. Леонтьев, - 3-е изд. - М.: «Смысл», «Академия», 2005, - 365, /1/с.
4. Рыданова И. И. Основы педагогики общения. - Мн.: Белорусская наука, 2008.



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

XORAZM “LAZGI” SAN’ATINING KELIB CHIQISHI VA HOZIRGI KUNDA UNGA  
AJRATILAYOTGAN YUKSAK E’TIBOR

Mamatqulov Shahzod Yo’ldoshboy o’g’li

Kuychiyeva Zamira O’narovna

Katta o’qituvchi

Toshnazarov Jamol Ravshanovich

Katta o’qituvchi

Guliston davlat universiteti

huawei01072023@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o’zbek raqs san’atining milliy durdonasi bo’lgan “Lazgi” ning kelib chiqish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari va unga oid manbalar, raqs san’atining turlari ilmiy o’rganilgan va yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** san’at, raqs, lazgi, madaniyat, tarix, tur, festival, hujjatli film.

O’rta Osiyo xalqlari orasida, xususan, O’zbekistonda raqs san’atining gultoji bo’lgan lazgi raqsi xalqimizning qadim tarixini, boy madaniyati va ma’naviyatini ko’rsatadigan go’zal namunalardan biri hisoblanadi.[1] O’sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma’naviy kamolotga muhabbat tuyg’ularini singdirishda o’zbek milliy raqs san’atining o’rni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlarini, insoniy fazilatlarini, milliy an’analarini ifodalanadi. Ta’kidlash joizki, hozirgacha davlatlarning 15 dan ortiq raqslari YUNESKO tomonidan representativ ro’yxatga kiritilgan.[2] Bu raqs san’ati inson hayotining muhim va ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. Milliy raqs san’atimiz nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o’rganilayotgan ma’naviy-estetik qadriyatlar tizimidir.

Mutaxassislar lazgi tarixining ayrim harakatlarini inson yaralishi bilan bog’laydi. Xususan, Geradotning “Tarix” va Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida raqslarning kelib chiqish va shakllanishini bevosita ibtidoiy davrdagi ov jarayonlariga, xalqlar o’rtasidagi an’ana va urf-odatlariga bog’lagan holda ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, mashhur yunon faylasufi Gerodot o’zining “Tarix” asarida bundan 2500 yil avval qadim xorazmiylarning Oks (Amudaryo) daryosi bo’yida olov yoqib, alanga ustiga xushbo’y giyohlar sepib, o’yin-kulgi qilib, gulxan atrofida tuni bilan holdan toyguncha ajib raqs tushib, tongni qarshilashi haqida ma’lumot beradi.[3] Markaziy Osiyo, jumladan, O’zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu erda raqs juda qadimiyligidan guvohlik beradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» davridayoq raqs san’ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo’nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarixiy ma’lumotlar bor.

Lazgi shakllanishida Xorazmda qish qattiq kelishi ham o’z ta’sirini o’tkazgan. Tarixiy manbalarga asosan, Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya”, tarixchilar Ibn Fadlon va Abu Mansur as-Saolibiy “Idilga sayohat”, “Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr” kabi asarlarida bu o’lkaning sovuq iqlimi haqida xabar bergan. Shu bois, ayrim mutaxassislar raqsdagi titramalar — forsiy “larzidan” so’zining o’zagi ushbu raqs nomini belgilaganini aytadilar. Qadimiy sanskrit tilida ham “lasya” — “raqs”, “lasaka” — “raqqos” ma’nosini berishi qayd etiladi.[4] Bugungi kunda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi mavjud bo’lib, ular: “Masxaraboz lazgi”, “Qayroq lazgi”, “Dutor lazgi”, “Surnay lazgi”, “Saroy lazgi”, “Changak lazgi”, “Xiva lazgi”, “Garmon lazgi” kabilardan iborat.[5] O’zbekiston milliy entsiklopediyasida: “O’zbekistonda garchi raqs asrlar davomida yashab, rivojlanib kelgan bo’lsa-da, o’tmishda raqs yozilmagan. Natijada qanchadan-qancha mumtoz va xalq raqslari izsiz yo’qolib ketgan. Ammo, Xorazm raqsi ijro uslubini, an’analarini, yangi ijtimoiy sharoitlarda saqlash va rivojlantirishda, ayniqsa, Gavhar Matyoqubova hissasi beqiyos. U o’zi ijro etgan lazgi raqsi haqida ilmiy izlanish qilgan ilk o’zbek raqqosasi hisoblanadi. Uning 1993-yilda “Ofatijon Lazgi” nomli risolasi xalqqa taqdim etilgan.[6] Istiqloq sharofati bilan umumxalq bayramlarining tiklanishi, turli



ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi natijasida folklor janri rivojlandi. Katta maydon raqslari, bolalar raqslari vujudga keldi. Mahoratli, izlanuvchan, tashabbuskor baletmeysterlar tomonidan juda ko'plab professional va havaskor raqs ansambllari tashkil qilindi. O'zbek raqs san'ati badiiy ijodiyot taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchining bir bo'g'iniga aylandi.

O'zbekiston Xalq artisti G.Matyoqubova va Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi Sh. Eshjonovalar tomonidan 2017-yilda ishlab chiqilgan "Lazgi" nomli yirik kitobning bosmadan chiqdi. Kitobda Xorazmning qadimiy lazgi raqsi tarixi to'laqonli aks ettirilgan. Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi tomonidan YUNESKO ning Insoniyat Nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritish uchun "Lazgi" raqsi passporti 2017-yil 29-mart kuni YUNESKO qarorgohi Parij shahriga yuborildi.[7] 2018-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori ishlab chiqildi. Bu konsepsiyada Xorazm "Lazgi" sini "Xorazm raqsi - lazgi" nomi ostida YUNESKO ning Insoniyat Nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish edi. Amalga oshirilgan salmoqli ishlar natijasida 2019-yil 12-dekabr kuni YUNESKO Nomoddiy madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hukumatlararo qo'mitasining 14-sessiyasida Bogota shahrida O'zbekistonning YUNESKO dagi elchisi Umid Shodiyev boshchiligidagi mamlakat delegatsiyasi «Lazgi» nominatsiyasi taqdimotini o'tkazdi va nominatsiya bir ovozdan representativ ro'yxatga kirishi haqida qaror qabul qilindi. [8]Chindan ham, so'nggi yillarda respublikamizda milliy madaniyatimizni yanada rivojlantirish, Yangi O'zbekistonning yuksak madaniyatini asrab-avaylash, butun dunyoda qiziqish uyg'otayotgan nomoddiy madaniy merosimizni kelajak avlod uchun ham o'z holicha yetkazib berishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning negizida aynan ota bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosni saqlash va yanada boyitish g'oyalari yotibdi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Sohadagi ishlarni takomillashtirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 28-sentyabrda "Lazgi" xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" gi PQ 4843-sonli qarorni imzolandi. Qarorga ko'ra 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta "Lazgi" xalqaro raqs festivali 25-30-aprel kunlari Xiva shahrida o'tkazilishi belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston xoreografiya akademiyasining Urganch filialini tashkil etish to'g'risida"gi 31-son qarori ham aynan "Lazgi"ni asrab-avaylash, uni ilmiy o'rganish, jahon miqyosida keng targ'ib qilishga qaratilgani bilan ham alohida ajralib turadi.[9] Mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy kamolotini, estetik saviyasini belgilovchi ko'plab badiiy qadriyatlarimizning yangi qirralarini kashf etishga, ularning tarixiy ildizlarini tizimli o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Uzoq tarixga ega bo'lgan O'zbekistonning tashrif qog'oziga aylangan "Lazgi" raqs san'ati bundan keyin ham rivojlanib takomillashib borishiga to'liq ishonaman. Bu yo'lda ayniqsa, milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish barchamizning ezgu burchimizdir. Yangi O'zbekistonni qurmoqchi ekanmiz, eng avvalo uni ulug' g'oyalar, ezgu maqsadlar va albatta buyuk milliy qadriyatlar uyg'unligida qurishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Matyoqubova "Ofatijon lazgi". - T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. - 64 bet.
2. Axborot qidiruv manbai: [ich.unesco.org](http://ich.unesco.org)--UNESCO Intangible Cultural Heritage Dance List--Yuneskoning Nomoddiy madaniy raqs yodgorliklar ro'yxati.
3. L.Abdeeva. O'zbekiston raqs san'ati. O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent-1960.184 bet
4. A.Haydarov. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin Meros press.2021. - 478 bet
5. G.Matyoqubova, Sh.Eshjonova. "Lazgi". Quvanchbek Mashhura. – Urganch. 2017. -240 bet
6. N.E.Abraykulova. Raqs. - Toshkent. "Turon-Iqbol"nashriyoti. 2018. - 154bet
7. E.Karimova, M.Xolmo'minov. Yangi O'zbekistonda milliy raqs san'atiga qaratilayotgan yuksak e'tibor ("Lazgi" raqsi misolida) - "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2/June 2022. - 170 bet
8. Axborot qidiruv manbai: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. X.Do'stmurodova. Raqs--qalbning yashirin tili.//Teatr jurnali. - Toshkent: 2021.3-son. - 448 bet





## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### RANGLAR PSIXOLOGIYASINING INSON KAYFIYATIGA TA'SIRI

Abdumajidova O'g'iloy Ravshanjon qizi

72-21 guruh talabasi

Guliston davlat universiteti

karshiboyeva89@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ranglar psixologiyasi va ularning ramziy ma'nolari hamda kundalik hayotimizdagi ranglarning inson kayfiyatiga ta'siri, ranglarning bugungi kundagi ahamiyati borasida fikrlar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** rang, inson, belgi, his-tuyg'u, tasviriy san'at, spektr, madaniyat.


Описание: Викторины, в которых учащиеся отвечают на вопросы, связанные с биохимическими процессами, химическими реакциями в живых организмах и химическим составом клеток.

Преимущества:

- Углубление понимания химических процессов в биологических системах.

- Развитие навыков анализа и синтеза информации из разных предметных областей.

Интеграция биологии с физикой. Пример игры: «Биофизические эксперименты»

Описание: Игровые симуляции экспериментов, где учащиеся изучают физические процессы в биологии, такие как фотосинтез, механика движения животных или терморегуляция.

Преимущества:

- Применение физических законов в биологических контекстах.

- Развитие экспериментальных навыков и понимания междисциплинарных связей.

Интеграция биологии с географией. Пример игры: «Экологические карты»

Описание: Игра, в которой учащиеся создают и анализируют карты различных экосистем, изучают биогеографические закономерности и воздействие климатических изменений на биоразнообразие.

Преимущества:

- Развитие навыков картографии и пространственного анализа.

- Понимание экологических и биогеографических процессов.

Интеграция биологии с другими предметами с помощью игровых методик является перспективным подходом к обучению, способствующим более глубокому пониманию материала и развитию комплексных навыков. Несмотря на существующие вызовы, правильно организованное междисциплинарное игровое обучение может значительно обогатить образовательный процесс и повысить его эффективность.

Игры являются мощным инструментом для обучения биологии, способным повысить интерес и мотивацию учащихся, улучшить усвоение учебного материала и развить критическое мышление. Несмотря на существующие вызовы, правильно организованное игровое обучение может значительно обогатить образовательный процесс и повысить его эффективность.

### Использованная литература:

1. Воробьева, А. В. (2021). Междисциплинарное обучение в школе: теоретические и практические аспекты. Педагогика и психология, 5(2), 34-45.

2. Павлова, Е. А. (2020). Игровые технологии в образовательном процессе. Вестник образования, 8, 112-118.

3. Воробьева, А. В. (2020). Дидактические игры в образовательном процессе. Педагогика и психология, 4(3), 56-67.





BIOSFERA DARAJASINING XUSUSIYATLARI. BIOSFERA CHEGARALARI

Raxmonova Mashxuraxon G'ulomjonovna

Andijon viloyati Shahrixon tuman

1-son kasb-hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Biosfera (bio... va yun. sphaira—shar) — Yerning tirik organizmlar tarqalgan qobig'i. Biosferaning tarkibi va energetikasi undagi tirik organizmlarning faoliyati bilan bog'liq. Biosfera "hayot qobig'i", to'g'risidagi dastlabki fikrni J.B Lamark bildirgan. "Biosfera" terminini esa fanga avstriyalik geolog E. Zyuss (1875) kiritgan. Biosfera ta'limot to'g'risidagi to'liq ma'lumotni rus olimi V. I. Vernadskiy (1926) ishlab chiqqan.

**Kalit so'zlar:** Biosfera, fan, Lamark, fikr, geology, energetika, hayot, ma'lum, qobig', dastlab, faoliyat, Yer.

Biosfera atmosferaning ozon ekranigacha balandlikda bo'lgan qismi (20–25 km), litosferaning sirtqi qismi va gidrosferani to'liq o'z ichiga oladi. B.ning quyi chegarasi quruqlikda 2–3 km, okean tubida 1–2 km chuqurlikkacha boradi. Yerdagi hayot murakkab va xilmaxil organizmlar kompleksidan iborat. Tirik organizmlar va ular yashaydigan muhit o'zaro chambarchas bog'langan bir butun dinamik sistema—biogeotsenozlarni hosil qiladi. Yerda hayotning rivojlanishi davomida organizmlarning bir guruhi ikkinchisining o'rnini olib turgan bo'lsada, u yoki bu geokimyoviy funksiyalarni bajarib turadigan organizmlar nisbati o'zgarmasdan qolgan. Shu tufayli turli geologik davrlarda moddalar bir xil tezlikda Yer qobig'ida to'planib borgan. Shunday qilib, tirik organizmlar hayotning muhim sharti bo'lgan anorganik muhitning doimiyligi (gomeostaz holati)ni saqlab turadi.

Inson faoliyati Yer yuzini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan hozirgi davrda B.ning rivojlanishi yangi pog'onaga ko'tarildi. So'nggi yillarda insonning B.ga biokimyoviy ta'siri boshqa barcha tirik organizmlarga nisbatan juda katta kuchga aylandi. Lekin tabiiy resurelardan foydalanishni B.ning rivojlanishi va funksiyasi qonuniyatlarini nazarpisand qilmasdan amalga oshirilishi (mas, o'rmonlarning kesilishi, yerlarning o'zlashtirilishi, shaharlar, zavod, fabrikalar, sun'iy suv havzalari, yo'llar qurilishi va boshqalar) B.dagi biokimyoviy jarayonlarga katta ta'sir o'tkazmoqda. Yer osti boyliklarini qazib olib, juda ko'p miqdorda yoqilg'i yoqilishi moddalar almashinuvini tezlashtirib, B. tarkibi va uning gomeostaz holatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli B.ni bir butun, muayyan darajada tartibga solingan murakkab dinamik sistema deb qaralishi unda kechadigan jarayonlarni to'g'ri tushunib olishga yordam beradi. Biosfera to'g'risidagi ta'limot ekologiya, biotsenologiya va boshqa fanlarning rivojlanishida, tabiat va jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p o'ta murakkab muammolarni xal etishda katta ahamiyatta ega.

Insonning biosferaga salbiy ta'siri. Turli tabiiy ofatlar, ocharchilik insonlar soni kamayishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, 1975-yilda Xitoyda bo'lgan yer silkinishidan 600 mingdan ortiq odam o'lgan bo'lsa, 1985-yilgi Mexikodagi yer qimirlash 20 ming, Kolumbiyadagi vulqon 26 ming, Armanistondagi yer qimirlash 25 ming, Tojikistonda esa 100- mingdan ortiq odamlar o'limiga sabab bo'ldi, 2001-yil yanvar oyi oxirida Hindistondagi yer silkinishida 40000 ga yaqin kishi halok bo'lgan.

Ammo insonning tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri xilma-xildir. Masalan, o'rmonlardagi yong'in sababli ming-minglab gektar yerdagi daraxtlar, ularning organik moddasi yonib ketadi. Atlantika okeani ustidan uchib o'tgan reaktiv samolyot 35 t. kislorod yutib, atmosferaga yutgan kisloroddan ortiq zaharli gazlar chiqaradi. Yerga haddan ziyod ko'p zaharli moddalar ishlatilishi biosfera turg'unligining buzilishiga sabab bo'ldi. 1960-90 yillar O'zbekiston paxta dalalarining har gektariga 45–51 kg dan zaharli gerbitsidlar qo'llanilishi qancha-qancha insonlarning og'ir dardga chalinishiga sabab bo'ldi, qanchasi hayotdan ko'z yumdi. Zaharli moddalar ta'siri ham ko'p yilar davom etadi. Turli mamalakatlar tomonidan dunyo okeani 6-7 mlrd.t qattiq chiqindilar tashlanadi, gidrosfera 90-100 mln. t. neft, neft mahsulotlari shundan 19-20 mln. tonna yer usti ekosistemasiga, 60-70 mln. tonna atmosferaga tushadi. Shunday texnogen sabablarga ko'ra, keyingi 130 yil ichida atmosferada CO<sub>2</sub> miqdori 0,3% dan 0,5% ga yetib qoldi. Ovrova mamlakatlaridagi sanoat va transportdan ajratilgan zaharli gazlar yerga (yomg'ir) kislotasi shaklida tushmoqda, havoda zaharli gazlar miqdori ortgan, masalan, 1 odamga 47 kg zaharli gazlar to'g'ri keladi. Atmosferadagi 70% gazlar Shvetsiya va 80% esa Norvegiya sifatida shamol bilan boshqa qo'shni hududlarga tarqaladi.

Ovrova hosil bo'ladigan kislotali yomg'irlarning 20% i Shimoliy Amerikadan keladi. Keyingi 4-5 yil ichida Osiyo osmonida sariq tuman hosil bo'lib, kislotali yomg'ir 2005-yil 10, 14-iyul kunlari





Toshkentga yog‘di. Yomg‘ir sariq zang  $pH=4,5$  bo‘lib, yomg‘ir tufayli sabzavot o‘simliklari qurib qoldi. Bundan 150-170 yillar avval Ovroqpa yerlariga atmosferadan yog‘in bilan kadmiy elementi tushgan emas, lekin keyingi vaqtda gektariga 5,4 - 5,5 gr kadmiy tushmoqda. Uning odamning ayrim bezlaridagi miqdori 1900-yilga qaraganda 75-80 barobar ortgan. Yirtqich qushlarda esa 132 barobar ko‘paygan. Hattoki keyingi 100 yil ichida Pomir-Oloy muzliklarida kadmiy miqdori 5-6-marta oshgan. Inson ijod qilgan moddalarning, tiriklik genetik sistemasiga salbiy ta‘siri juda katta. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha ko‘p miqdorda turli kimyoviy moddalar to‘plangan bo‘lib, ularning ayrimlari mutagenlik ta‘sir ko‘rsatadi, ular tirik organizm tanasida oksidlanish, tiklanish, parchalanish va qo‘shilish jarayonlarida hujayra organik moddalarini ifloslaydi, organizm genetik belgisi o‘zgaradi, ya‘ni ayollar homiladorligi buzilishi, bolaning chala tug‘lishi, bolalar o‘limi ortishi, yurak-qon tomir, oshqozon, jigar, buyrak, rak kasalliklari, uyqusizlik kabi holatlar ko‘payadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda pestitsidlarni qo‘llash natijasida har yili 375 ming odam zaharlanadi. Ulardan yuz mingdan ortig‘i o‘lgan. Zaharli gerbidsid va pestitsidlar qushlar, suv hayvonlariga salbiy ta‘sir qiladi. Masalan, AQSh ning suv havzalarida uchraydigan biologik organizmlarning 80% i teri va jigar raki bilan zaralangan. Kanada sudan balig‘i jigarida shish bo‘lgan, 5% li xom neftdan suv o‘tlar, umurtqasizlar, baliqlar, tyulen va kidsimonlar o‘ladi. Suvda ayrim og‘ir metallardan juda oz miqdorda ham tirik organizmlarga ziyon yetadi. Ya‘ni ularga simob, (0,05 mg l) mis (0,05), kadmiy (0,02), fenol (0,5), ammoniy (1 ml.g l), sianit (0,05)mg. Kabilar organizmlar harakatini buzadi ko‘p baliqlar o‘ladi va insonga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tabiatdagi har qanday organizmlar notirik tabiat bilan uzviy bog‘liq sharoitdagina mavjud bo‘la oladi, hayot o‘zining butun namoyon bo‘lish jarayonida sayyoramizda katta o‘zgarishlar keltirib chiqargan evolyutsiya jarayonida takomillashib borgan tirik organizmlar butun sayyora bo‘ylab kengroq tarqalgan hamda energiya va moddaning qayta taqsimlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yerga keladigan energiyaning 99% ini quyosh energiyasi tashkil qiladi. Bu energiya atmosfera, litosfera, gidrosferadagi turli-tuman jarayonlarga sarflanadi. Yerda energiyaning sarflanishidan tashqari uning bog‘lanishi va uzoq vaqtda zaxira sifatida to‘planishini ta‘minlaydigan yagona jarayon mavjud. Bu jarayon fotosintez jarayonidir. Tirik organizmlarning asosiy sayyoraviy vazifasi quyosh energiyasini bog‘lash va zaxira holatida to‘plash bo‘lib, bu energiya keyinchalik biosferadagi ko‘plab geoximik jarayonlarga sarflanadi. Tirik organizmlar o‘z tarixi davomida juda katta energiyani o‘zlashtirgan. Bu energiyaning kattagina qismi tarix davomida bog‘langan holda to‘planib qolgan. Bular ko‘rnir, torf va boshqa organik moddalardir.

### Adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Vernadskiy V. I., Biosfera, M., 1967; Otaboyev Sh. T., Nabiyeu Ch. N., Inson va biosfera, T., 1983; Biosfera. Evolyutsiya, prostranstvo, vremya, M., 1988
3. <https://uz.wikipedia.org/>
4. <https://t.me/ansege>



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI VA OMILLARI

Saparboyev Akbarbek Marks O'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti talabasi

(1-kurs magistratura)

Yonalish kodi va nomi : 70310102-Iqtisodiyot

(tarmoqlar va sohalar bo'yicha

akbarbek0233@gmail.com

+998975270233

**Annotatsiya:** Barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida ahamiyatga ega., chunki u yangi ish o'rinlarini yaratishni, byudjetga qo'shimcha daromadlar olib kirishni ta'minlaydi. Hozirgi davrda butun jahon iqtisodiyotini kichik biznesiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni katta. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi mahalliy mintaqaning o'ziga xususiyatlari bilan bog'liq. Ijtimoiy, demografik va mintaqadagi resurslarning mavjudligi biznesning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlashda ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi mustaqillik yillaridan to hozirgi kungacha ma'lum bosqichlarni bosib o'tgan. Bu borada bir qancha me'yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratilgan

**Kalit so'zlar:** Milliy, Iqtisod, milliy, Respublika, biznes, O'zbekiston, jahon, rivojlanish, davr, ijtimoiy, byudjet.

**Kirish:** 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 29- maqsadida, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbasini shakllantirishga sharoitlar yaratish, tadbirkorlikning YaIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini ochish va biznes-inkubatorlat tizimini rivojlantirish, hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni kamaytirish kabi masalalar alohida belgilab qo'yilgan. Jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning po'ydevori hisoblanadi.

Kichik biznes rivojlanishining Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, 2021-yilda 54,9 foizni tashkil etdi. Haqiqatdan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to'ldirayotgan, katta korxonalarni detallar va qismlar bilan ta'minlayotgan va mamlakat eksport salohiyatini oshirayotgan sohaga aylanib bormoqda. Buni mamlakat eksport salohiyatidagi o'rnini oshib borayotganidan ham ko'rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rne asta-sekin oshib bormoqda. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliyalarida kichik biznesning salmog'i juda katta. Keyingi vaqtlarda sanoat tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o'zgartirish, sanoatda tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarida ham sanoat tarmoqlari rivojlanmoqda. Sanoat ishlab chiqarishda ham kichik biznesning o'rne yildan-yilga o'sib bormoqda. Kichik biznesni sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat sanoatida, qayta ishlash sanoatida, yengil sanoatda ulushi yuqori.iqtisodiy ahamiyatlaridan biri by mamlakat YAIMini miqdor jihatdan ko'payishini ta'minlashdan iborat.

Oxirgi yigirma yil mobaynida ba'zi ko'rsatkichlarda 5-10 barobar, ayrimlarida esa 200- 300 barobar o'sish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, sanoat, qurilish, savdo, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida juda katta ijobiy o'zgarishlar tadbirkorlarning faollashuvi kuzatilgan. Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichi. 2022-yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'yektlari soni 2021-yilning mos davriga nisbatan 2835 taga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoatda – 1367 taga, savdoda – 693 taga, qurilishda – 517 taga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 178 taga kamayganligini ko'rish mumkin.

**Asosiy qismi:** Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes sub'ektlari Toshkent shahrida (20,3 %), Toshkent (9,5 %), Samarqanda (9,0 %), Farg'ona (8,6 %) va Andijon (7,7 %) viloyatlarda faoliyat



ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes sub'ektlari soning 50 foizdan ortig'ifaoliyat yuritmoqda. Hududlarda kichik biznesning YaIMdagi eng katta ulushini Surxandaryo (75,8%), Jizzax (75,5%) va Buxoro (72%) viloyatlarida, eng kam ulushini Navoiy (23,5%) viloyatida kuzatildi. 2022-yilning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,4 birlikni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: Korxonalar yiriklashuvi tendensiyasining pasayishi; Yirik ishlab chiqarishda xodimlarning qisqarishi; Yangi korxonalarini ochish sur'atining ortishi va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakatimizda qo'llab quvvatlash asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilyapti: - mamlakatimiz va uning mintaqalarida yanada qulay biznes muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlash; - kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish; - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratish va imtiyozlar berish; - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish, ularning hajmini oshirish; - kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan zarur qarorlar, qonunlar, farmonlar va shu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular hayotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ikkita fond: tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivijlantirishga ko'maklashish fondlari tashkil etildi. Tadbirkorlar uchun 2023-yil 1-yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi amaldagi 15 foizdan 12 foziga tushirilishi, 2022-yil 1-iyuldan boshlab bo'sh bino va foydalanilmayotgan yer uchastkasiga nisbatan soliqlarning oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilinib, tadbirkorlarning shu tarzda ilgari oshirib hisoblangan 2 trillion so'mlik qarzlaridan voz kechilishi ma'lum qilindi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytgandak kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda ko'plab qulay imkoniyatlar yaratilmoqda va bu orqali tadbirkorlik faoliyatini endigina boshlaganlar uchun ham moddiy ham ma'naviy yordam bo'lyapti desa ham bo'ladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratilishiga qaratilgan moliyaviy resurslar ajratilishi misol uchun kichik biznes loyihalariga 20 trillion so'm yo'naltirilib, bunga qo'shimcha tarzda tijorat banklariga xalqaro moliya institutlaridan han mablag'lar jalb etilishi yaqqol misol bo'la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://www.unwto.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 28.01.2022 yil.
3. knoema.ru [Мировой атлас данных] маълумотлари асосида тайёрланди.
4. <https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings>
5. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



## АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

УЎК:633.111

### УРУҒ ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИНИ ТРИТИКАЛЕ НАВЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШ ДАВРЛАРИНИНГ ДАВОМИЙЛИГИГА ТАЪСИРИ

Абдуллаев Исмоилжон Ибрахимжонович

Дон ва дуккакли экинлар илмий-тадқиқот институти, қ.х.ф.ф.д., доцент.

Пирова Меҳрибон Курбондурдиевна

Урганч давлат университети мустақил тадқиқотчиси

**Аннотация.** Хоразм вилоятининг ўтлоқи аллювиал тупроқлари шароитида тритикаленинг маҳаллий “Фарход” ва хорижий “Норман” навлари уруғларини турли муддатларда ва меъёрларда экиб етиштиришни ўсув даврининг давомийлигига таъсири ўрганилди. Олинган натижаларнинг кўрсатишича, уруғ экиш меъёрларининг ортиб бориши ўсимликларда ўсув даврининг давомийлигини экиш муддатларига боғлиқ ҳолда 3 кундан 10 кунгача чўзилишига олиб келиши аниқланди.

**Калит сўзлар:** тритикале, уруғ, экиш меъёри, экиш муддатлари, ўғит, агротехника

**Аннотация.** В условиях аллювиальных почв Хорезмской области изучено влияние посева семян местного сорта тритикале «Фарход» и зарубежного сорта «Норман» на продолжительность вегетационного периода. По полученным результатам определено, что увеличение нормы посева позволит увеличить продолжительность вегетационного периода у растений от 3 до 10 дней в зависимости от срока посева.

**Ключевые слова:** тритикале, семена, нормы посева, сроки посадки, удобрения, агротехника

**Annotation.** The effects of sowing the seeds of the local “Farkhod” and foreign “Norman” varieties of triticale on the length of the growing period were studied in the conditions of alluvial soils of the Khorezm region. According to the results, it was determined that the increase in the seeding rate will raise the length of the growing period in plants from 3 to 10 days, depending on the sowing period.

**Key words:** triticale, seed, planting rate, planting dates, fertilizers, agrotechnics

**Қириш.** Бугунги кунда дунё аҳоли сонининг ортиб бориши бошоқли дон экинларига бўлган талабнинг ҳам ортиб боришига олиб келмоқда. Шу ўринда бошоқли дон экинлари орасида тритикале ўсимлиги ҳам озиқ-овқат саноати учун ҳам-ашё, ҳам чорвачилик комплексини ривожлантириш учун муҳим озуқа экини сифатида ўзининг ўрни ва аҳамиятига эга бўлиб бормоқда.

Тритикале дони оксил вализин, триптофан сингари алмаштирилмайдиган аминокислоталарга бой. Буғдой ва жавдарга нисбатан донида оксил 1-4% кўп. Клейковинанинг миқдори буғдойникига тенг ёки 3-4% кўп, аммо сифати паст. Шунинг учун тритикале донининг нон ёпиш ҳамда тегирмонбоплик сифатлари буғдойникидан паст. Буғдой унига тритикале уни 20-30% қўшилиб нон ёпилса, нон сифати яхшиланади [1].

Шундан келиб чиққан ҳолда 2021-2024 йиллар мобайнида Хоразм вилоятининг ўтлоқи аллювиал тупроқлари шароитида кузги тритикаленинг маҳаллий “Фарход” ҳамда хориждан интрадукция қилинган “Норман” навларини турли муддатларда экилганида мақбул уруғ экиш меъёри ўрганиб чиқилди.

Илмий-тадқиқот ишлари 2020-2023 йилларда Урганч давлат Университетига қарашли тажриба хўжалигининг ўтлоқи аллювиал тупроқлари шароитида олиб борилиб, тажрибада кузги тритикаленинг маҳаллий “Фарход” ҳамда хорижий “Норман” навларини ўсиши, ривожланиши ва дон ҳосилдорлигига уруғларини экиш муддатлари ва меъёрларининг таъсири уч йил давомида ўрганилди.

Тажриба 18 та вариантдан иборат бўлиб, 3 такрорланишда бир ярусда жойлаштирилди. Тажриба даласида эгат кенлиги 70 см, узунлиги 50 м. Ҳар бир булакчалар майдони 280 м<sup>2</sup>,



ҳисобга олинадиган майдон 140 м<sup>2</sup>. Тажрибаларнинг умумий майдони 1,6 га. Тажириба 3 йил давомида 1:1 (ғўза:ғалла) қисқа ротацияли алмашлаб экиш тизимида олиб борилди. Тажирибада кузги тритикаленинг Давлат ресстрига киритилган ва Хоразм вилояти учун экишга тавсия этилган “Фарход” ва “Норман” навлари экилди.

**1-жадвал**

**Тажриба тизими**

№	Кузги тритикале нави	Уруғ экиш муддатлари	Уруғ экиш меъёрлари, млн дона/га
1	Фарход	15-сентябр	4,0
2			5,0
3			6,0
4		1-октябр	4,0
5			5,0
6			6,0
7		15-октябр	4,0
8			5,0
9			6,0
10	Норман	15-сентябр	4,0
11			5,0
12			6,0
13		1-октябр	4,0
14			5,0
15			6,0
16		15-октябр	4,0
17			5,0
18			6,0

Тажрибада кузги тритикаленинг “Фарход” ва “Норман” навлари уруғларини уч хил экиш (15-сентябр, 1-октябр, 15-октябр) муддатларида уч хил (4,0 млн/га, 5,0 млн/га, 6,0 млн/га) экиш меъёрларида экиб ўрганилди.

Кузги тритикалени озиклантиришда, азотли ўғитлардан корбомид (46%), аммиакли селитра (N–34%), фосфорли ўғитлардан суперфосфат (P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>–20%), калийли ўғитлардан калий тузи (K<sub>2</sub>O–40%) ишлатилди. Тажирибада фосфорли ва калийли ўғитларнинг 100% микдори кузда, шудгор остига қўлланилди. Азотли ўғитлар иккига бўлиб, 1-озиклантириш туплаш даврида, 2-озиклантириш найчалош даврида қўлланилди.

Қишлоқ хўжалиги экинларининг ўсув даври давомийлиги аввало ўнинг биологик хусусиятларига боғлиқ бўлсада, аммо экинни ўсув даврида қўлланилган агротехник тадбирлар маълум даражада ўз таъсирини ўтказиши кўплаб олимлар томонидан ўтказилган тадқиқотларда ўз исботини топган.

Шу ўринда бизнинг тадқиқотларимизда ҳам тритикале навларини етиштиришда қўлланилган агротехник тадбирларни ўсув даврининг давомийлигига таъсири сезиларли бўлганлиги кузатилди.

Жумладан, тритикаленинг “Фарход” нави уруғлари 15-сентябр муддатида гектарига 4,0-5,0-6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 1-2-3 вариантларда ўсимликларнинг ривожланиш давлари давомийлиги ҳамда уруғ экилганидан пишиб етилгунига қадар ўтган кунлар ҳисобга олинганида кўчатларнинг униб чиқиши барча вариантларда 25.09 кунига, майсалош фазасига ўтиши 9.10 кунига, туплаш фазасига ўтиши 27.10 кунига, найчалош фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 31.03 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганида 30.03 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганида 29.03 кунига, бошоқлаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 15.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганида 13.04 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганида 11.04 кунига, гуллаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 23.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганида







вақт сарфланганлиги аниқланди.

Уруғлар 1-октябр муддатида гектарига 4,0-5,0-6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 13-14-15 вариантлар таҳлил қилинганда кўчатларнинг униб чиқиши барча вариантларда 12.10 кунига, майсалаш фазасига ўтиши 27.10 кунига, туплаш фазасига ўтиши 13.11 кунига, найчалаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 8.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 7.04 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 5.04 кунига, бошоқлаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 23.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 21.04 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 17.04 кунига, гуллаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 31.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 29.04 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 24.04 кунига, пишиш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 29.05 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 26.05 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 20.05 кунига тўғри келиб, уруғ экилганидан пишгунига қадар гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 243 кун, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 239 кун, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 233 кун вақт керак бўлганлиги маълум бўлди.

Уруғлар 15-октябр муддатида гектарига 4,0-5,0-6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 16-17-18 вариантларда парвариш қилинган ўсимликлар кузатилганда, кўчатларнинг униб чиқиши барча вариантларда 30.10 кунига, майсалаш фазасига ўтиши 16.11 кунига, туплаш фазасига ўтиши 1.12 кунига, найчалаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 12.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 10.04 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 8.04 кунига, бошоқлаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 29.04 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 25.04 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 22.04 кунига, гуллаш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 6.05 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 2.05 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 30.04 кунига, пишиш фазасига ўтиши гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 2.06 кунига, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 28.05 кунига, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 25.05 кунига тўғри келиб, уруғ экилганидан пишгунига қадар гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 231 кун, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ экилганда 226 кун, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 223 кун вақт ўтганлиги аниқланди.

Тажрибада тритикале навларини ўсув даврининг давомийлиги бўйича олинган натижаларнинг кўрсатишича, ҳар икки навда ҳам кўчат қалинлиги ортгани сари ўсув даврининг давомийлиги ҳам ортиб борганлиги кузатилиб, гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганга нисбатан гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда 3 кунгача, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда эса 5 кунгача давомийлиги чўзилганлиги қайд этилди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлашимиз мумкинки, ўсув даври бўйича кузги тритикаленинг хорижий “Норман” нави маҳаллий “Фарход” нави нисбатан 10 кунгача давомий бўлиб, кўчат қалинлиги ортгани сари пишиш муддати 3 кундан 5 кунгача чўзилиб бориши тадқиқотларимизда ўз исботини топди.



2-жадвал

Уруғ экиш муддатлари ва меъёрларини тритикале навларининг ўсув даври давомийлигига таъсири, 2021 йил.

№	Кузги тритикале навлари	Уруғ экиш муддатлари	Уруғ экиш меъёрлари, млн дона/га	Вақт	Униб чиқиш	Майсалаш	Тупланиш	Найчалаш	Бошқоқлаш	Гуллаш	Пишиш	Ўсув даври-нинг давомийлиги
1			4,0	Сана:	25.09	9.10	27.10	31.03	15.04	23.04	15.05	243
				Қун:	10	14	18	156	15	8	22	
2		15-сентябр	5,0	Сана:	25.9	9.10	27.10	30.03	13.04	20.04	12.05	240
				Қун:	10	14	18	155	14	7	22	
3			6,0	Сана:	25.09	9.10	27.10	29.03	11.04	18.04	10.05	238
				Қун:	10	14	18	154	13	7	22	
4			4,0	Сана:	12.10	27.10	13.11	5.04	18.04	25.04	19.05	232
				Қун:	12	15	17	144	13	7	24	
5	Фарход	1-октябр	5,0	Сана:	12.10	27.10	13.11	4.04	16.04	23.04	16.05	229
				Қун:	12	15	17	143	12	7	23	
6			6,0	Сана:	12.10	27.10	13.11	2.04	14.04	21.04	14.05	225
				Қун:	12	15	17	141	12	7	21	
7			4,0	Сана:	30.10	16.11	1.12	8.04	23.04	30.04	27.05	225
				Қун:	15	17	15	129	15	7	27	
8		15-октябр	5,0	Сана:	30.10	16.11	1.12	7.04	21.04	29.04	25.05	223
				Қун:	15	17	15	128	14	8	26	
9			6,0	Сана:	30.10	16.11	1.12	5.04	19.04	27.04	22.05	220
				Қун:	15	17	15	126	14	8	25	



2-жадвал давоми  
Уруғ экиш муддатлари ва меёрларини тритикале навларининг ўсув даври давомийлигига таъсири, 2021 йил.

№	Кузги тритикале навлари	Уруғ экиш муддатлари	Уруғ экиш меёрлари, млн донна/га	Вақт	Униб чиқиш	Майсалаш	Тупланиш	Найчалаш	Бошқоқлаш	Гуллаш	Пишиш	Ўсув даврининг давомийлиги
10			4,0	Сана:	25.09	9.10	27.10	4.04	20.04	28.04	25.05	253
				Кун:	10	14	18	160	16	8	27	
11		15-сентябр	5,0	Сана:	25.9	9.10	27.10	2.04	17.04	25.04	22.05	250
				Кун:	10	14	18	158	15	8	27	
12			6,0	Сана:	25.09	9.10	27.10	1.04	15.04	22.04	20.05	247
				Кун:	10	14	18	157	14	7	27	
13			4,0	Сана:	12.10	27.10	13.11	8.04	23.04	31.04	29.05	243
				Кун:	12	15	17	147	15	8	29	
14	Норман	1-октябр	5,0	Сана:	12.10	27.10	13.11	7.04	21.04	29.04	26.05	239
				Кун:	12	15	17	146	14	8	27	
15			6,0	Сана:	12.10	27.10	13.11	5.04	17.04	24.04	20.05	233
				Кун:	12	15	17	144	12	7	26	
16			4,0	Сана:	30.10	16.11	1.12	12.04	29.04	6.05	2.06	231
				Кун:	15	17	15	133	17	7	27	
17		15-октябр	5,0	Сана:	30.10	16.11	1.12	10.04	25.04	2.05	28.05	226
				Кун:	15	17	15	131	15	7	26	
18			6,0	Сана:	30.10	16.11	1.12	8.04	22.04	30.04	25.05	223
				Кун:	15	17	15	129	14	8	25	



**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Р.О.Орипов, Н.Х.Халилов. Ўсимликшунослик // Ўқув қўлланма. Тошкент-2006. 147-б.
2. Р.И.Сиддиқов, С.О.Абдурахмонов, И.И.Абдуллаев. Хоразм вилояти шароитида бошоқли дон экинларини етиштириш технологиялари // Тавсиянома, Андижон-2022. 18-20-б.
3. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари // Услубий қўлланма. Тошкент-2007. 187-192-б.





МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

**ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>З.Х.Тожиёв, М.Н. Мамаюсупов</b> СУДЬЯЛАР ДАХЛСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХАЛҚАРО-ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	5
<b>Kulturayeva Sarvinoz Sadridin qizi</b> VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI O‘TASH REJIMINING UMUMIY TAVSIFI.....	8
<b>Nabibullayeva X</b> ZAMONAVIY JAMIYATDA AYOLLARNING SIYOSIY VA IQTISODIY HUQUQLARINI TAH- LIL OLISH.....	10
<b>Israilova Zarina Sadriddinovna, Shokirova Lola Otabekqizi</b> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASO- SLARI.....	12
<b>Turg‘anbayeva Indira Janabayevna</b> HUQUQIY MADANIYATNING YUKSALISHIDA TARBIYANING O‘RNI.....	16
<b>Убайдуллаева Холида Манноповна</b> РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЮРИДИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ.....	18

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Nurmatova Umida Jalolidinovna, Norjigitova Sevinch Aliddin qizi</b> INTERNETNING YOSHLAR MA‘NAVIY-MAFKURAVIY QIYOFASIGA TA‘SIRI MUAMMOSI.....	20
<b>Nurmatova Umida Jalolidinovna, Ibrohimova Muxabbat Anvarjon qizi</b> MEDIA AXBOROTNING EVOLYUTSION TARIXI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI.....	22
<b>Raxmonova Gulzoda G‘aniyevna</b> IJTIMOIY ONG VA INSON ERKINLIK LARI RIVOJLANISHINING MA‘NAVIYATGA TA‘SIRI.....	24
<b>Tursunova Shahnoza Bekchanovna</b> JAMIYATNING AXBOROT SAVODXOLIGINI TA‘MINLASHDA AXBOROT ISTE‘MOLI MADANIYATINI O‘RNATISH.....	27

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Farmonov Mirzohid Mardonovich</b> TARIX DARSLARIDA TO‘GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISHDA MAVZUGA ZAMIN METODINI QO‘LLASH.....	29
---	----

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ ТУТГАН ЎРНИ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Kurbanov E.E</b> O‘ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIMIYATI DEMOKRATIK ASOSLARINING SHAKLLANI- SHI VA RIVOJLANISHI.....	31
---	----



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>Abduraimova Mehriniso Murodjon qizi</b> THE ROLE OF A TEACHER IN ESP CLASSROOM.....	33
<b>Makhametova Dilnavoz Botirovna</b> PARTICULAR CHARACTERISTICS OF LINGUISTIC AND CULTURAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK .....	35
<b>Muqaddam Alixonova</b> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI TERMINLARINING FUNK- SIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	38
<b>Кодирова Лола Музафаровна</b> ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОСТРАНСТВ .....	40
<b>Hulkar Turdieva Komilovna</b> ENLIGHTENERS OF INDONESIA & UZBEKISTAN .....	43
<b>Abduraimova Mehriniso Murodjon qizi</b> THE ROLE OF STORYTELLING IN DEVELOPING PUBLIC SPEAKING SKILLS .....	45
<b>Мухиддинова Сабохат Ахматжановна</b> МОТИВАЦИЯ И УЧЕБНЫЕ ПРОСТРАНСТВА .....	47
<b>Qodirova Lola Muzafarovna</b> VARIABLES IN LANGUAGE .....	49
<b>Dilshoda Rakhmonova Sayfullo kizi</b> TEACHING STRATEGIES FOR STUDENTS WITH DIVERSE NEEDS.....	51
<b>Dilshoda Rakhmonova Sayfullo kizi</b> THE ROLE OF FEEDBACK IN THE LEARNING PROCESS .....	53
<b>Boburjon Samigov</b> INDONEZ TILIDA O'ZLASHMALAR: KALKALASH TURLARI .....	55
<b>Хомидчонова Ш.Х.</b> ВЛИЯНИЕ СТРЕССА НА СОСТОЯНИЕ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОГО ТРАКТА.....	56
<b>Хо'jamqulova Nilufar Abdimurod qizi, Хо'jamqulov Abdulaziz Hazrat o'g'li</b> INTEGRATING AI AND TECHNOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING .....	57
<b>Мирзалиев Толибжон Ганиевич</b> ОБ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ .....	59
<b>Мирзалиева Дильфуза Саминовна</b> О МЕТОДАХ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ .....	61
<b>Xaitova Shoira Rustamovna</b> ENHANCING READING SKILLS AT SECONDARY SCHOOLS IN UZBEKISTAN.....	63
<b>Мирзалиев Толибжон Ганиевич, Жураева Насибохон</b> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ.....	66
<b>Sarayeva Feruza Norbayevna</b> MIFOLOGIK TUSHUNCHA LINGVO-KULTUROLOGIK TUSHUNCHANING BIR TURI SIFA- TIDA.....	68

АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>D.I.Nazarova</b> YANGI O'ZBEK SHE'RIYATI MUMTOZ JANRLARNING TAKOMILI.....	70
<b>Xosilova Xabiba Isamiddinovna, Rahmatova Nargiza Valijonovna</b> USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING SPEAKING FOR 7TH GRADE LEARN- ERS .....	73



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>Алиев Фирдавс Алимович</b> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В ДЕ- ЯТЕЛЬНОСТИ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ КОМПАНИЙ. ....	76
<b>Ermetov Amirbek Ismailovich, Ibragimov Ibragim Kenjayevich</b> YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISH.....	79
<b>Рахимова Дилфуза Нигматовна</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КАДРЛАР СИЁСАТИ ВА ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР .....	81
<b>Бердикулова Ирода Раимкуловна</b> МЕТОДЫ АНАЛИЗА И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	85
<b>Бердикулова Ирода Раимкуловна</b> ОСОБЕННОСТИ И ЗНАЧЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКОГО РЫНКА В УЗ- БЕКИСТАНЕ .....	87
<b>Ж.Р.Бердикулов</b> БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ .....	89
<b>Ж.Р.Бердикулов</b> МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ПОТЕНЦИАЛИНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛИ .....	92
<b>Юсупова Мехрибон Уктамовна</b> ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	95

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>Хамраева Zebiniso Haydarovna</b> DERIVATION AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE COMPLEX SYNTACTIC WHOLE	99
<b>Хамраева Zebiniso Haydarovna</b> TEXT SEGMENTATION AND COMPLEX SYNTACTIC WHOLE: EXPLORING COGNI- TIVE PROCESSES IN LANGUAGE COMPREHENSION .....	102
<b>Niyazova Gulnoraxon G'ulomovna</b> ADRESAT NIYATINING XUSUSIY DISKURS SHAKLLANISHIGA TA'SIRI.....	104
<b>Джалилова Нилуфар Дилшодовна</b> СОВРЕМЕННЫЙ УРОК АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА С ПРИМЕНЕНИЕМ МЕТОДОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	106
<b>Лутфуллаева Хулкархон Асагуллаевна</b> АКТУАЛЬНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ.....	109
<b>М.И. Охунбаев, Рахматов Р.Р</b> ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВЕРОЯТНОСТЕЙ СЛОЖНЫХ СОБЫТИЙ .....	111
<b>Ibodullayeva Guli Ibodullayevna, Sultanova Dilmura Pulatjonovna</b> ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN QIZLAR PSIXOLOGIIYASI.....	114
<b>Pardayev Obidjon Hamza o'g'li</b> YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH.....	116
<b>Saatbayeva Dilfuza, Sabirova Rayxonoy</b> PSIXOLOGIK MASLAHAT VA KORREKSIYANING MAQSADI .....	118
<b>Smetullaeva N.M</b> МАКТАБЛАРДА КАСБГА YO'NALTIRISH ISHLARINI OLIV BORISHDAGI AYRIM MUA- ММОЛАР.....	120
<b>Бекмурадова Махфуза Каршиевна</b> МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ИШЛАРИНИ РЕЖА- ЛАШТИРИШДА ХОРИЖИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	122



<b>Сафарова Нилюфар Самиевна</b> ТРАДИЦИЯ «УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК» В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	124
<b>Учкурова Шахноза Шавкат қизи</b> МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҚОНУН ХУЖЖАТЛАРИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	125
<b>Sh.Abdullayeva</b> RUS TILINI O'QITISHDA LOYIHA USULI .....	127
<b>Z.K.Tuliyeva</b> YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI - KELAJAGIMIZ VA ISTIQBOLIMIZ ROYDEVORI .....	129
<b>Н.С.Матязова</b> ЖАМИЯТДА ИМКОНИАТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАРГА ЭЪТИБОР .....	132
<b>Н.С.Матязова</b> ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	134
<b>Абдуллаева Шохидахон Давронбековна</b> ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ УЧИТЕЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	136

**МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Mamatqulov Shahzod Yo'ldoshboy o'g'li, Kuychiyeva Zamira O'narovna, Toshnazarov Jamol Ravshanovich</b> XORAZM "LAZGI" SAN'ATINING KELIB CHIQISHI VA HOZIRGI KUNDA UNGA AJRATI- LAYOTGAN YUKSAK E'TIBOR .....	141
---	-----

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Abdumajidova O'g'iloy Ravshanjon qizi</b> RANGLAR PSIXOLOGIYASINING INSON KAYFIYATIGA TA'SIRI.....	143
--	-----

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Musakulova Ezoza Anvar kizi</b> ECONOMY AND MODERN INFORMATION TECHNOLOGY .....	145
<b>Musakulova Ezoza Anvar kizi</b> THE DIGITALIZATION OF INNOVATION AND ECONOMY.....	146
<b>Musakulova Ezoza Anvar kizi</b> THE STRATEGIC DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY IN ARTIFICIAL INTELLI- GENCE .....	147
<b>Ruziyeva Soxibjamol Nuraliyevna, Musaqulova E'zoza Anvar qizi</b> EMUKP580BM80A LEARNING ARITHMETIC OPERATIONS ON NUMBERS .....	148
<b>Musakulova Ezoza Anvar kizi, Ruzieva Sokhibjamol Nuralievna</b> EMUKP580BM80A performing logical operations on numbers. ....	150

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Хаитова Шарифа Рустамовна</b> ИЗУЧЕНИЕ ФИЗИКИ В ШКОЛЕ В СИСТЕМЕ STEAM В УЗБЕКИСТАНЕ .....	152
<b>Axmedova Maysara</b> ax+by=d SHAKLLI TENGLAMALAR (DIOFAND TENGLAMALARI) .....	155



<b>Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi, Bozorboyeva Guli Jo'rabek qizi</b> GEOMETRIK MASALALARNI YECHISH HAQIDA AYRIM TAVSIYALAR .....	157
<b>Ametov Begdulla Kazakbaevich</b> MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKILLASHTIRISH .....	159
<b>Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi, Aglamova Mahliyo Aziz qizi</b> GEOMETRIYA O'QITISHDA MASALALARINI YECHISH USULLARI .....	162
<b>Umaraliyev Murodjon Qambarali o'g'li</b> TRANSVERSAL. MENELAY TEOREMASI .....	164

**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Бобоева Зухра.Нуриллаевна, Фазлиддинов Жахонгир</b> МЕРЦАТЕЛЬНАЯ АРИТМИЯ КАК ОСЛОЖНЕНИЕ СЕРДЕЧНО СОСУДИСТЫХ ПАТОЛОГИЙ И ЕЁ ВСТРЕЧАЕМОСТЬ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПОЛОВЫХ И ВОЗРАСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ БОЛЬНЫХ.....	166
<b>Бобоева Зухра.Нуриллаевна, Мирзамурадова Мухлиса</b> ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ НАРУШЕНИЙ РЕОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ КРОВИ ПРИ РАЗВИТИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ .....	169
<b>Абдуолимов Абдумани Абдунабиевич, Мамажонов Бохадир Солижанович</b> ГИПЕРТОНИЯ КАСАЛЛИГИДА МИЯ ИЧИ ҚОН ТОМИРЛАРИДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР .....	171
<b>Холикова А.О., Тешаев Б.К., Алимова Н.У.</b> «Значение международного опросника DQOLY-SF в оценке качества жизни детей и подростков с сахарным диабетом 1 типа» .....	173

**БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҶАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Сайдуллаева Замира Нарзуллаевна</b> ИНТЕРАКТИВНЫЕ ИГРЫ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ. ....	176
<b>Raxmonova Mashxuraxon G'ulomjonovna</b> BIOSFERA DARAJASINING XUSUSIYATLARI. BIOSFERA CHEGARALARI .....	178
<b>Saparboyev Akbarbek Marks O'g'li</b> MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA OMILLARI .....	180

**АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Абдуллаев Исмоилжон Ибрахимжонович, Пирова Меҳрибон Курбондурдиевна</b> УРУҒ ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИНИ ТРИТИКАЛЕ НАВЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШ ДАВРЛАРИНИНГ ДАВОМИЙЛИГИГА ТАЪСИРИ .....	182
--	-----



**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР” МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА**  
**64-КЎП ТАРМОҚЛИ**  
**ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(2-қисм)**

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 31.05.2024

---